


ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY PEDAGOGIKA



MA'RUZA MATN

5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish

5112000 – Jismoniy madaniyat

5112001 – Xotin-qizlar sporti

Z.M.MAMAJONOVA



Mazkur o'quv- uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2014 yil 10-martdagi 87-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: Pedagogika kafedrası o'qituvchisi Z.M.Mamajonova

Taqrizchi: Pedagogika kafedrası professori, p.f.d. T.X.Xasanov

Ushbu maruza matni ADU kengashining yil 28-avgustdagi 1- sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI

MA'RUZA MATERIALLARI.....

Ijtimoiy pedagogika predmeti

- 1 Bolaning sotsiumda (yaqin muhitda) rivojlanishi, Ijtimoiy pedagogika mezonlari va tamoyillari.....
- 2 Ijtimoiy pedagogik g'oyalarning Markaziy Osiyo, Rossiya va G'arbdagi tarixi.....
- 3 Oila va bolalar, ota-onasiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat.....
Ijtimoiy pedagogikada me'yoriy va me'yordan og'ishlik tushunchasi. Deviatziya
- 4 (og'ishganlik) ijtimoiy pedagogik muammo sifatida Deviant (me'yordan xulqiy og'ishgan) bolalar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat.....
Alkogolizm bolalar xulqida deviantlikni vujudga keltiruvchi shakli sifatida. Alkogol
- 5 iste'mol qilishga og'ishgan o'smirlar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat.....
- 6 Giyohvandlik – bolalarda deviantlik xulqi vujudga kelishi shakli sifatida.....
Jinoyatchilik bolalarda delinkventlik xulqi vujudga kelish shakli sifatida. Voyaga yetmagan
- 7 huquqbuzarlar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish.....

SO'Z BOSHI

Ijtimoiy pedagogika fan sifatida va o'quv faniga muvofiq o'zining ilk qadamini qo'yimoqda. Ijtimoiy pedagog yaqin o'n yillik tibbiyot xodimi yoki o'qituvchi sifatida eng ommaviy kasblardan biriga aylanadi.

Jahonning boshqa mamlakatlari kabi O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy pedagog juda qadimiy va chuqur an'analarga ega bo'lib, hozirgi kunda esa maxsus fan sohasi sifatida ijtimoiy pedagogika ayrim qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu qiyinchiliklar qatorida ba'zi bir an'analarning, urf-odatlar, mehr-oqibat, hayriya ishlarining sobiq Ittifoq davrida yo'qolib borishi, "Hamma umumiy manfaat uchun" harakat qilib alohida insonga bo'lgan munosabatning susayishini aytib o'tish mumkin.

Ijtimoiy pedagogika fani bo'yicha mazkur o'quv-uslubiy majmua mamlakatimizda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati tamoyillari asosida, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim standart"lariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Ushbu maruza matni ijtimoiy pedagogikani fan sifatida va bugungi amaliyot ehtiyojlarining rivojlanishi zamonaviy darajasida bayon etilgan hamda talabada ijtimoiy pedagogika haqida gumanitar bilimlar, uning ob'ekti, tadqiqot predmeti va asosiy mezonlari to'g'risida nazariy tasavvurni shakllantirish, bolalarni ijtimoiylashtirishning omillari va qonuniyatlari, ijtimoiy pedagogik faoliyatning xususiyatlari va uning yo'naltirishlarini ochib berish, ijtimoiy pedagogik faoliyatning asosiy metod va shakllarini egallash haqida yaxlit tasavvurni shakllantirish masalasi yoritilgan. Ayniqsa bolaning jamiyatga moslashuvi ko'rib chiqiladi.

1-mavzu: Ijtimoiy pedagogika fan sifatida. Bolaning sotsiumda (yaqin muhitda) o'sishi. Ijtimoiy pedagogika mezonlari va tamoyillari

Reja:

1. Ijtimoiy pedagogikaning predmeti va ob'ekti.
2. Bolaning o'sishi haqida tushuncha. Bolaning o'sishida biologik va ijtimoiy asoslar.
3. Bola kamolotida muhitning ta'siri.
4. Ijtimoiy pedagogika mezonlari. Ijtimoiy pedagogik faoliyat.
5. Ijtimoiy ta'lim (o'qitish). Ijtimoiy tarbiya.
6. Ijtimoiy pedagogika prinsiplari: a) tarbiyaning tabiat bilan uyg'un bo'lish prinsipi; b) madaniyat bilan uyg'un bo'lish prinsipi; v) gumanizm prinsipi.

Asosiy tushunchalar: ijtimoiy pedagogika, sotsializatsiya (ijtimoiylashuv), sotsium, ijtimoiy rol, ijtimoiy maqom, mezon va prinsiplar, ijtimoiy pedagogik faoliyat, ijtimoiy ta'lim va tarbiya, tabiatlashuv, madaniyatlashuv, gumanizm

Ijtimoiy pedagogika predmeti va ob'ekti

Ijtimoiy pedagogika fan sifatida pedagogikadan ajralib chiqdi. Uni o'rganilish jarayoni va ko'rinishi pedagogika fani tomonidan o'rganadigan, biroq o'ziga xosligi aniq bir sohani o'rganish jihatdan tadqiq qilinadi. Pedagogika fani bu yangi tarmog'ining o'ziga xosligi "ijtimoiy" so'zida namoyon bo'ladi.

"Ijtimoiy" tushunchasi (lotincha socialis – umumiy, jamoatchilik) insonlarning birgalikdagi hayoti bilan bog'liq bo'lib, ularning muomala va bir-biriga ta'sirining turli xil shakllari birlashtiradi.

Pedagogika – bu fan sifatida o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi va ta'limi haqidagi fan bo'lsa, ijtimoiy pedagogika esa tarbiya va ta'limning bolalar hayotining jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi. Bu jarayon bolaning jamiyatga "kirishi", ularning ma'lum bir ijtimoiy tajribaga ega bo'lishi (bilim, boylik, o'zini tutish qoidalari, yo'naltirish) sotsializatsiya (ijtimoiylashuv) deb yuritiladi.

Bolaning ijtimoiylashuvi – juda uzoq va murakkab jarayon hisoblanadi. Har qanday jamiyat shunga intiladiki, har bir bola ma'lum ijtimoiy va ahloqiy qadriyatlar tizimiga, shu jamiyat me'yor va qoidalariga ega bo'lishi, shu jamiyatda yashash uchun, teng huquqli a'zosi bo'lishga intiladi.

Jamiyat o'zining qurilishiga ko'ra turli xildagi o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sir etuvchi ijtimoiy institutlarga ega. Ijtimoiy institut – insonlar jamiyatdagi hayotining tarixan murakkab shaklda tashkil etilganligi va tartibga solinganligini o'rganadi. Xuddi ana shular orqali bola jamiyat me'yorlari va ahloq qoidalarini o'zlashtiradi. SHunday ijtimoiy institutlarni ijtimoiylashgan institut deb nomlash mumkin va bularga oila, ta'lim, madaniyat va din kabilar kiradi.

Oila – ijtimoiylashishning etakchi instituti, bu orqali bola asosiy ijtimoiy bilimni egallaydi, ahloqiy mohirlik va ko'nikmani oladi, ma'lum baho va eng yuksak maqsad qilishni o'zlashtiradi, hayotida nima kerak bo'lsa shu jamiyatdan oladi.


Ta'lim – talim orqali bola bu jamiyatga hukmronlik qilayotganlarni baholay oladi. Ta'limda bilim olish jarayonida, u nafaqat rivojlanadi, balki jamiyatdagi hayotga moslashadi.

Madaniyat – bu shunday ijtimoiy institutki, insoniyat o'zi uchun yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni tanlaydigan maskan. Bolaga uning shakllanish jarayonida adabiyot, musiqa, rasm, ommaviy axborot vositalari va boshqalarning ta'siri tegadi.

Din – ijtimoiy institut sifatida murakkab ijtimoiy ko'rinishga ega. Bir butunicha tizimda alohida tasavvur, sezgi, ibodat harakatlari, tashkilotlar va sig'inuvchilarning turli xil birlashmalari mavjud. Doimiy axloqiy qadriyatlar, islom, xristian (yaqinlarga sevgi va


g'amxo'rlik, halollik, chidamlilik, yaxshilik, mehr-muruvvatlilik va b), diniy bayram va an'analar, diniy musiqa va boshqalar bolaning jamiyatdagi ahloqiy me'yorlari ta'sir etishi mumkin.

Bolaning jamiyatga chiqish chizmasi – sotsializatsiya (ijtimoiylashuvi)



Fan sifatida ijtimoiy pedagogika xususiyatlarini tushunish uchun u nimani o'rganishini aniq ob'ekti va mavzui. Biz ularni bu yangi ilmiy soha ajralib chiqqan pedagogika bilan solishtirishda aniqlaymiz. YOdimizdagi, pedagogikani o'rganish ob'ekti – bola, mavzui esa bola tarbiyasi va ta'limi qonuniyatlari hisoblanadi. Unda ijtimoiy pedagogika ob'ekti bo'lib ham bola, uni o'rganish mavzui esa bola ijtimoiylashuvi (sotsializatsiyasi) hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogikaning pedagogika va sotsiologiya bilan o'zaro ta'siri chizmasi



Bola rivojlanishi haqida tushuncha

Inson rivojlanishi – juda murakkab jarayon. U tashqi ta'sirlar hamda ichki kuchlar ta'sirida sodir bo'ladi. Tashqi omillarga insonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek bolalarda muayyan xislatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat kiradi. Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi.

Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalb qilinadi (o'yin, mehnat, o'quv, sport va b) va muloqotga kiradi (ota-ona, tengdoshlar, begona kishilar va b. bilan). Bunda u o'ziga xos bo'lgan faollikni namoyon etadi. Bu muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi.

Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, etakchisi bo'lad. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi.

Bola tug'ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o'zlashtirib olishi mumkin. Bu o'z navbatida bola faoliyatida va atrof-muhitni bili shva o'zlashtirishda etakchi vazifani bajaradi.

SHaxs rivojlanishi harakatlantiruvchi kuchlari bo'lib bola ehtiyoji va uni qoniqtirish imkoniyati o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar hisoblanadi.

Insondagi biologik va ijtimoiy omillar – bu bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki parallel chiziqlar emas. Har bir shaxsda ular shunday chambarchas qo'shib ketadiki, ularning farqlari shunday turli-tumanki, tadqiqotchilar bola rivojlanishi asosida ikki o'ta muhim bo'lgan omilni irsiyat va muhitni ajratadi. Ular (irsiyat va muhit) inson rivojlanishi manbalari va shartlari hisoblanadi.

Biologik va ijtimoiy omillar

Biologik omillar. Biologik irsiyat insonni inson qiladigan umumiylikni hamda insonlarni tashqi va ichki jihatdan turli qiladigan farqlanishni aniqlaydi. Irsiyat deganda bolalar genetik dasturiga kiritilgan muayyan xislat va xususiyatlarning ota-onadan bolaga o'tilishi tushuniladi.

Nasldan bola inson organizmi, inson asab tizimi, inson miyasi va sezgi a'zolarini oladi.

Ota-onalardan bolalarga tana tuzilishi xususiyatlari, soch rangi, ko'z, teri rangi kabi bir insonni boshqa insondan farqlaydigan tashqi omillar o'tadi. Nasldan asab tizimining ba'zi bir xususiyatlari ham o'tadi. Bular asosida asab faoliyatining ma'lum bir turi rivojlanadi.

Inson rivojlanishida intellektual xislatlarning o'tishi masalasi juda muhimdir. Filolog va psixologlar tadqiqotlariga ko'ra qobiliyatlar nasldan o'tmaydi, faqat qobiliyatlarni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar hisoblangan qobiliyat nishonalari o'tadi.

Bola rivojlanishida irsiyat ahamiyati haqida gapirganda irsiy tabiatga ega bo'lgan bir qator kasallik va patologiyalarning mavjudligini e'tiborga olish lozim. Masalan, psixik buzilishlar (shizofreniya), qon kasalligi (gemofiliya), endokrin buzilishlar (pakanalik). Ota-onalar alkogolizm iva giyohvandligi nasl uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tashqi omillar bo'lgan atmosferaning, suvning ifloslanishi, ekologiya buzilishi ham bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy kamchilikli (ko'rlar, karlar, tayanch-harakatlantiruvchi apparatning buzilishi va b) bolalar tug'ilishi ko'paymoqda.

SHunday bolalar uchun muloqotda bo'lish jamiyatga "kirish" ancha murakkabdir. Bular bilan maxsus tayyorlangan pedagoglar shug'ullanadi.

Ijtimoiy omillar

Inson bo'lib etishish uchun faqatgina biologik irsiyatning o'zi kifoya emas. Inson faqat sotsiolizatsiya jarayonida, ya'ni muloqotda, boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sirda shaxs bo'lib etishadi. Inson jamiyatidan tashqarida ma'naviy, ijtimoiy, psixik rivojlanishi sodir bo'la olmaydi. Bu fikrni barchaga ma'lum hollar, ya'ni inson bolasi hayvonlar orasida o'sgani yanada mustahkamlaydi.

Inson bo'lib tug'ildi, lekin inson bo'la olmadi.

Hozirgi kunda inson sivilizatsiyasi tarixida qayd etilgan bir qancha dalillar bor. Rim asoschilari Romul va Rem bo'ri onasi bilan emizilgan edi (shunday deb afsonada gap yuritiladi), maugli bo'rilar to' dasida tarbiyalangan edi. Inson bolalarini bo'rilar bilan boqilganining 15 holi, ayiqlar -5 holi, maymunlar – 10 holi, leopard – 1 holi, qo'y – 1 holi ma'lum.

1920 yili Hindistonda doktor Sing bo'rilar uyasida bo'ri bolalari bilan birga ikkita qizchani (biri 2 yoshda, ikkinchisi 7-8 yoshlarda) topgan. Kichigi Amala, kattasini Kamala deb nomlashdi.

Boshida ular o'zini yovvoyi hayvonlardek tutdi. Tunda emaklab yurishardi va yugurishardi, kunduzi uxlashardi, qo'ldan foydalanmay chapillatib ovqatlanishardi. Kichik qizcha tezda o'lib qoldi, kattasi 10 yilga yaqin yashadi.

SHu yillar ichida doktor Sing Kamalani kuzatish kundaligini batafsid olib bordi. Qiyinchilik bilan o'qirdi. 2 yil uni tik turishga o'rgatishga to'g'ri keldi. 6 yildan so'ng yura

boshladi, lekin ilgariidek emaklab yugurardi. Birinchi 4 yillar ichida 6 ta soʻzni oʻzlashtirdi. 7 yildan soʻng soʻz boyligi 45 ta soʻzga, 3 yildan soʻng esa 100 gacha etdi. SHuni oʻzida til jarayoni toʻxtadi. Bu vaqtga kelib Kamala inson jamiyatini yaxshi koʻrdi, yorugʻlikdan qoʻrqmay qoldi, qoʻl bilan ovqatlanishga va stankandan ichishga oʻrgandi. 17 yoshga etgach Kamala rivojlanishi darajasiga qaraganda 4 yoshlik boladek edi.

Bu hol shuni koʻrsatadiki, odam oxir-oqibatda insonlar jamiyatiga tushib qolganida ham odam darajasiga etmagan. Nima oʻzi odamni odam qiladi?

Biologik individni ijtimoiy subʼektga aylanishi odam sotsializatsiya jarayonida, uning jamiyatga “kirishida”, turli xil ijtimoiy gurux va tuzilmalarga qadriyatlar, koʻrsatmalar, ijtimoiy oʻzini tutish meʼyor va namunalarini oʻzlashtirish orqali “kirishida” sodir boʻladi.

Sotsializatsiya – uzluksiz va koʻp qirrali jarayon. Bu jarayon ayniqsa, bolalik va oʻsmirlikda jadal kechadi. Agar bu jarayonni obrazli qilib uy qurilishi deb tasavvur qilsa, unda aynan bolalikda butun binoga poydevor qoʻyiladi va quriladi. Keyinchalik butun umr davomida faqatgina pardozlash ishlari olib boriladi.

Bola sotsializatsiyasi jarayoni, shaxs sifatida uning shakllanishi va rivojlanishi atrof-muhit bilan oʻzaro taʼsirda sodir boʻladi.


SHaxs sotsializatsiyasining makro (grekcha macros “katta”), mezo – (mesos “oʻrta”) va mikro (micros “kichik”) omillarini farqlaydilar.

Mikroomillar – inson yashaydigan mamlakat, jamiyat, davlat hamda dunyoviy planetar jarayonlar – ekologik, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vab.

Mezoomillar – etnik koʻrsatmalarni shakllantirish, shaxsning milliy hayot va etnikaro munosabatlarning u yoki bu hollarini qabul qilishi, insonlarning oʻz eposi (xalqi) tarixi va hozirgi hayoti haqida qarashlari va fikrlari; bola yashaydigan va rivojlanadigan mintaqaviy shart-sharoitlarning taʼsiri; yashaydigan joy turi (shahar, tuman markazi, qishloq); ommaviy kommunikatsiya vositalari va b.

Mikroomillar -yaqingina makonni va ijtimoiy muhitni tashkil qiladigan oila, taʼlim muassasalari, tengdoshlar guruhi va b. mana shu yaqingina muhitni, yaʼni bola oʻsadigan muhitni sotsium yoki mikrosotsium deb atashadi.

Bola sotsializatsiyasiga omillarning taʼsiri chizmasi



Sotsium (yaqin muhit) – bola sotsiolizatsiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu yaqin ijtimoiy muhitni bola asta-sekin oʻzlashtiradi. Boshida u (bola), asosan, oilada rivojlanadi, soʻng yangi muhitlarni oʻzlashtiradi – maktabgacha muassasalar, maktab, maktabdan tashqari muassasalar, oʻrtoqlar davrasi, diskotekalar va h.k. YOsh oʻtgan sari bola tomonidan oʻzlashtirilgan ijtimoiy muhit “hududi” tobora kengayib boradi.

Bola rivojlanishida muhitning taʼsiri

Ijtimoiy pedagogikada sotsium, ijtimoiy muhit yaqin ijtimoiy ijtimoiy muhit orqali bolaning umuman jamiyatga kirib borishi jarayoni nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Sotsiumda inson munosabatlari va hayoti ijtimoiy shart-sharoitlari o'zaro ta'sir xususiyatiga ega. Muhit – bu nafaqat ko'cha, uy va buyumlar. Muhit – bu yana o'ziga xos munosabat va qoidalar o'ziga xos munosabat va qoidalar tizimiga ega bo'lgan turli xil insonlar birligi. SHuning uchun, bir tomondan inson unga (muhitga) nimadir o'ziniki olib kiradi, ma'lum bir darajada unga ta'sir qiladi, uni o'zgartiradi, lekin shu bilan birga muhit ham insonga ta'sir ko'rsatadi, unga o'z talablarini qo'yadi.


Muhitning insonga bo'lgan munosabati shu bilan aniqlanadiki, uning o'zini tutishi qanchalik muhit ishonchiga to'g'ri keladi. Insonning o'zini tutishi ko'p holda jamiyatda u qanday o'rinni egallashi bilan aniqlanadi.

Inson jamiyatda bir vaqtda bir qancha o'rinlarni egallashi mumkin. Masalan, ayol kishi o'qituvchi, rafiqa, ona, qiz bo'lishi mumkin. Har bir tutgan o'rin insonga muayyan bir talablarni qo'yadi va shu bilan birga unga qandaydir huquqlarni beradi. Jamiyatda insonning o'zini tutishi muayyan bir huquq va majburiyatlar bilan tavsiflanadi, sotsiologiyada bu ijtimoiy maqom deb ataladi.

Ba'zi bir maqomlar bizga tug'ilishimizdan beriladi. Inson maqomi jinsi, millati, tug'ilgan joyi, ism-sharifi va boshqa omillardan kelib chiqadi. Bunday maqomlar tug'ma yoki berilgan deb ataladi. Boshqalari esa insonning o'zi mustaqil ravishda jamiyatda shaxsiy harakatlariga ko'ra erishgani bilan aniqlanadi. Masalan, pedagog, vrach, muhandis maqomini inson kerakli kasbiy ta'lim yurtida o'qigani va diplom olgani uchun oladi. Bu holda erishilgan yoki olingan maqom haqida gap yuritiladi.

Maqom insonning jamiyatda o'zini tutishini aniqlaydi. Ma'lum bir vaziyatlarda shaxs o'zini istaganicha emas, balki o'z maqomiga ko'ra tutadi. Atrofidagi insonlar undan bu vaziyatlarda muayyan intizomni kutadi, ya'ni inson muayyan bir rolni o'ynashga majbur. SHuning uchun, inson maqomidan kelib chiqqan kutilayotgan intizom ijtimoiy rol deb ataladi.

Jamiyatda nafaqat u (jamiyat) bilan kutilayotgan maqomlar, balki ijtimoiy me'yor va qadriyatlarga to'g'ri kelmaydigan maqomlar ham mavjud. SHuning uchun rivojlanish jarayonida bola pozitiv ijtimoiy rolni va shu bilan birga negativ rolni ham o'zlashtirishi mumkin.



Pozitiv rolli: oila a'zosi (ota va ona, buva va buvi, o'g'il yoki qiz, aka va singil, nevara va b.), jamoa a'zosi (o'quvchi, o'rtoq, do'st, etakchi va b.), iste'molchi (insonga ovqat, kiyim, oyoq kiyim va b.), fuqaro (Vatanni sevadi, u bilan faxrlanadi, vatanparvar bo'lish), mutaxassis (o'qituvchi, vrach, iqtisodchi, muhandis va b.).

Bola bilan ma'lum rolda o'zini tutish mexanizmi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli kirishib ketishni ta'minlaydi, har bir u uchun yangi bo'lgan vaziyatga moslashib ketish imkoniyatini beradi.

Bu individni ijtimoiy muhit shart-sharoitiga moslashib ketishi jarayoni ijtimoiy moslashuv deb ataladi.

Sotsializatsiya jarayonida, xususan bolaning ijtimoiy moslashuvida insonning “hammadek” bo‘lishi ob’ektiv ehtiyoji namoyon bo‘ladi. Biroq shu bilan parallel ravishda bolada - boshqa ehtiyoj - o‘zini o‘z individualligini ko‘rsatish ehtiyoji shakllanadi. Bola uni ifodalash usul va vositalarini qidira, namoyon qila boshlaydi, natijada uning individuallashtirilishi sodir bo‘ladi. Bola individuallashtirilishi shunda ifodalanadiki, u yoki bu ijtimoiy ahamiyatga ega shaxs xislat va xususiyatlari aynan shu insonga mansub shaklda namoyon etadi. Ijtimoiy o‘zini tutish esa boshqa insonlar intizomiga tashqi tomondan o‘xshashiga qaramay notakror, individuallik qirralarni egallaydi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi shunday qilib ikki yo‘nalish bo‘yicha sodir bo‘ladi: sotsializatsiya (ijtimoiy madaniy tajribani egallash) va individuallashtirish (mustaqil bo‘lish).

Agar bolani sotsiumga kiritishda sotsializatsiya va integratsiya jarayonlari orasida muvozanat belgilansa, ya’ni bola, bir tomondan, mazkur jamiyatda o‘zlashtirilgan me’yor va qoidalarni o‘zlashtirsa, boshqa tomondan unga o‘z ahamiyatli “umumiy”ni individualligini qo‘shsa, sotsiumda bolaning integratsiyasi sodir bo‘ladi.

Agar bolaning guruhga moslashish jarayoni sodir bo‘lmasa, unda o‘ziga ishonmaslik, tortinchoqlik, tashabbussizlik sodir bo‘lishi mumkin, bu shaxsni jiddiy deformatsiyaga olib kelishi mumkin.

Agar bola moslashuv fazasidan o‘ta olsa va atrofdagilarga o‘z individual farqlarini ko‘rsatishni boshlasa, atrofdagilar esa uning individualizmini jamiyat me’yorlariga to‘g‘ri kelmaydi deb hisoblasa, unda bolada negativlik, gumonsirashlik, agressivlik, o‘ziga yuqori baho berish rivojlanadi.

Bola rivojlanishiga tarbiya ham ta’sir ko‘rsatadi. Hozir pedagogikada “sotsializatsiya” va “tarbiya” tushunchalari keng muhokama qilinmoqda. Tarbiya shaxs sotsializatsiyasi asosiy omillaridan biri.

Agar bola ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirmasa (muhit negativ ta’siri natijasida), unda tarbiyachilar va mutaxassislar harakatlari ijtimoiy moslashuvga (ijtimoiy muhit shart-sharoitlariga moslashish) yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Agar ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlarning shakllanmaganligi shunchalik yuqori bo‘lsa, bolani ijtimoiy muhit shart-sharoitlariga moslashishiga halaqit bersa, ya’ni uning ijtimoiy qarshi moslashuvi sodir bo‘lsa, bu holda bola bilan yo‘qotilgan ijtimoiy aloqa va munosabatlarni tiklashga yo‘naltirilgan maxsus choralar tizimini tadbqiq etishni ko‘zda tutadigan ijtimoiy tiklanish zarur.

SHunday qilib, rivojlanish jarayonida bola sotsiumda ijtimoiy moslashuvni o‘z ichiga oladigan uning sotsializatsiyasi amalga oshirilishi kerak. Agar bu sodir bo‘lmasa, boshqa hol - qarshi moslashuv holi kuzatiladi, unda bolani ijtimoiy qayta tiklash zaruriyati yuzaga keladi.

Pedagogika va ijtimoiy pedagogika mezonlari

Fanning bilimlar tizimi uning tushunchalari va mezonlarida aks etadi. Tushunchalar – mavjud dunyoni idrok etish jarayonidagi aks etishi shakllaridan biri. Har qanday fan rivojlanishi jarayonida tushunchalar fan mezoniga birlashadi, kengayadi va qayta hosil qilinadi. Mezonlar yanada umumiy, fundamental “asliy” deb atalmish tushunchalarni bildiradi. Bu tushunchalardan mazkur fanda ishlatiladigan qolgan tushunchalar hosil bo‘ladi.

Oxirgi yillarda pedagogikada farqlanish jarayoni kuchaydi. Ko‘pgina yangi ilmiy sohalar yuzaga keldi, bular soniga ijtimoiy pedagogika ham kiradi. Pedagogikaning har bir yangi ilmiy sohasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar uning mezon va tushunchalari tizimida o‘z aksini topadi.

Ijtimoiy pedagogika mezonlarini ko‘rib chiqishda avval biz pedagogika mezonlarini ajratamiz. U (pedagogika) boshqa fanlardan nimani o‘zlashtirganini, qaysi mezonlar asl o‘ziniki ekanligini ko‘rib chiqamiz. So‘ng u boshqa fanlardan nimani o‘zlashtirganini va qaysi tushunchalar o‘zinikiligin bilish uchun pedagogika mezonlarini ijtimoiy pedagogikaga loyihalashtiramiz. Ma’lumki, pedagogika boshqa fanlar tushunchalarini o‘zlashtiradi va ulardan keng foydalanadi, masalan, “shaxs”, “rivojlanish”, “faoliyat”, “sotsializatsiya (ijtimoiylashuv)”,

“jamiyat”. Uning asl mezonlari “tarbiya”, “ta’lim” va “o’qitish” hisoblanadi. Hozirgi kunda shuningdek, umumqabul qilingan “pedagogik faoliyat” mezonini ham kiradi.

Ijtimoiy pedagogika mezonlariga “ijtimoiy pedagogik faoliyat”, “ijtimoiy ta’lim” va “ijtimoiy tarbiya” kiradi.

Pedagogika va ijtimoiy pedagogika mezonlarining qiyosiy jadvali

Pedagogika		Ijtimoiy pedagogika	
o’zlashtirilgan	asl	o’zlashtirilgan	Asl
	Ta’lim o’qitish tarbiya	Ta’lim o’qitish tarbiya	ijtimoiy o’qitish ijtimoiy tarbiya
Bolalar (bola) shaxs rivojlanish, faoliyat	Pedagogik faoliyat	Bola (bolalar) shaxs rivojlanish, faoliyat	Ijtimoiy pedagogik faoliyat
ijtimoiylashuv		Jamiyat sotsium ijtimoiy institut ijtimoiylashuv, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy tiklanish	

Ijtimoiy pedagogik faoliyat

Pedagogik faoliyat – ta’lim va tarbiya orqali ijtimoiy madaniy tajribani berishga yo’naltirilgan kasbiy faoliyat turidir. Bu faoliyat ta’lim standartlari, o’quv rejalari, dasturlari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat bolaga ijtimoiylashuvi jarayonida (bolaning jamiyatga “kirishi”) yordam ko’rsatishga qaratilgan kasbiy faoliyat turidir. Bola bilan bo’lishi mumkin turli xil ta’lim muassasalari, tashkilotlari, birlashmalari ijtimoiy pedagoglar bilan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat har doim manzilli, ya’ni aniq bir bolaga va ijtimoiylashuv, jamiyatga integratsiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarini hal etishga yo’naltirilgan bo’ladi.

Pedagogik va ijtimoiy pedagogik faoliyatning qiyosiy jadvali

Kasbiy faoliyat turi	Faoliyat maqsadi	Faoliyat xususiyati	Faoliyat ob’ekti	Faoliyat amalga oshiriladigan faoliyat
Pedagogik faoliyat	Ijtimoiy madaniy tajribani olish	Dasturli me’yorlangan, uzluksiz	Barcha bolalar	Ta’lim muassasalari
Ijtimoiy pedagogik faoliyat	Bola ijtimoiylashuviga yordam	Manzilli, chegaralangan, vaqtda cheklangan	Ijtimoiylashuv va muammolariga ega bola	Ta’lim muassasalari, ijtimoiy pedagogik muassasalar, ijtimoiy xizmat

Ijtimoiy ta’lim (o’qitish)

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom va o’rinlar, ijtimoiy o’zini tutish me’yor va qoidalari haqida ko’pgina bilimlarni o’zlashtiradi. U shuningdek, integratsiyasi va jamiyatga kirishga yordam beradigan turli xil malaka va ko’nikmalarni egallaydi.

Agar normal oilada normal bola (jismonan va psixik sog'lom) tug'lsa, unda uning jismoniy, psixik va ijtimoiy shakllanishi ma'lum qonunlarga ko'ra sodir bo'ladi. Bola avval jismoniy makonni o'zlashtiradi, unda yo'lini topishga o'rganadi: emaklash, o'tirish, yurish, yugurish va h.k. So'ng u ko'chani o'zlashtiradi. Bola yaqin kishilarni ajratadi (otani, onani, aka-ukalarini), o'z ismiga egaligiga o'rganadi, unga javob berishni boshlaydi, bolada ijtimoiy xush ko'rishlar, his-tuyg'ular, ijtimoiy tajriba shakllanadi. Bola ijtimoiy rivojlanishida nutq katta ahamiyatga ega. Xalq ruhi xazinasidagi bor narsa til yordamida bola diliga o'tadi. Tilda xalq tarixi, xarakteri, urf-odatlari, an'analari saqlanib qoladi. Tilni o'zlashtirib, bola xalq madaniyati, ijtimoiy tajriba va ijtimoiy ana'analarni ham o'zlashtiradi.

Eng muhim bo'lgan bola ijtimoiy rivojlanishi o'yinlarda sodir bo'ladi. O'yinlar yordamida bolalar turli xil ijtimoiy rollar bilan tanishadi, "ota-onalar"ni o'ynaydi.

Agar bola jismoniy va psixik kamchiliklar bilan tug'lsa, unda ijtimoiy tajribani o'zlashtirish ancha murakkabdir. Agar bunday bola oddiy oilada tug'lsa, unda bolaning ijtimoiy tiklanishi ko'p holda bunga tayyor bo'lmagan ota-onalar zimmasiga tushadi. Bola o'zi uchun zarur bo'lgan muhitdan tashqarida, masalan, chaqaloq uyida, so'ngra bolalar uyida tarbiyalansa boshqa gap. Bu holda ba'zi bir ijtimoiy rollarni tabiiy yo'l bilan o'zlashtirish bo'lmaydi; ota, ona, aka-uka, boshqa qarindoshlar. Bunday hollarda bolalarda muayyan bir bilim va malakalarni shakllantirishga imkon beradigan, ular bilan ijtimoiy tajribani o'zlashtirilishiga va jamiyatda ularning integratsiyasiga yordam beradigan maxsus metodika va texnologiyalar mavjud bo'lishi kerak.

Maktabda o'qitish jarayonida bola avvalambor akademik bilimlarni oladi. Biroq shu bilan birga uni ijtimoiy me'yorlarni, ko'rsatmalarni, qadriyatlarini, rollarni yanada muvaffaqiyatli o'zlashtirilishini ta'minlaydigan ma'lum bir ijtimoiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashi lozim.

Bola ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni berish va ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish maqsadga qaratilgan jarayoni ijtimoiy o'qitish deb ataladi.

Ijtimoiy tarbiya

Pedagogikaning asosiy mezoni – tarbiya. Tarbiya – ijtimoiy hayotning abadiy va umumiy mezoni. Pedagogika bolalar tarbiyasini shaxs ahloqiy xislatlarini shakllantirishning maqsadga qaratilgan jarayoni sifatida ko'rib chiqadi.

Biroq bu tarbiya jarayoni har doim ham etarli darajada samarali bo'lmaydi. Yuqorida ijtimoiy ta'lim vazifasini ko'rib chiqib, ko'rsatdiki, bolada muayyan bir ijtimoiy bilim, malaka va ko'nikmalar shakllanishi kerak. Ularning shakllanishi jarayoni, masalan, otaga, onaga g'amxo'r, e'tiborli, mehribon, rahmdil munosabatlarning shakllanishi bilan bog'liq. Agar qandaydir sababga ko'ra bolada ijtimoiy bilimlar shakllanmagan bo'lsa, demak, munosabatlar shakllanmagan, ya'ni unga zarur bo'lgan ijtimoiylashuvda qandaydir shaxs xislatlari ham shakllanmagan. Shuning uchun ijtimoiy pedagogik faoliyat jarayonida boladagi shunday ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xislatlar shakllangan bo'lishi kerak – shuni o'zi ijtimoiy tarbiyaning vazifasidir.

Ya'ni, ijtimoiy tarbiya deganda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ahamiyatli bola shaxsi xislatlarining shakllanishi maqsadga qaratilgan jarayoni tushuniladi.

Ijtimoiy pedagogika prinsiplari

"Prinsip" so'zi lotincha principium so'zidan hosil bo'lgan va "asos", "boshlanish"ni bildiradi. Har qanday fan uchun ishlatilishi, muayyan qoidalardan kelib chiqadigan o'z prinsiplari mavjud. Fanda prinsip va qoidalar, bizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud. Ulardan chetga chiqish mumkin emas, aks holda pedagogik faoliyat nafaqat befoyda, balki ham zararli bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogika pedagogikadan ajralib chiqdi va tabiiyki, o'z asosida shu fan prinsiplariga tayanadi. Pedagogikadagi prinsiplar shaxs ta'lim-tarbiyasining umumiy yo'nalishini beradi va aniq pedagogik vazifalarni hal etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Biroq shu fan rivojlanishining har bir davri uchun pedagogika prinsiplari haqidagi masala munozaralidir. Zamonaviy davr ham bundan mustasno emas. Har xil olimlar u yoki bu

prinsiplarni olg'a suradi yoki yangidan ma'lumlarni izohlaydi. Bu borada ijtimoiy pedagogikada yanada ko'p qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda, ammo uning dunyoviy balog'at yoshiga (100 yildan ortiq) qaramay O'zbekistonda bu fan endi o'zining birinchi qadamlarini qo'yimoqda.

Biz uchta prinsipni ko'rib chiqamiz – tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi prinsip, tarbiyaning madaniy uyg'un bo'lishi prinsipi va gumanizm prinsipi. SHu prinsiplardan har biri ijtimoiy pedagogikada o'zining talqiniga va o'ziga xos xususiyatiga ega.

Tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi prinsipi

Tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi – ijtimoiy pedagogika prinsipi, shunga ko'ra ijtimoiy pedagog o'z amaliy faoliyatida bolaning tabiiy holda rivojlanishi omillariga tayanadi.

Tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi prinsipi ilk bor buyuk slavyan pedagogi YAn Amos Komenskiy (1592-1670) bilan uning “Buyuk didaktika” (1632) degan eng asosiy ishida ta'riflangan Komenskiy, inson tabiatning bir qismi sifatida uning eng asosiy, umumiy qonunlariga bo'ysunadi, deb hisobladi. Komenskiyning fikricha, tabiatning bu qonunlari o'simliklar va hayvonlar olamida ham, shuningdek, insonga nisbatan ham o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Ya.A.Komenskiy nafaqat tabiatning umumiy qonunlariga, balki bola shaxsi psixologiyasiga ham tayanardi. U bolalar, o'spirinlar va yosh yigitlarning yoshiga oid tavsifiga tayanga holda o'z bolalar ta'lim-tarbiyasi tizimini ilgari suradi, asoslaydi va quradi.

Komenskiydan ancha ilgari Sharq Uyg'onish davri buyuk qomusiy olimi va mutafakkiri Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'z ishlarida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi haqida gapirgan edi.

Masalan, “Uy-ro'zg'or tutish” haqidagi asarida Ibn Sino yozgan ediki, inson aqlli mavjudot, shuning uchun tabiatda alohida o'rin tutadi va uning qonunlariga ko'ra rivojlanadi. “YOmon xislatlarni qayta tarbiyalash” asarida esa Ibn Sino yozadiki, kimki ahloqsiz insonni tarbiyalamoqchi (qayta tarbiyalamoqchi) bo'lsa, unda u uni har tomonlama o'rganishi (insonni), inson tabiati qoidalarini bilishi kerak.

Natijada tarbiyaning tabiat bilan uyg'un bo'lishi prinsipi ko'pgina buyuk pedagoglar tomonidan o'z pedagogik va ijtimoiy pedagogik nazariyalari qurish asosi sifatida olingan edi. Masalan, fransuz faylasufi Jan Jak Russo (1712-1778) hisoblagan ediki, bola tarbiyasi tabiat bilan uyg'un ravishda amalga oshirilishi kerak. U yozardiki, “Bolalar katta bo'lishidan ilgari bola bo'lishi kerak”.

Shveysar pedagogi Iogann Genrix Pestalotssi (1746-1827) Yetim va qarovsiz bolalar uchun muassasalar va bolalar uyini yaratgan, u hisoblardiki, tabiat maqsadi – inson tabiiy kuchlari va qobiliyatlarini rivojlantirishdir, bunda rivojlanish har tomonlama va uyg'un bo'lishi lozim.

Nemis olim-pedagogi Adolf Disterveg (1790-1866) ham I.G.Bestalotssi ketidan bu prinsipni eng muhim tarbiya prinsipi deb hisoblagan. Uz ishlarida yozgan ediki, ta'lim va tarbiya jarayonida yo shva individual xususiyatlarni e'tiborga olish lozim.

Tarbiyaning tabiat bilan uyg'un bo'lishi rus klassik pedagoglari ishlarida ham o'z aksini topgan. K.D.Ushinskiy (1824-1871) o'zining asosiy “Inson tarbiyaning mazusi sifatida” degan psixologik-pedagogik asarida yozgan ediki, bola tarbiyasi va ta'limi uchun tarbiya prinsiplari va qoidalarini bilish, balki inson tabiati asosiy qonunlarini bilish, ularni har bir aniq holda tatbiq qila olish lozim. K.D.Ushinskiy fiziologiya, gigiena va psixologiya (diqqat, xotira, tasavvur, hislar, iroda) asoslarini oldindan o'rganish zaruriyatini asoslab berdi, buning asosida so'zlash qobiliyatini, ahloqiy, estetik va diniy hislarni, didaktikani o'rganishga o'tish mumkin.

Sharq Uyg'onish davri mutafakkir qomusiy olimi Abu Nasr al-Farobi (873-950) pedagogikaning mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga qadar o'z asarlarida ediki, inson tabiatning eng ta'kidlagan oliy yutug'idir va o'z aqliga ko'ra atrof-muhitni har tomonlama idrok qilish mumkin.

Abdulla Avloniy (1878-1934) “Turkiy guliston yohud ahloq” degan asarida turli shaxs ahloqiy xislatlarini tarbiyalashga katta e'tibor beradi. Uning asarini o'zbek tilida yozilgan pedagogika bo'yicha birinchi darslik deb hisoblash mumkin.

1) Pedagogika mustaqil fan sifatida Ya.A.Komenskiyning “Buyuk didaktika” (XVII asr) degan asaridan so‘ng ajralib chiqdi, unda didaktika prinsiplari va pedagogik jarayon qonuniyatlari aniq ta’riflangan.

Forobiy pedagogikani mustaqil fanga ajratmagan, uni siyosiy (fuqaro) fan tarkibiga kiritgan.

Uning fikricha, bolalarda ijobiy ahloq xislarini tarbiyalashda atrof-muhit katta tabiiy kamolotiga ishonardi, bola tabiatidan go‘zallik va mehr-oqibat bilan uyg‘un ravishda tug‘iladi.

Ijtimoiy pedagogikada tarbiyaning tabiat bilan uyg‘un bo‘lish prinsipiga amal qilib, quyidagi qoidalarga tayanish lozim:

- Bolalar yoshi xususiyatlarini e’tiborga olish;
- Bolalar jinsiy xususiyatlarini e’tiborga olish;
- me’yordan chetga chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan bolalarning individual xususiyatlarini e’tiborga olish;
- bola shaxsidagi ijobiy, kuchli tomonlarga tayanish;
- bola tashabbuskorligini va mustaqilligini rivojlantirish.

Madaniyat bilan uyg‘un bo‘lish prinsipi

Bu prinsip tarbiyaning tabiat bilan uyg‘un bo‘lishi prinsipining davomidir. Uning zaruriyati inson tabiati bilan shartlangan. Inson biologik mavjudot sifatida tug‘iladi, shaxs bo‘lib esa bir avloddan ikkinchi avlodga shaxs tarbiyasi va rivojlanishi jarayonida o‘tadigan o‘zini tutish ijtimoiy tajribani o‘zlashtirib, etishadi.

Antik jamiyatdagi faysuflar va pedagoglar shaxs shakllanishi va madaniyat o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikni tahlil qilganlar. SHu narsaga SHarq Uyg‘onish davri mutafakkirlari va qomusiy olimlari bo‘lgan Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, XII asr insonparvari Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida tayanganlar. Bunda ikkita muhim tezis belgilandi: shaxs madaniyat orqali shakllanadi, har qanday madaniyat asosiy boyligi esa insondir. O‘tmish faylasufi va pedagoglari hisoblardiki, madaniyat yuqori ahloqiy insonni shakllantirishning zaruriy va eng muhim omilidir.

Madaniy uyg‘un bo‘lish prinsipi pedagogikada A.Disterveg (XIX asr) bilan ilgari surilgan. U hisoblardiki, tarbiya qilishda joy va vaqt shart-sharoitlarini, ya’ni inson tug‘ilgan vaqti va joyini, bir so‘z bilan aytganda butun zamonaviy madaniyatni e’tiborga olish zarur. Butun insoniyat, har bir xalq va har bir avlod madaniyat rivojlanishining ma’lum bir pog‘onasida turadi – bu ajdodlar bilan ular tarixi natijasi sifatida qoldirilgan meros. Madaniy uyg‘un bo‘lish prinsipi muayyan tashqi, ichki va ijtimoiy madaniyat asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishni bildiradi. Distervegga ko‘ra tashqi madaniyat – bu ahloq turmush, iste’mol qilish me’yorlari ichki madaniyat – insonning ma’naviy hayoti. Ijtimoiy madaniyat ijtimoiy munosabatlar va milliy madaniyat.

Rossiya pedagogikasida madaniy uyg‘un bo‘lish g‘oyasi K.D.Ushinskiy asarlarida berilgan edi. U shu haqida yozardiki, agar biz ziyoli inson va fuqaroni tarbiyalamoqchi bo‘lsak, yozish, o‘qish, sanash, malakasidan, o‘z dini, o‘z vatani, uning tabiati, geografiya, tarix, madaniyatni bilishidan boshlash kerak. K.D.Ushinskiy asarlarida bu g‘oya xalqchilik g‘oyasi sifatida aks ettiriladi. Xalqchilik deganda K.D.Ushinskiy har bir xalqning o‘ziga xosligini uning tarixiy rivojlanishi, geografik va tabiiy shart-sharoitlari bilan shartlanishi orqali tushungan.

Madaniy uyg‘un bo‘lish g‘oyasi pedagogikamizda Abdulla Avloniy bilan berilgan. Bu g‘oya uning “Turkiy guliston yohud ahloq” degan asarlarida Vatanga muhabbat sifatida aks ettiriladi.

“Inson tug‘ilgan va o‘sgan shaharni, yozadi A.Avloniy - hamda shu shahar joylashgan mamlakatni shu inson Vatani deb ataydilar... biz, Turkistonliklar, hayotimizdan ham afzal o‘z

quyoshli o'lkamizni sevganimizdek, arablar ham o'z Arabistonini, uning issiq qumli cho'llarini, eskimoslar o'z SHimolini, abadiy muz va qorlar bilan qoplangan eng sovuq erlarini sevadi"¹.

Madaniy uyg'un bo'lish prinsipi umuminsoniy madaniyat qadriyatlari salohiyatini umuminsoniy va milliy madaniyati qadriyatlari va me'yorlarini tarbiyalashda hisobga olishni ko'zda tutadi.

Umuminsoniy qadriyatlarga eng katta bo'lgan qadriyat inson, inson yashaydigan tabiiy muhit – oila, hayot faoliyati asosi mehnat, yashash sharti - erdagi tinchlik, inson faoliyati asosi - bilim, insoniyatning tarixiy tiklangan ijtimoiy tajribasi – dunyoviy madaniyat kiradi.

Milliy qadriyatlar: Vatan tarixi, ona tili va adabiyoti, xalq san'ati, milliy madaniyat, urf-odatlar, marosimlar, an'analar yana A.Navoiy ta'kidlagan ediki ona tilida (o'zbek tili) yozish xalq ishidir.

Turli jamiyat madaniyatlariga bolani jalb etish: turmush, jismoniy, jinsiy, aqliy, siyosiy, ma'naviy – juda murakkab masala, bu masala oila va jamiyat, turli muassasa va birlashmalarning (maktab, bolalar bog'chasi, maktabdan tashqari tashkilotlar, yoshlar tashkiloti va b.) birgalikdagi harakatlari orqali hal qilinadi. Sababi bola hayotining turli davrlarida bu erlarda bo'ladi. Agar bola normal rivojlansa, unda u jamiyat madaniyatini o'zlashtiradi va tabiiy yo'l bilan jamiyatga kiradi.

Agar bola jismoniy, psixologik yoki ijtimoiy kamchiliklarga ega bo'lsa, unda uning xalq madaniy qadriyatlariga jalb qilinishi ancha murakkablashadi. SHuning uchun shunday bolalar uchun madaniyat qadriyatlariga bolalarni jalb etish metodikasi va texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Madaniy uyg'un bo'lish prinsipini tatbiq etish bir qator qoidalarining bajarilishini talab etadi:

- bolalarda har xil madaniyat turlarining shakllanishida me'yordan chetga chiqishini e'tiborga olish;
- rivojlanishda nuqsonli bolalar ijodini rivojlantirish.

Gumanizm prinsipi

“Gumanizm” va “insoniylik” so'zlari lotincha “humanus” so'zidan kelib chiqib, “insoniy” degan ma'noni bildiradi. Gumanizm – inson qadriyatini shaxs deb, erkinlikka, baxtga bo'lgan huquqini, qobiliyatlari rivojlanishi va namoyon bo'lishini tan oladigan qarashlar tizimi. Biz inson manfaatini ijtimoiy hodisalarni baholash mezoni, tenglik, haqoniylik, insonparvarlikni jamiyatdagi munosabatlarning istalgan me'yori deb hisoblaydigan tizimdir.

Gumanistik tarbiya g'oyalari antik faylasuflar (Sokrat, Platon, Aristotel va b) fikrlarida ham kuzatiladi.

Pedagogika va ijtimoiy pedagogikada gumanizm g'oyalari rivojlanishi SHarq Uyg'onish davri va o'arb Uyg'onish davrida o'z cho'qqisiga etdi. Gumanistik tarbiya ideali bo'lib erkin har taraflama rivojlangan shaxs hisoblanadi. Farobiy (873-950), Beruniy (973-1050), Ibn Sino (980-1037), Alisher Navoiy (1441-1501), Tomas Mor (1478-1535), Fransua Rable (1483-1536), Mishel Monten (1533-1592), Jaloliddin Devoni (1428-1502) va b. asarlarida tarbiya mazmuni ochib berilgan hamda gumanistik tarbiya mohiyati va vositalarini tahlil qilishga urinishlar bo'lgan edi. Matafakkir va pedagog-gumanistlar uchun insonga, tabiati va tarbiyasiga qarashi umumiy hisoblanardi. Gumanizm insonga nisbatan izzat-hurmatli munosabatni, uni erdagi eng oliy qadriyat deb tan olinishini ko'zda tutadi. Gumanizm asosan bolalarga bo'lgan muhabbat va bolalarda muhabbatni tarbiyalashda namoyon bo'ladi.

Buyuk SHarq allomalari va pedagogika va ijtimoiy pedagogika namoyondalarining barcha asarlari bolalarga bo'lgan muhabbat bilan singdirilgan.

Ijtimoiy pedagogikadagi gumanistik g'oyalar rivojlanishda nuqsonlarga ega bo'lgan bolalarga alohida e'tiborni talab qiladi. Gumanizm tushunchalari bilan bir qatorda ijtimoiy

¹ А.Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. ВКН. “Анатомия педагогической мысли Узбекистана”, М.1986. с. 187.

pedagogikada rahmdillik va xayr-sahovat tushunchalari mavjud. Rahmdillik – achinish, insonparvarlik jihatdan kimgadir yordam ko'rsatish yoki kimnidir kechirishga tayyorlikdir.

Hayr-sahovat - muhtoj insonga beg'araz yordam ko'rsatishga qaratilgan faoliyat.

Respublikamizda an'ana borki, har bir yil qandaydir muammoga bag'ishlanadi. 2004 yil O'zbekistonda mehr va muruvvat yili deb e'lon qilingan.

Gumanizm prinsipi ijtimoiy pedagogikada bolaning shaxs deb, uning erkinlikka, baxtga, hayoti, sog'lig'ini himoya qilishga va qo'riqlashga bo'lgan huquqlarini tan olishni, bola, ijodiy imkoniyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishni, hayotda o'z o'rnini topishda, jamiyatga "kirishi"da, shu jamiyatda o'zini to'la ko'rsata olishida yordam ko'rsatishni ko'zda tutadi.

Gumanizm prinsipi quyidagi qoidalarga rioya qilishni talab qiladi:

- bolalarning jamiyatda qanday jismoniy, moddiy, ijtimoiy holda bo'lishiga qaramay ularga hurmatli munosabatda bo'lish;
- har bir bolaning o'zicha bo'lishi, ularga hurmatli munosabatda bo'lish huquqini tan olish; hurmat qilish demak boshqaning men istagandek bo'lish emas, balki o'zicha bo'lish huquqini tan olish;
- bolaga o'ziga va atrofdagilarga hurmatni shakllantirishda, "Men o'zim" tutgan o'rnini, o'z muammolarini o'zi hal etish istagini shakllantirishda vujudga keladigan muammolarda yordam ko'rsatish;
- shavqat qilish va achinishga emas, balki bolalarga jamiyatda rivojlanishiga yordam berish istagiga tayangan gumanizmning birinchi pogonasi bo'lgan rahmdillikni tushunish;
- muammoli bolalarni ayrim guruhlariga ajratishga va ularni normal bolalardan chetga olishga intilmaslik, agar biz nogiron bolalarni sog'lom kishilar orasida yashashga tayyorlashni istasak, shunday bolalarni kattalar va bolalar bilan muloqotda bo'lishi tizimi o'ylab chiqilishi lozim.

2-mavzu: Ijtimoiy pedagogik g'oyalarning Markaziy Osiyo, Rossiya va G'arbdagi tarixi.

Reja:

1. Markaziy Osiyoda ijtimoiy pedagogika rivojining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Chet el ijtimoiy pedagogika rivojlanish tarixidan.

Asosiy tushunchalar: Ijtimoiy ish, mehribonlik, hayriya.

1. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

Har bir fan aniq bir haqiqatdan "o'sib chiqadi", uning aksini ifodalaydi. Ilmiy bilimlar amaliy faoliyatdan uzilgan holda rivojlana olmaydi. Aynan amaliyot istalgan fanning manbai hisoblanadi. Boshqa tomondan, barcha amaliy faoliyat ham agar ilm-fan yutuqlariga asoslangan bo'lsa yanada samarali bo'ladi. Ijtimoiy pedagogikani fan sifatida ham, amaliy faoliyat muhiti sifatida ham farqlaydilar, aslida ular bir-biri bilan o'zaro bog'liq.

Amaliy faoliyat – bu ijtimoiy pedagogning aniq bir bola yoki bolalar guruhi bilan olib boradigan ishidir.

Ijtimoiy pedagogika o'quv fani sifatida ham oldinga chiqishi mumkin. O'quv fani – bu umumta'lim yoki maxsus ta'lim muassasalarida o'rganiladigan predmetdir.

O'zbekistonda fan, ilmiy bilimlar sohasida maxsus amaliy faoliyat hamda o'quv fani sifatida ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishi - o'ziga xos xususiyatga ega.

Qadim antik davrlardayoq bolani himoya qilish maqsadida o'z ijtimoiy pedagogik tarbiyaga oid muammolarini oldinga surganlar.

Eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda jahon dinlari orasida eng qadimgi din, Markaziy Osiyo hududida zardushtiylik dini hukmronlik qildi. Bu din insoniyatga katta ta'sir etdi, ya'ni insonni birinchi o'ringa olib chiqdi. Zardushtiylik muqaddas kitobi "Avesto" (olovga sig'inish) o'z erasining o'ziga xos qomusiy asari deb hisoblash mumkin. Zardushtiy dinda ahloqiy me'yorlar asosi (ahloqiy mezonlar) uchlikka tayangan edi. "Avesto" da "Inson yaxshi fikrlarga ega bo'lishi, faqat yaxshi so'zlar so'zlashi va savobli ishlar qilishi lozim" deb yozilgan (xulq-atvor)².

"Avesto" ning katta qismi bo'lgan "yasna" larda inson kamolini ko'rsatuvchi ahloq-odob mezonlari ana shu uchlikda humata (gumata) – yaxshi fikr, hukta (gukta)-yaxshi so'z va hvarsta (gvarshta) – yaxshi ishlarda ifodalanadi "Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman" ("YAsna", 14), deyiladi.³


"Avesto" tadqiqotchisi A.O.Makovelskiy inson fikri, so'zlari va ishlariga ikki qarama-qarshi kuch: Voxu Manna ("Ezgu fikr") va Apo Mana ("YOvuz fikr") ta'sir ko'rsatadi deydi. Barcha fikrlar, so'zlar va ishlar ichida aslida ezgulik va yovuzlik yotadi. "Yaxshi fikr" deganda ilohiy qonun ruhida yaqin kishisiga mehribon bo'lish, muhtojlarga ko'maklashishga, yovuzlikka qarshi kurashishga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati uchun harakat qilish, ahillik va do'stlik, totuvlikda yashashga intilish ruhida niyatlar va fikrlar musaffoligi tushunilgan. Inson o'z fikr-hayolida boshqalarga hasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi va boshqa jaholatlariga berilmaydi. Chunki bunday holatda inson yaxshi niyatini yo'qotadi, burch va adolat haqida unutadi va nojo'ya harakatlar qiladi.⁴

Zardushtiylik dinida uchlik asosga tayangan ahloqiy me'yorlar (jadval).

² Маковельский.А.О. Авесто. Бенгу, 1960, 18-бет.

³ Маковельский.А.О. Авесто. Бенгу, 1960, 18-бет.

⁴ Нишонов.С. "Шарқ уйғониш даври педагогик фикр тараккиётида баркамол инсон тарбияси". Докк. дисс. Автореферати. Тошкент, 1998.



Qadimgi davrlardan oq shunday insoniy xislatlar qadrlangan. Inson bilimlarga ega bo'lishi (ya'ni, kasb-hunarga ega bo'lishi) adolatli bo'lishi (ya'ni, insoniy bo'lishi), shunday ahloqiy xislatlarga ega bo'lishi lozim ediki, ya'ni mehribon, kamtarin, jasur, chiroyli nutqqa ega, vatanparvar kuchli iroda va boshqalar sohibi bo'lishi zarur edi ⁵.

Pedagogika tarixining ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ko'p ming asrlar mobaynida pedagogika falsafaning ichida rivojlandi. Qadim zamonlardan buyon olamda insonning o'rni va roli, shaxsning ahloqiy shakllanishida madaniyat va dinning ahamiyati, barkamol shaxs rivojlanishi masalalari va shu kabilar.

Sharq uyg'onish davri (IX-XI asrlar) qomusiy olimlari Abu Nasr al Farobiy (873-950), Abu Rayxon Beruniy (973-1050), Abu Ali Ibn Sino (Avitsenna) (980-1037) shunday ijtimoiy pedagogik g'oyalarni aytib o'tganlarki, bolani Ayni go'daklik chog'idanoq tarbiyalashni boshlashning zarurati, shuningdek bolaning tarbiyasiga tabiat va atrof-muhitning ta'siri, bolaga kattalar, ayniqsa ota-onaning ta'siri va boshqa fikrlar kabidir. XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo tabiatshunos-faylasuflari, tarixchi, shoir va rassom-musavvirlari o'z ijodlarida ijtimoiy fanlarga alohida e'tibor bilan qarab, tabiat sirlarini o'rganishga intilganlar. Bular qatorida Nuriddin Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Jaloliddin Davoniy (1427-1502), Alisher Navoiy (1441-1501), Xusayn Voiz Koshifiy (1440-1505) o'z traktatlarida inson aqli-tafakkuri, uning qobiliyati, insonning yuqori ahloqiy xislatlari, insoniylik g'oyalari, bolalar tarbiyasida umuminsoniy qadriyat hisoblanadi. Shu jumladan, o'zbek tilining asoschisi ulug' alloma, musiqachi, davlat arbobi, Alisher Navoiyning ijtimoiy pedagogik g'oyalari yuksak darajada insonparvarliligi bilan ajralib turadi. U insonni butun koinotda, bu olamda ham yagona eng oliy mavjudod deb hisoblagan. Bolani esa oilaga quvonch ham baxt keltiruvchi muqaddas in'om sifatida uyni yoritib yuboradi deb hisoblaydi.

Inson o'z farzandinigina emas, balki kelajak avlod bo'lgan barcha bolalarni sevmog'i shart – deb yozadi shoir.

Ijtimoiy pedagogikaga oid fikrlarni bizning o'zbek olim va allomalarimiz, ma'rifatparvarimiz, jadidchilik harakati etakchilari, XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Mahmudxo'ja Behbudiy (1874-1919), Munavvar Qori Abdurashidov (1878-1931), Abdulla Avloniy (1878-1934), Abduqodir shakuriy (1875-1943), Xamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) va boshqalarning asarlarida ham ko'plab keltirish mumkin.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida vujudga kelishida XX asr 20-30-yillari alohida o'rin tutadi. Bu davrda A.Avloniy, A.SHokuriy, M.Qori Abdurashidov, X.X.Niyoziy, V.F.Lubensova, N.P.Arangel'skiy, A.SHarafuddinov kabi pedagoglarning faoliyati muhim ahamiyatga molik. Ular avvalo, ijtimoiy izdan chiqib ketayotgan bolalarga yordam ko'rsatish, ya'ni bu allomalar aynan ijtimoiy pedagoglar bo'lib, ular tashkil etgan maktablar, shuningdek, boshqa pedagoglar tajribalariga tayanganlar (Almoiy nomidagi, N.G.CHernishevskiy nomidagi bolalar tajriba

⁵ Нишоновa.С. “Шарқ уйғониш даври педагогик фикр тараккиётида баркамол инсон тарбияси”. Докк. дисс. Автореферати. Тошкент, 1998.

maktablari va boshqa muassasalar ijtimoiy pedagogikaning amaliy manbai bo'lib hisoblanadilar).

Biroq O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivoji amalga oshmadi. Bunda avvalo, yangi ittifoq sovet pedagogikasi va o'sha davr pedagogikasi o'rtasida ajralish yuzaga keldi. Uzoq yillar mobaynida o'zbek ma'rifatparvarlari-pedagoglari tomonidan to'plangan barcha bilimlar inkor etilgandi. Pedagogikada shunday shior keng tarqalgandi: "Olam zo'ravonlikdir, biz uni ildizi bilan quporamiz".

Marksist pedagoglar tomonidan, shu vaqtgacha bo'lgan barcha pedagogika sohasidagi oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan asarlarni unutish talab etildi. 30-yillar oxirida sotsializm g'alaba qilganligi e'lon qilindi. SHu vaqtdan e'tiboran ijtimoiy muammolar haqida sukut saqlash sharti mustahkamlandi. Bu muammolar alohida, engil hal etiladigan, "eskilik sarqiti" deb baholandi. Bu esa o'z o'rnida ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishiga yo'l bermadi.

1991 yil O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilinishi bilan pedagogikaning ko'pgina sohalarini, shu jumladan, ijtimoiy pedagogikaning ham rivojlantirish vazifasi qo'yildi.

1997 yil "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'isida" Qonun (1997 yil) qabul qilinishi bilan ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning samarali yo'llarini topish, ma'naviy madaniyatni rivojlantirish, shaxsning fuqaro sifatida, erkin tafakkurli shaxsni shakllantirishning eng samarali yo'llarini yaratish maqsadida pedagogik fan oldiga ta'lim tizimini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish kabi vazifalar quyildi. Respublikamizda ijtimoiy pedagogikaning ilmiy va amaliy sohasi endigina shakllanmoqda. "Ijtimoiy pedagogika" predmeti ham endigina shakllanmoqda.

Mazkur sohada ilmiy-tadqiqot ishini yuritish shunchalik dolzarbki, bu fan bo'yicha mamlakatimizda: Ma'naviyat va ma'rifat Markazi, "Oila" markazi, nodavlat hukumatga qarashli bo'lmagan hayriya jamg'armasi, "Sog'lom avlod uchun", O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi qoshidagi respublika o'quv-metodik ta'lim markazi, Nizomiy nomidagi TDPU (mafura) g'oyaviy-siyosiy kafedralar va boshqalar. Respublikamizda har bir navbatdagi yilni ijtimoiy muammolardan biriga bag'ishlash an'ana tusiga kirgan. Masalan, 2001 yil "Onalar va bolalar yili" deb e'lon qilingandi. SHu munosabat bilan "O'smir va sog'lom turmush tarzi" deb nomlangan respublika metodik seminari o'tkazilib, maktablarda "Sog'lom turmush tarzi" predmeti kiritilib, sog'lom turmush tarzini shakllantiruvchi ijtimoiy muammolar masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekistonda keyingi vaqtlarda bir katta muammoga butun bir yilni bag'ishlash an'anaga aylandi. Masalan, 1998 yil "Oila yili", 1999 "Ayollar yili", 2000 "Sog'lom avlod yili", 2001 "Onalar va bolalar yili", 2002 yil "Qariyalar yili", 2003 "Obod va sog'lom mahalla yili", 2004 yilni "Mehr va muruvvat yili" deb belgilab, ijtimoiy pedagogik muammoni amaliyotda hal etish yo'llari izlanmoqda. Bugungi kunda ko'plab empirik va nazariy bilimlar to'plangan. Ularni to'la anglamoq va tizimlashtirishni talab etadi. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning kelgusi rivojlanishi etarli darajada emas. O'tmish allomalarimiz, olim-pedagoglarmiz asarlarini yangi nuqtai nazardan turib, o'rganish, chet el tajribalarini o'zlashtirib, Respublikamizga moslashtirilgan holda maqsadga muvofiq qo'llash lozim.

CHet el ijtimoiy pedagogikasi esa ko'p yillardan buyon rivojlanib kelmoqda, hozirgi vaqtda esa bu sohada juda ko'p muhim ilmiy salohiyatli bilimlar jamlangan. SHu sababli ham O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning vujudga kelishi va rivojlanishida boshqa mamlakatlarning tajribalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sohadagi rivojlanish jarayonida vujudga kelgan muammolarning tahlili, ilmiy bilimlar va chet eldagi amaliy faoliyatni o'rganishning o'zni beqiyos.

2.Chet el ijtimoiy pedagogikasi rivojlanish tarixidan

Ijtimoiy pedagogika pedagogika fanidan ajralib chiqqaniga deyarli ko'p vaqt bo'lgan emas. Biroq pedagogika fanining o'zi ham mustaqil fan sifatida, faqatgina, XVII asrdan boshlab shakllangan. Bu buyuk chex pedagogi YAn Amos Komenskiy (1592-1670) nomi va uning

“Buyuk didaktika” asari bilan bog‘liq. Bu asarda pedagogikaning tadqiqot predmeti va prinsiplari belgilab berilgan. Pedagogik jarayon qonuniyatlari ko‘rsatib berilgan. SHu bilan birga pedagogika tarixining ildizlari juda qadimga borib taqaladi.

Ilgari ta’kidlab o‘tganimizdek, pedagogika uzoq asrlardan buyon falsafa fani doirasida rivojlanib keldi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy pedagogika pedagogika fanidan yosh emas, doimo pedagogikaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida pedagogika fani doirasida, u bilan birga rivojlangan.

Shu sababli, ijtimoiy pedagogika tarixi muammolari bilan shug‘ullanuvchi olimlar o‘z tadqiqot ishlarini pedagogika tarixi, falsafa va barcha davrlar va xalqlar o‘tmish allomalarining pedagogik qarashlari bilan bog‘lashlari tasodif emas. Agar ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish davrlariga shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, uni bir qator bosqichlarga bo‘lish mumkin deb o‘ylaymiz.

Birinchi – dastlabki - boshlang‘ich boqich. Bu bosqich qadimgi davrlardan XVII asrlargacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda tarbiya amaliyoti va pedagogik ijtimoiy pedagogik qarashlarning shakllanish davridir.

Bu bosqichda tarbiyaviy va ijtimoiy voqeliklarni vujudga kelishi yuz berdi. Inson tarbiyasi bu davrda tabiiy holatdan ongli faoliyatga aylandi. Tarbiya nazariyasining turli ko‘rinishlari vujudga keladi. Ibtidoiy jamiyatdan feodalizm jamiyatiga o‘tilib, kapital munosabatlari vujudga kela boshladi. Bu o‘z navbatida tarbiyada turli muammolarni oldinga suradi. Ijtimoiy pedagogikaga oid ko‘pgina g‘oyalar uzoq qadimgi antik davrlarda olg‘a surilgan. o‘arbdagi Uyg‘onish davrida esa bola tarbiyasida insoniylik g‘oyalarini ilgari surish rivojlana bordi. Bu davrga italyan pedagogi, insonpavari Vittorino Da-Feltre (1378-1446) “Quvonch uyi” deb nomlangan birinchi maktab-internati tashkil etgan olimning fikrlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi bosqich – XVII-XIX asrlar. Ijtimoiy pedagogika fanini fan sifatida vujudga kelish va bu fan rivojidadagi ilgor g‘oyalar bilan xarakterlanadi. XVIII-XIX asrlar jahon madaniyati tarixidan burjua-demokratik inqilobi bosqichi sifatida joy olgan yirik olimlar (pedgoglar, faylasuflar, sotsiologlar, psixiloglar) ijtimoiy pedagogik muammolar echimini izladilar. Ular jamiyat va davlat bilan hamkorlikda bu muammolar echimini izladilar. Tarbiya masalalari jamiyatni qayta tashkil etish g‘oyalari bilan ko‘rib chiqildi. Bu davrlar ijtimoiy pedagogik g‘oyalarida barcha insonlar teng huquqli, erkin, ozod bo‘lishlari lozim ekanligi haqidagi fikrlar ko‘tarilgan.

Bu bosqichda ijtimoiy pedagogika muammolari amaliy ijtimoiy pedagogika bilan uzviy aloqada rivojlandi. O‘sha davr etuk pedagoglari bolalarning turli muammolariga bag‘ishlab, Yetim va qarovsiz bolalar uchun bolalar uyi, bog‘chalari, maktab va boshqa muassasalar tashkil etadilar.

Butun XIX asr davomida pedagogikadan ijtimoiy pedagogikaning ajralib chiqishi jarayoni uzoq davom etdi. SHu bilan birga uning rivojlanishiga falsafa va pedagogikadan tashqari psixologiya, sotsiologiya, antropologiya (inson kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi fan) tibbiyot va boshqa fanlar katta ta’sir ko‘rsatdi. Ijtimoiy pedagogikaning pedagogikadan ajralib chiqishi jarayoni bilan birga boshqa jarayon ham uning integratsiya jarayoni (lot. integer - yaxlit) ya’ni, boshqa fanlar bilan birlashishi davom etdi.

XIX asr oxirida ijtimoiy pedagogik – pedagogik fanning mustaqil sohasi bo‘lib ajralib chiqdi. Bu hodisa Adolf Disteverg, Paul Notori va boshqalarning nomlari bilan bog‘liq.

Uchinchi bosqich – XX asrning boshidan - ijtimoiy pedagogikaning mustaqil fan sifatida rivojlanish davri. Bu davrni teki syoki ososn davr deb aytib bo‘lmaydi.

Hozirgi kungacha turli davlatlar olimlari orasida ijtimoiy pedagogika boshqa pedagogik fanlar orasida qanday o‘rin tutishi haqida tortishuvlar mavjud: u fan hisoblanadimi yoki amaliy faoliyatning sohasimi; ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishlar qanday munosabatlar bor va boshqalar. Ko‘pchilik davlatlarda “pedagogika” va “ijtimoiy pedagogika” atamalari ijtimoiy pedagogikada umuman ishlatilmaydi. Masalan, AQSH da o‘quv yurtlarida pedagogika o‘rniga talabalar “ta’lim falsafasini” o‘rganadilar, odamlarga amaliy-yo‘naltirish yordami sohasi ijtimoiy ishga taalluqli, biroq, ijtimoiy xizmatchilar orasida aynan turli muammolari mavjud bolalarga

yordam ko'rsatishga xizmat qiladigan mutaxassislar bo'lsa ham. Belgiyada "ortopedagogika" atamasidan foydalaniladi, u "maxsus pedagogika" va "ijtimoiy pedagogika" tushunchalariga yaqin.

Rossiyada ijtimoiy pedagogika rivojlanishi – fan sohasi sifatida ham va professional amaliy faoliyat sohasi sifatida ham va o'quv fani sifatida - o'z xususiyatlariga ega.

Ijtimoiy pedagogikani mustaqil fanga ajralib chiqishida shart-sharoitlarni XIX asrning K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy kabi mashhur pedagoglari va boshqalar asarlarida topish mumkin. XX asrning 20-30-yillarida A.S.Makarenko, S.T.SHatskiy, V.N.Soroko-Rosinskiy kabi pedagoglar faoliyatlarida Yetim bo'lib qolgan bolalarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatishga qaratilgan edi. Lekin 30-yillardan keyin sotsializm g'alab qilgani e'lon qilingandan keyin hamma ijtimoiy muammolar ikkinchi darajali bo'lib qoldi. Ularni o'tmish sarqitlari deb atab ular haqida gapirmaslikka harakat qilindi.

XX asrning 90-yillarida Rossiyada ijtimoiy psixologiyani rivojlanishi yangi davri boshlandi. Ular bu yillarda "yuqoridan" imperativ (lot. imperativus - farmon) ya'ni, e'tirozlarni qabul qilmaydigan, tanlashga yo'l qo'ymaydigan, kiritilgan.

Bu ijtimoiy psixologiyani ilmiy va amaliy sohalar bir vaqtda bir-biridan ajralgan holda rivojlanishiga olib keldi. Amaliyot fanga tayana olmadi, chunki fan xali amalda yo'q edi, fan haqida hech narsani bilib bo'lmas edi, chunki amaliy faoliyat faqatgina endgina shakllanar edi. Bu ijtimoiy pedagogikaning o'quv fani sifatida tashkil topishida ham ta'sirini ko'rsatdi. Bu ham ijtimoiy-pedagogik faoliyat va fan rivojlanishi bilan bir vaqtda sodir bo'ldi. Fanning va amaliyotning tashkil topmaganligi "ijtimoiy pedagogika" fanida bugungi kunda ham ko'plab hal qilinmagan, tortishuvli masalalar bor. Bu ob'ektiv holatlar ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishini sekinlashtiradigan omillar hisoblanadi. Lekin amaliyot talablari Rossiyada shunchalik jiddiy va dolzarb Ediki, natijada fanning bu sohasi bilan ko'plab ilmiy jamoalar shug'ullana boshladilar.

Rossiya ta'lim akademiyasi ijtimoiy pedagogika Markazi (RAO), ijtimoiy ta'lim Akademiyasi Moskva, Sankt-Peterburg, Tula, Ekaterinburg va boshqa universitetlarida "ijtimoiy pedagogika" fakultetlari tashkil etildi.

V.G.Bocharova, M.A.Galaguzova, A.V.Mudrik kabi va boshqa olimlar ijtimoiy pedagogika bo'yicha nazariy tadqiqotlar olib boradilar. Ijtimoiy pedagogika bilan bir vaqtda XX asr 90-yillarida Rossiyada ijtimoiy ishlar instituti kiritildi. Ijtimoiy ishchilarning vazifasi aholining ijtimoiy himoyalangan qismiga yordam ko'rsatish bo'ldi.

Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishlarining rivojlanish tarixi bir-biriga juda yaqin. Birinchi navbatda ularni madaniy-tarixiy an'analari, alohida g'amxo'rlik va e'tiborni talab qiluvchi odamlarga munosabatlari ularni birlashtiradi. "Mehribonlik", "hayriya", "yordam ko'rsatish" va boshqa tushunchalar ijtimoiy pedagogika va ishlarda keng foydalanilishi bejiz emas.

Ammo ular yaqqol ifoda etuvchi o'ziga xoslikka va farqlarga ega. Ularning umumiyliklari va o'ziga xosliklari nimalardan iborat: birinchi navbatda bu ularning ob'ekti yoki adresatiga taalluqlidir.

Ijtimoiy ishchi ko'z oldida inson bo'ladi, lekin har qanday emas, faqatgina insonga muvaffaqiyatli bo'lishi, farovonligi, jamiyatning haqiqiy a'zosi, tekis hayot kechirishida muammolari bo'lgan inson bo'ladi.

Insonning hayoti davomida yuzaga keladigan muammolar har bir odamda uchraydi. Ular psixologik, tibbiy, huquqiy, moddiy va boshqa xususiyatli bo'lishi mumkin. Ular insonga bog'liq bo'lmagan tashqi omillar (ekologik, ijtimoiy, texnogen, millatlararo va boshqa kataklizmalar) yoki ichki shaxslararo muammolar (jismoniy yoki psixik rivojlanishida sog'lig'i yaxshi emasligi) bilan bog'liq bo'lishi mumkin. SHunday qilib, ijtimoiy ishlar ob'ekti ijtimoiy hayoti davomida, yordamga muhtoj bo'lgan inson hisoblanadi deb aytishimiz mumkin, ya'ni inson yoshidan qat'iy nazar ijtimoiy ob'ektdir.

Ijtimoiy pedjagogika esa uning ijimoiylashishi – individning ijtimoiy sub'ektga aylanishi jarayonida yordam ko'rsatilishi kerak bo'lgan bola bilan shug'ullanadi, ya'ni bola shakllanayotgan, rivojlanayotgan shaxs.

Bu ob'ektlarni taqqoslash ana shu ikki fanni nimalar yaqinlashtirishini (ijtimoiy hayot jarayonida yordam ko'rsatish) va ob'ektni farq qilishini (katta odam va bola) yaqqol ko'rsatadi. Bu nuqai nazardan ijtimoiy ishlarda yordam ko'rsatilayotgan odamni odatda mijoz deb atashlari, ijtimoiy pedagogikada esa odatda bola so'zi ishlatilishi ham buni tasdiqlashi mumkin.

Shunday qilib, turli mamlakatlarda tarixiy va madaniy an'analari, jamiyatning rivojlanish darajasiga, pedagogika va ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishiga qarab terminologiyalarida ham va tushunchalari mazmunida ham o'z farqlari bor. Ammo ularni birlashtiruvchi narsa ham bor.

Umumiyliigi shundan iboratki, har qaday jamiyat ham "doimiy muammolarni" rivojlanishi tarbiya va ta'limi, ayniqsa kamchiliklari va muammolari bo'lgan bolalarning muammolarini har doim hal etib kelgan, hal etmoqda va hal etadi.

Ijtimoiy pedagogikaga birinchi navbatda nemis fani pedagogikasi rivojlanishi tarixi katta xissa qo'shgan, shuning uchun Germaniyada ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishi tarixini ko'rib chiqamiz, uning tarixi 100 yildan oshiqroqdir.

"Ijtimoiy pedagogika" atamasi 1844 yili K.Mager tomonidan tarbiya haqidagi ochiq ilmiy munozaraga kiritilgan va keyinchalik A.Disterveg tomonidan tarqatilgan. Ana shu tushuncha paydo bo'lgan paytdan hozirgi kungacha nemis adabiyotlarida uni ikkita turlicha talqini mavjuddir.

Birinchi talqin (K.Mager) - ijtimoiy pedagogika tarbiyaning ijtimoiy tomoni bilan biror-bir umumiylikka ega. Ikkinchi talqin (A.Disterveg) - ijtimoiy pedagogika ma'lum ijtimoiy sharoit, vaziyatlarda pedagogik yordam sifatida ishtirok etadi.

Birinchi yo'nalish vakillari

K.Mager, XX asrda – P.Naturn (20-yillar), E.Bornemann, F.Shliper (60-yillar), D.Pegeler (80-yillar) va boshqalar bo'lgan. Paul Naturn (1854-1924) ijtimoiy pedagogikani umumiy pedagogikaning bir qismi, ob'ekti sifatida qaraydi.

P.Naturn ijtimoiy pedagogikaning uchta asosiy vazifalarini ko'rsatadi: birinchisi – bolaning jinsiy hayoti bilan bog'liq, uning hayotida oilasi davrasida va atrofida yaxshi odamlari bilan aloqada rivojlanadi.

Ikkinchisi – irodasi bilan bog'liq u maktabda shakllanadi va bilim berishni amalga oshirish bilan bog'liq, shu bilan birga bolada emotsional, ijtimoiy va motorli (harakatlanish) qobiliyatlari rivojlanadi. Uchinsisi - aql – umumiylikda ochib beriladi.

P.Naturn ijtimoiy pedagogikani hamma yosh odamlar uchun pedagogik deb hisoblagan, uning vazifasi – yoshlarda birdamlik va jamoatchilik asoslarini tarbiyalash hisoblanadi. P.Naturn fikrini davom ettirib bu yo'nalishning vakillari ijtimoiy pedagogikani integrativ (birlashtiruvchi) fan sifatida qaraydilar. SHu mazmunda E.Bornemannning talqin qilishi e'tiborga loyiq, u ijtimoiy pedagogikani davolash pedagogikasini, iqtisodiy pedagogikani va boshqalarni birlashtiruvchi fan sifatida qaraydi. Uning vazifalari – ijtimoiy guruhlar va ijtimoiy jamiyatda individual mustaqillikka yordam ko'rsatish. Jamiyatning madaniyati va insonparvarlik rivojlanishi haqida qayg'urishdan iborat. O'zining qo'shiluvchanligi sababli ijtimoiy pedagogika tarbiyaning hamma sohalariga kirib boradi, ya'ni u pedagogikaning tamoyillaridan biri sifatida ishtirok etadi. SHunday qilib, ana shu talqinga binoan ijtimoiy pedagogika tarbiyaning tamoyili sifatida ishtirok etadi. Ikkinchi yondoshish A.Disterveg (40-50y, XIX asr), G.Nol, G.Boymmer (XX asr 20-30 yil), K.Mollengauer (50-yillar) va boshqalar asarlarida aks ettirilgan. A.Distervegdan boshlab bu yo'nalish vakillari ishchi sinfining ijtimoiy himoyalanganligi, xalq ta'limi, boshpanasizlar kabi o'z davrlarining ijtimoiy masalalariga javob topishga harakat qiladilar.

German Nol (1879-1960) ijtimoiy pedagogikaning vazifasi agarda oila va maktab biror-bir sababga ko'ra o'z vazifalarini bajara olmay qolganda zarur bo'ladigan shoshilinch tez yordam ko'rsatishdan iborat deb hisoblaydi. G.Polning fikri P.Naturnnikidan ancha ishonchli, aniq va amaliy ko'rinadi.

Uning g'oyalari 1922 yili qabul qilingan yoshlarning hayriya ko'rsatish faoliyatlari haqidagi qonunda o'z aksini topdi – bu yoshlarni maktabdan tashqari boshqaradigan Germaniyadagi birinchi davlat hujjati edi. SHu davrdan boshlab ijtimoiy pedagogika amalda "shoshilinch holatlar pedagogikasi" bo'lib qoldi, u yoshlarni tarbiyalashda oilada va maktabda

mavjud bo'lgan kamchiliklar o'rini to'ldirishi kerak bo'lgan. Gertruda Boymer birinchi yo'nalish tarafdorlaridan farqli ravishda ijtimoiy pedagogikani pedagogikaning tamoyili emas, balki tashkiliy qismi deb hisoblagan. Oilada va maktabda tarbiyaga taalluqli bo'lmagan hamma narsa ijtimoiy pedagogikaning muammosi demakdir deb hisoblaydi u.

K.Mollengauer boshpanasizlik haqidagi tushunchani rivojlantiradi. Agarda alohida ijtimoiy institutlar bolaning bu muammosini hal eta olmas ekan deb hisoblaydi u, unda tarbiyaning uchinchi yo'nalishini yaratish zarurligi yuzaga keladi – davlat yordamini deydi u.

Shu bilan birga ijtimoiy pedagogika madaniy mazmunini yetkazish bilan emas, balki o'sib kelayotgan avlodning rivojlanishi va jamiyatga qo'shilishi jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etish bilan shug'ullanishi kerak, deb hisoblaydi.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy pedagogikaning asosiy yo'nalishlari to'la ishlab chiqilgan bo'lsa ham, ammo bu hali hamma muammolar o'rganilib bo'lmagan deb hisoblaydilar.

Ijtimoiy pedagogika nazariyasining umumiy ko'rinishi hali ham noaniqligicha qolib kelmoqda, deb hisoblaydilar hozirgi davr nemis olimlari. Ular bundan keyin ham shundayligicha qoladi, chunki aralash fikrlarning (psixologiya, sotsiologiya, ijtimoiy ishlar va boshqalar) davom etib kelayotgan differentsatsiyasi (lot. differetia - farqlash) ijtimoiy pedagogika nazariyasini to'la tasvirlab berish imkonini bermay kelayapti. Bu holat har qanday fanning rivojlanishi jarayoni uchun tabiiydir. Boshqa tomondan esa bu ijtimoiy pedagogika nazariy munozaralari maydoni XXI asrda ancha kengayadi deganini bildiradi.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi bilan birga Germaniyada ijtimoiy pedagogika sohasida mutaxassislik professional faoliyat sohasi ham faol rivojlanadi (ya'ni, ijtimoiy pedagog). 1908 yildan boshlab maxsus pedagoglarni tayyorlash boshlandi, XX asrning 70-yillari boshlariga kelib Germaniya universitetlarida oliy ma'lumotli ijtimoiy pedagoglarni tayyorlash boshlandi.

Shuni aytish kerakki, Germaniyada ijtimoiy pedagog bilan bir qatorda XX asr davomida bilim va amaliy faoliyat mustaqil sohasi sifatida ijtimoiy ishlar ham faol rivojlanib keldi.

Ammo ijtimoiy pedagoglar va ijtimoiy ishlarda professional faoliyatda ko'pgina umumiyliklar mavjud, shuning uchun Germaniyada ular yagona standart bilan boshqariladi. Bu standartda bu mutaxassislarning nomlari sinonimlar sifatida defis orqali yoziladi: ijtimoiy ishchi - ijtimoiy pedagog.

3-mavzu: Oila va bolalar, ota-onalar nazoratisiz qolgan bolalar va oilalar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat.

Reja:

1. Oila va uning asosiy vazifalari.
2. Oilaning ijtimoiy mavqei va uning turlari
3. Oilaga ijtimoiy-pedagogik yordam shakllari.
4. “Vasiylik qilish” va “g‘amxo‘rlik qilish” tushunchalari mohiyati. o‘amxo‘rlik qilish va vasiylik qilishga muhtoj toifali bolalar.
5. Asrab olgan oila bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.
6. Davlat vasiylik tashkilotlarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

Asosiy tushunchalar: oila, xavfi bor guruxi oilasi, yYetimlik, vasiylik va g‘amxo‘rlik, asrab olish.

1.Oila va uning asosiy vazifalari

Jamiyatda oilaning roli o‘zining kuchi bo‘yicha boshqa hech bir institutlar bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Aynan oilada insonning shaxsi shakllanadi va rivojlanadi bola jamiyatda qiyinchiliklarsiz moslashib ketishi uchun u ijtimoiy vazifalarini egallaydi. Oila birinchi tarbiyaviy institut sifatida ishtirok etadi, u bilan bog‘liqlikni inson o‘zining butun hayoti davomida xis etadi. Oilada insonning ma‘naviyligiga asos solinadi xulqi qoidalari yuzaga keltiriladi shaxsning ichki dunyosi va individual sifatleri ochib beriladi.

Statistika ko‘rsatishicha, xo‘jalik yuritish bozor siyosatiga o‘tish ijtimoiy institut sifatida oila holatiga ancha yomon og‘ir ta‘sir ko‘rsatdi. Demograflar tug‘ilish kamayganini qayd etadilar sotsiologlar asotsial oilalar sonini o‘tib borishini qayd etadilar va turmush darajasining pasayishini taxmin qiladilar.

Hamma davrlarda ham oila o‘zining farzandlarini tarbiyalashda yordam olishga talabni xis etgan. Tarix ko‘rsatishicha, odamlar katta oilalar bilan yashaganlarida oilaviy hayotning zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalari avloddan avlodga tabiiy ravishda va oddiy kundalik o‘tib kelgan. Zamonaviy industrial jamiyatda avlodlar o‘rtasidagi oilaviy aloqalar buzilmoqda. SHuning uchun, jamiyat oila tashkil etish va bolalarni tarbiyalash haqidagi zarur bilimlarni etkazish bo‘yicha ishlarni o‘z zimmasiga oladi. Hozirgi paytda ota-onalarga mutaxassis psixologlar ijtimoiy ishlar xodimlari ijtimoiy pedagoglar va bolalarni tarbiyalash bo‘yicha boshqa mutaxassislarning yordamlari zarur. Ana shu mutaxassislarning yordamiga faqatgina notinch, yomon oilalar emas, bugungi kunda tinch yaxshi oilalar ham muhtojlar.

Oila haqida bir necha xil tushunchalar mavjud: birinchidan, oila – bu nikoh va (yoki) qon-qarindoshchilikka asoslangan kichik ijtimoiy gurux, uning a‘zolari birgalikda yashaydilar va uy ishlarini bajaradilar, bir-biriga nisbatan o‘zaro majburiyatlar bilan birlashganlar. Ikkinchidan, oila – bu ijtimoiy institut bo‘lib, unda odamlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar barqaror mustahkam shaklda bo‘ladi. Ana shu o‘zaro munosabatlar doirasida odamlarning kundalik hayoti asosiy qismi amalga oshiriladi: jinsiy munosabatlari, farzand ko‘rish, bolalarning boshlang‘ich ijtimoiylashishi, tarbiyalash, ta‘lim berish, tibbiy xizmat ko‘rsatish va boshqalar.

Oila-nikoh munosabatlari insoniyatga qadim davrlardan ma‘lum. Neolit davridayoq (15-20 ming yil ilgari) ongli inson paydo bo‘lganda, odamlar jamoasi mavjud bo‘lgandayoq ularning birgalikda xo‘jalik yuritishdagi va bola tarbiyalashdagi vazifalari tabiiy jinsiyli, yoshiga qarab (erkak, ayol) ajratilishiga asoslangan. Tarixda qayd etilgan oilaviy munosabatlarda farqlar bo‘lishiga qaramay, hamma oilalarni birlashtiradigan qandaydir umumiylik bor. Bu oilaviy tarzda hayot kechirishdir, bunda insoniyat yashashning yagona imkoniyatini topgan.

Olimlar oilaning turli vazifalarini ko‘rsatadilar. Biz birinchi navbatda, bolani tarbiyalash va rivojlantirishga taalluqlilarinigagina to‘xtalib o‘tamiz.

Reproduktiv vazifasi

(productio lot, so‘zidan - o‘zini qayta ishlab chiqish, ko‘payish, avlod ishlab chiqarish) inson zotini davom ettirish zaruriyatini sababini asoslaydi. Oxirgi paytlarda 2-3 odamdan tashkil

topgan oilalar soni ortib bormoqda. Bunday oilalarning aytishlaricha bolalar ota-onalarning erkinliklarini cheklaydi: ta'lim olishda, ishdagi, malakasini oshirishda, o'zining qobiliyatlarini amalga oshirishda. Bola ko'rmaslik afsuski faqatgina mavjud bo'lmay, ular bolaga ega bo'lish yoshidagi er-xotinlar orasida keng tarqalmoqda, bu evropa davlatlari uchun xosdir. Oila kattaligini qisqarishi quyidagi omillar sababli sodir bo'lmoqda: tug'ilishning kamayishi, yosh oilalarning ota-onalaridan ajralib chiqishlari, ajralishlarning o'sib borishi natijasida bir ota yoki onalik oilalar soni ortib bormoqda. Aholining sog'lig'i sifati va mamlakatda sog'liqni saqlash rivojlanish darajasi. Ekspertlarning baholashlari bo'yicha yomon ekologik sharoit, axloqsiz hayot kechirishi, kasalligi yomon ovqatlanish va boshqalar sababli yoshi katta aholining 10-15% sog'lig'i holati sababli bolaga ega bo'lishi mumkin emas.

Iqtisodiy va xo'jalik-turmush vazifalari

Azaldan oilasi har doim jamiyatning xo'jalik boshlang'ich tashkiloti bo'lib kelgan. Ov qilish va don etishtirish, hunarmandchilik va savdo oilada har doim vazifalar taqsimlangan bo'lgani uchun mavjud bo'la olgan. Azaldan ayollar butun uy ishlari bilan mashg'ul bo'lganlar, erkaklar kasb-hunar bilan shug'ullanganlar. Ilmiy texnik revolyusiya asriga kelib odamlar hayoti yumushlarining ko'plari (ovqat tayyorlash, Kir yuvish, uy tozalash, kiyim tikish va boshqalar) qisman maishiy xizmat sohasiga yuklatildi. Iqtisodiy vazifasi oila a'zolari uchun boylik to'plash bilan bog'liq bo'lgan: kelin uchun sovg'alar, kuyov uchun qalin, avlodlarga qoldiriladigan buyumlar, to'yga, voyaga etish yoshiga sug'urta qilish, pul mablag'lari to'plash. Bizning jamiyatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar oilaning mol-mulk to'plash, xususiy mulkka ega bo'lish, turar joyini xususiy lashtirish, meros qilib qoldirish va shu kabi masalalardagi iqtisodiy vazifasi yana faollashib bormoqda.

Boshlang'ich ijtimoiylashtirish vazifasi

Oila bolaning shaxsi shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatadigan birinchi va asosiy ijtimoiy guruxdir. Oila ijtimoiy mikromuhitdir. Ijtimoiy ta'sir ko'rsatish omillaridan biridir. U bolaning jismoiny, psixik va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Oilaning vazifasi bolani u dunyoga kelgan mamlakat madaniyatiga va bola tabiatiga mos ravishda rivojlanib borishi uchun uni asta-sekin jamiyatga kiritib borishdan iboratdir.

Insoniyat to'plagan ijtimoiy tajribalariga, u tug'ilib o'sayotgan mamlakat madaniyatiga, uning ma'naviy-axloq qoidalariga, xalq an'analariga bolani o'rgatish – ota-onalarning majburiy vazifasidir.

Tarbiyaviy vazifasi

Boshlang'ich ijtimoiylashtirish jarayonida bolani oilada tarbiyalash muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ota-onalar bolaning birinchi tarbiyachilari bo'lganlar va shunday bo'lib qoladilar. Bolani oilada tarbiyalash murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Oiladagi muhit va sharoit bolaning shaxsi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ota va ona o'z bolasini ardoqlaydi, erkalaydi, tashvishini qiladi, hayot tashvish va qiyinchiliklaridan asraydi. Ota-onalarning shaxsiy ibratlari – bolaning tarbiyasiga ta'sir ko'rsatish muhim vositasidir. Uning tarbiyaviy ahamiyati bolaning taqlid etishga qiziqishi, havas qilishiga asoslangan. Bilim va tajribalarga ega bo'lmay bola kattalar qilganini takrorlaydi, ularning harakatlariga taqlid qiladi. Ba'zan bolaning oilada olgan tajribasi bolaning atrof dunyoga, odamlarga nisbatan yagona o'lchov belgisi bo'lib qoladi. To'g'ri ba'zi oilalarda ota-onalari bemor bo'lganida, buzuq axloqli hayot kechirganlarida, pedagogik madaniyatga ega bo'lmaganlarida va shu kabilarda tarbiya buzilishi mumkin. Albatta, bola shaxsi tarbiyasiga shunchaki o'zining borligi bilan ta'sir ko'rsatmaydi, balki qulay ma'naviy-psixologik muhiti, uning a'zolari o'rtasidagi sog'lom munosabatlar bilan ta'sir ko'rsatadi.

Rekreatsiya (qayta tiklash) va psixoterapevtik vazifalari

Buning mazmuni oila inson o'zini to'la himoyalangan deb xis etadigan, to'la qabul qilingan, uning mavqei, tashqi ko'rinishi, hayotdagi muvaffaqiyatlaridan moddiy ahvolidan qat'iy nazar, oila uni qabul qiladigan boshpana bo'lishidan iboratdir.

“Mening uyim – mening qasrim” iborasi sog‘lom, tinch oila – dunyodagi hamma notinchliklardan vaqtinchalik bo‘lsa ham yashirinishga, dam olib o‘z kuchlarini to‘plab olishga eng ishonchli va eng yaxshi boshpana degan ma’noni yaxshi ifoda etib beradi.

Rafiqasi o‘z uyida o‘zining hokimining hamma kamsitishlari va jahllariga indamay chidab kelgan an’anaviy modeli endi o‘tmishda qolib ketmoqda. Ko‘pchilik ayollar ham endi ishga boradilar va uyga charchab, toliqib qaytadilar. Oilaviy sharoitda, yaqinlari bilan munosabatlarda, bolalari bilan bo‘lganida kuchlari ancha yaxshi tiklanadi.

2.Oilaning ijtimoiy mavqei va uning turlari

Oila yaxlit sistemali tashkilotdir. Hozirgi zamonda oila oldida turgan muammolardan biri – bu oilaning jamiyatda moslashishidir (lotincha adapto - moslashtiraman), ya’ni oilaning zamonaviy muhitda (jamiyatda) hayot sharoitlariga moslashishi hisoblanadi. Moslashish jarayonining asosiy xarakteristikasi bo‘lib, ijtimoiy mavqei ishtirok etadi, ya’ni oilaning jamiyatda moslashish jarayonidagi holati.

Oilaning ijtimoiy mavqeini aniqlash uchun uning bir qator tuzilish – funksional xarakteristikalarini hamda oila a’zolarining individual xususiyatlarini bilish kerak.


Oilaning tuzilish xarakteristikalari

1. Nikohli sheriklarning mavjudligi (to‘la, rasman to‘la, to‘la emas).
2. Oilaning hayotiy sikli bosqichi (yosh, etuk, qari).
3. Nikoh tuzish tartibi (birinchi, takroriy).
4. Oiladagi avlodlar soni (bitta yoki bir necha avlodlar).
5. Bolalar soni (ko‘p bolalik, kam bolalik).

Oila a’zolarining individual xususiyatlari

Ularga ijtimoiy-demografik, fiziologik, psixologik, oila katta a’zolarining patologik odatlari kiradi va bolaning xarakteristikalari kiradi: yoshi, bola yoshiga munosib nutqi rivojlanganligi, jismoniy, psixologik rivojlanish darajasi; uning qiziqishlari va qobiliyatlari; u boradigan ta’lim tashkilotlari, munosabat va o‘qitish muvaffaqiyatlari; o‘zini tutishda chetlanishlar, patologik odatlari, nutqiy va psixik buzilishlar mavjudligi.

Oila a’zolarining individual xususiyatlari uning tuzilish va funksional ko‘rsatkichlari bilan birgalikda kompleks xarakteristikalarni tashkil etadi – oila mavqeini (lotincha status-holati, vaziyati).



Oilaning ijtimoiy moslashishi birinchi tashkil etuvchisi – oilaning moddiy ahvoli

Oilaning moddiy farovonligi, uning ta'minlanganligi bir necha miqdorni va sifatli ko'rsatkichlar bilan baholanadi. Bular oilaning daromad darajasi, uning hayotiy sharoitlari, buyumlari mavjudligi (ya'ni oila ega bo'lgan bular) hamda uning a'zolarining ijtimoiy-demografik xususiyatlaridan iborat, bu oilaning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeini tashkil etadi. Oilaning daromadlari darajasi, hamda turar joyi sharoitlari belgilangan normadan past bo'lsa (tirikchilik minimum iva boshqalar) buning oqibatida oila eng kerakli hisoblangan oziq-ovqat, kiyim, turar joyi uchun haq to'lash talablarini qondira olmaydi, bunda oila kambag'al hisoblanadi va uning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei – past hisoblanadi. Agarda oilaning moddiy ta'minlanishi ijtimoiy me'yorlar minimumiga mos kelsa, ya'ni agarda oila hayot kechirish uchun asosiy talablarni qondira olsa, lekin moddiy mablag'i dam olish, ta'lim va boshqa talablarini qondirishga etmasa unda bunday oila kam ta'minlangan hisoblanadi, uning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei - o'rtacha hisoblanadi.

Daromadi darajasi va yashash sharoiti yuqori bo'lib (ijtimoiy me'yordan ikki barobar ko'p va undan ortiq) faqatgina yashash asosiy talablarini qondirib qolmay, yana turli xil xizmatlardan foydalanish imkoni ham bo'lsa bu oila moddiy ta'minlangan hisoblanadi, yuqori ijtimoiy-iqtisodiy mavqega ega bo'ladi. Oilaning ijtimoiy moslashishi ikkinchi tashkil etuvchisi – uning psixologik muhiti – oila a'zolari kayfiyati, ularning hayotiy kechinmalari, bir-biriga munosabati, boshqa odamlarga, ishga, atrofdagi hodisalarga qarashlari natijasi sifatida yuzaga keladigan barqaror mustahkam emotsional kayfiyatdir. Oilaning psixologik kayfiyati holatini baholash uchun er-xotinlar o'rtasidagi, bolalar va ota-onalar va yaqin qarindoshlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini hisobga olish kerak bo'ladi.

Oilaning psixologik kayfiyati holati ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi: emotsional erkinligi darajasi, xavotirlanish darajasi, bir-birini tushunish, hurmat qilish, qo'llash, yordam ko'rsatish, hamdardligi, bir-biriga ta'siri darajasi; dam olish joyi (oilada yoki undan tashqarida), oilaning yaqin atrofdagilar bilan munosabatlari ochiqligi.

Teng huquqlilik va hamkorlik prinsiplarida qurilgan munosabatlar ma'qul hisoblanadi. Oilada bir-birlarining huquqlarini hurmat qilishadi, bir-biriga bog'langanlik mavjud, emotsional yaqinlik xis etiladi. Oilaning har bir a'zosi o'zaro munosabatlar sifatidan xursand. Bularning hammasi bo'lgan holatda – oilaning ijtimoiy-psixologik mavqei yuqori deb baholanadi. Oilada nosog'lom psixologik muhit er-xotinlar yoki ota-onalar va bolalar o'rtasida doimiy qiyinchiliklar va janjallar bo'lgan hollarda yuzaga keladi, oila a'zolari doim xavotirda bo'ladilar, o'zlarini erkin xis eta olmaydilar: oila a'zolari o'rtasida begonalik xissi hukmron bo'ladi. Bularning hammasi oilaning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan –psixoterapevtik, ya'ni stressni va charchoqni yo'qotish, jismoniy va ma'naviy kuchlarini tiklab olishi kabi vazifasini bajarishga har bir oila a'zosiga halaqit qiladi. Bunday holatda ijtimoiy psixologik muhiti – past darajali bo'ladi.

SHu bilan birga yomon munosabatlari inqirozli, butunlay bir-birini tushunmaslik, bir-biriga dushmanlik, jahl bilan kuch ishlatish (psixik, jismoniy, jinsiy), ajrashish istagi paydo bo'lishi bilan ifodalanuvchi holatlarga aylanishi mumkin. Inqirozli munosabatlarga misollar: ajralish, bolaning uydan qochib ketishi, qarindoshlari bilan munosabatlari, aloqalarining to'xtalishi.

YOmon munosabatlari bo'sh ifoda etilganda doimiy bo'lmaganda oilaning oraliq holatida bo'lganda oilaning ijtimoiy-psixologik mavqei o'rtacha hisoblanadi. Ijtimoiy moslashish tuzilishi uchinchi tashkil etuvchisi – ijtimoiy-madaniy moslashish.

Oilaning umumiy madaniyatligini aniqlashda uning katta yoshdagi a'zolari bilim darajalarini hisobga olish zarur. Kattalarning bilim darajalari bolalarni tarbiyalashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari oila a'zolarining turmush va o'zini tutish madaniyatlarini ham hisobga olish kerak. Agarda oila odatlar va an'analarni davom ettiruvchisi, saqlovchisi rolini bajara olsa (oilaviy bayramlar saqlanib qolinsa, xalq og'zaki ijodi saqlansa) oilaning madaniy darajasi yuqori hisoblanadi; qiziqishlari doirasi keng bo'ladi; ma'naviy talablari rivojlangan bo'lsa: oilada turmush to'g'ri tashkil etilgan, dam olish turli xillarda bo'ladi, shu bilan birga dam olish va turmush faoliyati birgalikda olib boriladi; oila bolani har tomonlama

(estetik, jismoniy, emotsional, mehnat) tarbiyalash bilan mashg'ul bo'ladi va sog'lom turmush tarzini ta'minlaydi.

Agarda oilaning ma'naviy talablari rivojlanmagan, qiziqishlari doirasi tor bo'lsa, turmushi tashkil etilmagan, uyushmagan, oilani birlashtiruvchi birgalikda madaniy xordiq chiqarish va mehnat faoliyati bo'lmasa, oila a'zolarining odobini boshqarish bo'sh bo'lsa (xulqini boshqarishda majburlash metodlari ustun bo'ladi); oila nosog'lom turmush tarzi olib borsa (nosog'lom, xulqi buzuk) unda uning madaniyati darajasi – past bo'ladi.

Agarda oila madaniyati yuqori darajaliligining to'la to'plamga ega bo'lmasa, lekin o'zining madaniy darajasi muammolarini tushunib etsa va uni oshirish yo'nalishida faollik ko'rsatsa unda oilaning ijtimoiy-madaniy mavqei o'rtachaligi haqida gapirish mumkin bo'ladi.

To'rtinchi ko'rsatkichi-vaziyatli-rolli moslashishi

Bu moslashish oilada bolaga munosabat bilan bog'liq bo'ladi. Bolaga oqilona ijobiy munosabatda bo'lganda, bolaning muammosini hal qilishda oilaning yuksak madaniyatligi va faolligi bo'lgan holda uning vaziyatli-rolli mavqei yuqori bo'ladi: agarda bolaga haddan tashqari e'tiborlilik, uning muammolariga aralashish ko'p bo'lsa, unda o'rtacha bo'ladi. Agarda bolaning muammolariga e'tibor berilmasa va undan ham yomoni bolaga yomon munosabatlar bo'lsa, bu oilaning past madaniyati va faolligi bilan birga vaziyatli-rolli mavqei – past bo'ladi.

Oilaning tipologiyasi

Oilaning ko'plab tipologiyalari mavjud bo'ladi: psixologik, pedagogik, sotsiologik. Ijtimoiy pedagogning faoliyati vazifalariga kompleks tipologiyasi javob beradi, u jamiyatda ijtimoiy moslashuvi darajasi bo'yicha farq qiladigan oilaning to'rt kategoriyadagi tiplarini ajratishni ko'zda tutadi.

1. YUqori darajasi - mustahkam oilalar.
2. O'rtacha – xavfi bor oilalar guruxi.
3. Past darajali – notinch (baxtsiz) oila.
4. Juda past – asotsional oilalar.

Tinch, baxtli oilalar o'z vazifalarini bajara oladilar. Ijtimoiy pedagog yordamiga deyarli muhtoj emaslar. Bunday oilalar moslashish qobiliyatlari hisobiga, ya'ni moddiy, psixologik va boshqa ichki imkoniyatlariga asoslangan qobiliyati hisobiga o'z bolasining talab-ehtiyojlariga tezlikda moslashib oladi va uni tarbiyalash va rivojlantirish masalarini muvaffaqiyatli hal etadi. Muammolar paydo bo'lgan hollarda ularga ijtimoiy pedagogning bir martalik yordami (maslahati) etarli bo'ladi.

Xavfi bor gurux oilalari qoidalaridan bir qancha chetlanishi bilan ifodalanadi (to'la bo'lmagan oila, kam ta'minlangan oila va shu kabilar). Bular oilaning moslashish qobiliyatini pasaytiradi. Ular bolani tarbiyalash vazifalarini o'zlarining ko'p kuchlarini ishlatib bajaradilar, shuning uchun ijtimoiy pedagog oila holatini kuzatib borishi kerak va kerak bo'lganida o'z vaqtida yordamini taklif etishi zarur.

Notinch oilalar, bu hayot faoliyati biror-bir sohasida yoki bir vaqtda bir nechtasidan past ijtimoiy mavqega ega bo'lgan oilalar. Masalan, oila daromadi past darajada, yomon psixologik muhit, oilada madaniyat darajasi past. Bunday oilalar ularga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydilar, ularning moslashish qobiliyatlari past, bolani oilaviy tarbiyalash jarayoni qayta qiyinchiliklar bilan o'tadi, natijasi kam bo'ladi. Bunday turdagi oila uchun ijtimoiy pedagog tomonidan faol va davomiy yordam kerak bo'ladi.

Asotsional oilalar – bu ota-onalari xulqi buzuk, qonunga xilof ravishda hayot kechirayotgan oilalar va bu oilalarda yashash – turmush sharoitlari eng oddiy sanitar-gigienik talablarga javob bermaydi. Bunday oilalarda odatda bolalar tarbiyasi bilan hech kim shug'ullanmaydi, bolalar qarovsiz qoladilar, yarim och, yarim yalang'och bo'lib rivojlanishdan ortda qoladilar. Ota-onalari tomonidan boshqalar tomonidan am jabrlanadilar, ijtimoiy pedagogning bunday oilalar bilan ishlari huquqni himoya qilish organlari bilan birgalikda, hamda vasiylik qilish organlari bilan hamkorlikda olib borilishi kerak.

Oilaga ijtimoiy-pedagogik yordam shakllari

Chet el amaliyotida muhtojlarga uzoq vaqtli va qisqa vaqtli ishlar shakllaridan foydalanib ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish boy tajribalari to'plangan.

Oz vaqtli shakllari orasida olimlar inqirozintervent va muammoli-yo'naltirilgan modelni o'zaro aloqlarini ko'rsatadilar.

Inqirozintervent modeli oila bilan ishlashda bevosita inqirozli vaziyatlarda yordam ko'rsatishni ko'zda tutadi. Bunday vaziyatlar oilaning kundalik hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin yoki tasodifiy zarar etkazuvchi holat bo'lishi mumkin. Bunday noqulay davrlar bolaning yoshi inqirozi bilan bog'liq, bunda oilada psixologik-pedagogik muammolar kuchayadi.

Uch yosh inqirozi shaxsning asosiy individual-psixologik sifatleri shakllanishi jarayoni bilan va ijtimoiy-ma'naviy sifatlarining rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liq bo'ladi.

7-8 yosh inqirozi maktab o'quvchisi yangi ijtimoiy mavqega moslashishi, hayotning yangi rejimini o'zlashtirishi, o'qituvchi bilan, bolalar jamoasi bilan munosabatlar o'rnatilishi bilan bog'liqdir.

12-17 yosh inqirozi o'zini tashkil toptirish, oila a'zolari, ota-onalari bilan, umuman kattalar bilan munosabatlarini o'zgartirish davri.

18-21 – ijtimoiy o'zini aniqlash davri.

Oilaga inqiroz paytida faqatgina ijtimoiy pedagog emas, balki professional psixolog, yordam ko'rsatish norasmiy guruxlari, maxsus tashkilotlar (ijtimoiy himoya, rehabilitatsiya markazi va boshqalar) yordam ko'rsatadilar.

O'zaro aloqalar muammoli- yo'naltirilgan modeli (shakli) qisqa vaqtli ishlar strategiyasiga kiradi, uning davomiyligi 4 oydan oshmaydi. Muammoli-yo'naltirilgan modeli oila murojaat etgan aniq amaliy masalalarni hal etishga qaratilgan bo'ladi.

Bu model diqqat markazida muammo va yordam ko'rsatuvchi mutaxassislar bo'ladilar, oilaga yordam ko'rsatuvchilar o'z kuchlarini oila anglab etgan va ular buning ustida ishlashga tayyor bo'lgan muammoni hal etishga qaratishlari kerak. Bunday muammolar bolaga destruktiv munosabatlar (lotincha destructio-buzish, barbod etish, biror narsaning normal tuzilishini parchalash), tarbiyalash noto'g'ri usuli, oiladagi yomon, ko'ngilsiz psixologik muhit bo'lishi mumkin. CHet el davlatlari ish tajribalarida asosan ustun bo'lgan ishlar olib borish uzoq vaqtli shakllari mijoz bilan uzoq vaqt munosabatda bo'lishni (4 oy va undan ko'p) talab etadi va odatda psixologik yondoshishga asoslanadi.

Oilalar ijtimoiy-pedagog va psixologik yordam so'rab murojaat etmasa (ular bunga muhtojlar aslida) unda ularga nisbatan patronaj kabi ish usuli qo'llaniladi. Patronaj ijtimoiy pedagogning ish usullaridan bir shaklidir, bu usulda ijtimoiy-pedagog diagnostik, tekshirish, nazorat, moslashish-reabilitatsion maqsadlarda oilalarni uyiga kelib ishlashidan iborat bo'ladi. O'zbekiston respublikasida patronaj ish usuli mavjud bo'lib va pediatrik xizmatlar, nogironlar va nafaqaxo'rlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan amalga oshiriladi. Lekin tibbiy va xo'jalik-turmush xizmatlari patronaj imkoniyatlarini chegaralamaydi, uning doirasida turli xil ta'lim, psixologik yordamlari amalga oshirishi mumkin, shuning uchun ijtimoiy pedagogning oilaga kelib ishlash shakli uning ajralmas qismi bo'lishi kerak.

Patronaj bilan bir qatorda oila bilan ishlash shaklidan biri sifatida konsultatsion suhbatlarni ko'rsatish mumkin. Individual konsultativ suhbatlar bilan bir qatorda oila bilan ishlash guruxli ishlash metodi –trening qo'llanishi mumkin.

“Vasiylik” va “qaramog'iga olish” tushunchalarining mohiyati. Vasiylik va g'amxo'rlikka muhtoj bolalar kategoriyalari

Vasiylik – bu “balog'atga etmagan shaxslar shaxsi va mol-mulki huquqlarini himoya qilish shaklidir (ota-onasiz olgan bolalar, ruhiy kasallar)”⁶. vasiylik deyilganda bunday kuzatishlar

⁶ Ожегов.С.И. Толковый словарь русского языка. – М, 1994, с. 445

vazifasi yuklatilgan shaxslar yoki tashkilotlar ham tushuniladi. Vasiylik qilish topshirilgan shaxs vasiy deb ataladi, uning majburiyati esa vasiylik.

qaramog'iga olish - o'z mazmuni bqyicha vasiylikka yaqin tushunchadir, qaramog'iga olish – bu balog'atga etmagan bolalar shaxsiy va mol-mulkka himoya qilish shakli (va boshqa kategoriyali odamlarning ham), ya'ni qaramog'iga olish deganda vasiylikdan farqli ravishda unga ancha keng kategoriyadagi bolalar kiradi. Hozirgi kunda kundalik nutqda va nazariy tadqiqotlarda ikki tushuncha keng qo'llaniladi: Yetim (hech kimi yo'qlik) va ijtimoiy Yetim (ijtimoiy hech kimi yo'qlik).

Yetim bolalar – bu 18 yoshgacha bqlgan ikkala ota-onalari yoki birortasi vafot etgan shaxslardir. Ijtimoiy Yetim – bu biologi kota-onalari bor bola, lekin ular qandaydir sabablarga ko'ra bola tarbiyasi bilan shug'ullanmaydilar va unga g'amxo'rlik ko'rsatmaydilar.

Bunday hollarda bolalarga g'amxo'rlik qilish vazifasini jamiyat va davlat o'z zimmasiga oladi. SHunday qilib, ota-onalari qarovisiz qolgan bolalar kategoriyalariga quyidagilari kiradilar:

- ota-onalari vafot etgan.
- Ota-onalik huquqidan mahrum etilgan.
- Ota-onalik huquqlari cheklangan;
- Noma'lum, daraksiz, yo'q hisoblangan.
- Ishga yaroqsiz (nosog'lom, ish qobiliyati cheklangan);
- Jazoni ijro etish kolonniyalarida jazo olayotgan.
- Jinoyat qilganlikda ayblanadi va qamoqqa olingan.
- Bolalarni tarbiyalashdan bosh tortadi.
- Bola vaqtincha joylashtirilgan davolash, ijtimoiy tashkilotlardan bolani olib ketishdan bosh tortadilar.

Vasiylik va qaramog'iga olish – Yetim-bolalarni va ota-onasi qarovisiz qolgan bolalarni boqish, tarbiyalash, ta'lim berish va ularning huquq va qiziqishlarini himoya qilish uchun joylashtirish shaklidir. Vasiylik 14 yoshga etmagan bolalar ustidan o'rnatiladi, qaramog'iga olish 14 yoshdan 18 yoshgacha bolalar ustidan o'rnatiladi.

Yetimlik – jamiyat oldida turgan juda jiddiy muammolardan biridir. Ota-onasini yo'qotgan bola – bu alohida juda ham fojeali dunyodir. Ota va onali bo'lish talabi ehtiyoji bolaning eng kuchli talablaridan biridir.

Ijtimoiy Yetimlik bugungi kunda ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun xosdir. Masalan, amerikalik tadqiqotchilari butun dunyo bo'yicha kasalxonalar, tug'ruqxonalar, ijtimoiy muassasalar tashlab ketilgan chaqaloqlar bilan to'lib ketganligini aytadilar. Ularni turlicha “voz kechilgan bolalar”, “davlat bolalari”, “tashlab ketish uchun tug'ilganlar” ham deb ataydilar.

Urush boshlanganda Shoahmad Shomahmudov va uning xotini Bahri Akramova artelda temirchi bo'lib ishlaganlar. Tokent ayollarining O'zbekiston barcha ayollariga murojaat etib (1942 yanvar) ularni evakuatsiya qilib kelingan bolalarga nisbatan onalik g'amxo'rligini ko'rsatishga chaqirganlaridan keyin ular turli millatlardan Yetim-bolalarni tarbiyalariga olishgan. Ular orasida rus, belorus, moldavan, ukrain, latish, qozoq, tatar va boshqa millat bolalari bor edi. Shomahmudovlar boshpanasiz qolgan bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatadilar, ularni o'qitib tarbiyalab bizning mamalakatimizga munosib kishilari qilib o'stirdilar. 1966 yilda zilziladan so'ng Shomahmudovlar boshpanasiz qolgan bolalarni oilaga qabul qildilar. Shomahmudovlar “Hurmat belgisi” ordeni bilan B,Akramova “qahramon ona” ordeni bilan ham mukofotlanganlar. Ular Raxmat Fayzining “Ulug' inson” romanining, “Sen Yetim emassan” badiiy filmining asosiy qahramonlari timsoli qilib olinganlar. Toshkentning ko'chalaridan biri Shomahmudovlar nomi bilan ataladi, Xalqlar Do'stligi maydonida “Do'stlik” monumenti o'rnatilgan. Ulardan tashqari yana minglab o'zbek oilalari urush yillarida evakuatsiya qilingan bolalarni asrab olganlar. Ikkinchi jahon urushi yillarida xalq shoiri Gofur Gulom o'zining “Sen Yetim emassan” she'rida o'z ota-onalarini va uylarini yo'qotgan bolalarga qaratilgan qalb so'zlarini yozgan:

Sen yetim emassan, tinchlan jigarim!

Quyoshdek mehribon vataning onang,

Zamindek vazminu mehnatkash, mushfiq
Xalq bor, otang bor cho‘chima jigarim,
O‘z uyingdasan, uxla jigarim

Yetimlikning hamma sabablarini aytib o‘tish qiyin, chunki bu turli fan sohalari olimlari (shifokorlar, psixologlar, sotsiologlar, pedagoglar va ko‘plab boshqalar) shug‘ullanadigan ko‘p qirrali muammo va u ham oxirigacha o‘rganib bo‘linmagan. Ammo hech bo‘lmaganda Yetimlikning uchta sabablarini aytish mumkin:

1. Ota-onalar (ko‘pincha onalar) o‘zining balog‘atga etmagan bolasidan o‘z ixtiyori bilan voz kechadi, shu bilan birga bu ko‘pincha chaqaloqlik yoshida kuzatiladi: voz kechish, tashlab ketilgan chaqaloqlar.

2. Bolaning qiziqishlarini himoya qilish maqsadida ota-onalik huquqidan mahrum etilganda bolani oiladan majburlab tortib olish. Bu holat asosan ichkilikbozlikka berilgan, jamoatchilik, jamiyat qoidalariga zid ravishda hayot kechirayotgan, nosog‘lom ota-onalari bo‘lgan, notinch oilalarda yuz beradi.

3. Ota-onalari vafot etganda. Bunga aholini shoshilinch ko‘chishga majbur etuvchi qandaydir tabiiy yoki ijtimoiy kataklizmlar (urush, er qimirlashi va shu kabilar) oqibatida yo‘qolib qolgan bolalarni ham kiritish mumkin. Har qanday jamiyat va davlatning asosiy vazifasi – bolaning oilada tarbiyalanish huquqini amalga oshirishdir. Bolaning bu huquqlari xalqaro hujjatlarda qayd etilgani kabi (BMTning bolaning huquqi haqidagi konvensiya va boshqalar), O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarda qayd etilgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi oila kodeksida eng ustun va mustaqil sifatida quyidagi bolaning huquqlari ko‘rsatiladi: oilada yashash va tarbiyalanish huquqi, ota-onalari va boshqa qarindoshlari bilan aloqa qilish huquqi, o‘zini himoya qilish huquqi, ismi, familiyasi, otasining ismiga huquqi. davlat birinchi navbatda bolani oilada saqlab qolishga va uni davlat muassasalariga tarbiyalashga berishni oldini olishga bor kuchi bilan intiladi. Agarda bolani oilada saqlab qolish mumkin bo‘lmasa uning uchun yangi oila izlash afzal deb hisoblanadi.

O‘zbekistonda ota-onalarisiz qolgan Yetim-bolalarga yordam ko‘rsatish uchun “Sen yolg‘iz emassan” Respublika ijtimoiy fondi tashkil etilgan. Har bir mamlakatlarda bola tarbiyasi va rivojlanishiga tegishli ijtimoiy alternativ masalalar tizimi yaratilmoqda, rivojlantirilmoqda va mustahkamlanmoqda. Ularga quyidagi mumkin bo‘lgan usullarni kiritish mumkin:

- Oilaga qaytarish.
- Mamlakat ichida asrab olish.
- Tarbiyalash uchun oilaga berish;
- Maxsus tarbiya muassasalariga berish.

Yetim-bolalarga vasiylik qilish ikki yo‘l bilan amalga oshirilishi mumkin – asrab olish yoki davlat qaramog‘iga olish bilan. Asrab olish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi: asrab olgan oila, vasiylik qiluvchi oila, bolalikka olgan oila.

Farzand qilib olish – bu bolani himoya qilish maxsus chorasi, bunda bola va uning haqiqiy ota-onasi bo‘lmagan odam yoki er-xotin o‘rtasida qarindoshlik aloqalari yuridik o‘rnatiladi. Bolaning tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun bolani farzand qilib olganida u aynan oilaga ega bo‘lishi, unga biror-bir o‘rnini bosuvchi emas, oilaga ega bo‘lishi muhim holat hisoblanadi. Bizning davrimizda ko‘plab hamyurtlarimiz mehribonlik ko‘rsatib ota-onasiz qolgan bolalarni oilalariga oladilar. Masalan, Nizomiy nomidagi TDPU padagogika kafedrasida katta o‘qituvchisi Ishmuxamedov Ravshan Djuraevich Yetim qolgan bola – koreys bolani asrab oldi (2003). Ishmuxamedovlar oilasida o‘zlarining to‘rtta farzandlari bor. Bunday harakat haqiqiy insonparvarlik va begonalar baxtsizligiga g‘amxo‘rlik munosabatini bildiradi.

Davlat vasiyligi – asrab olingan bolaga (Yetim bolaga) uning tarbiyasi va rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratib, uni bu maqsadda maxsus tashkil etilgan tashkilotga joylashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Bola bolalar uyiga (maloletka), vaqtinchalik asrab olinadigan oilaga, mehribonlik uyiga (bolalar uyi) maktab-internatga joylashtirilishi mumkin.

Asrab olgan oila bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat

Asrab olingan bola har xil turdagi qabul qiluvchi oilaga tushishi mumkin: bu vasiylik qiladigan oila yoki bola qilib oldigan oila bo'lishi mumkin. Bular orasida farq birinchi holatda bola uchun unga qarindosh bo'lgan odamlar topiladi, ikkinchi holatda – bola bilan qarindoshlik aloqasi bo'lmagan odamlar oila vazifasini bajarishlaridan iborat bo'ladi. Vasiyning vazifasi bolani tarbiyalash va rivojlantirish, uning huquqlarini himoya qilish hisoblanadi. Vasiy voyaga etmagan bolada mavjud bo'lgan mol-mulki va ko'chmas mulkini saqlash va foydalanishini nazorat qilishni amalga oshiradi, lekin o'zi bu mulkdan foydalanish huquqiga ega emas. Bola qilib olgan oila umuman olganda bolaning yangi yuridik va haqiqiy oilasi hisoblanadi, bu erda u o'z bolasi huquqiga ega bo'ladi.

Bola uni oilasiga olgan ota-onalarining familiyasini olishi mumkin, hatto yangi ism ham. Farzand qilib olingan bolaning hamma huquq va majburiyatlari haqiqiy o'z bolalari huquq va majburiyatlariga tenglashtiriladi.

Asrab oluvchi oilaning yana bir turi - vaqtinchalik asrab olish oilasi. Vaqtinchalik asrab oladigan oila bolalikni himoya qilish usuli sifatida bir qator rivojlangan mamlakatlarda juda ham keng tarqalgan hisoblanadi.

O'zbekistonda asrab oladigan oilalar hozircha keng tadbiq etish va tarqalishga ega emas.

Vaqtinchalik asrab olish oilasini vasiylik oilasi yoki bola qilib oluvchi oiladan farqi birinchi navbatda bu professional mutaxassislar oilasi bo'ladi. Agarda chet el tajribalariga murojaat etsak unda vaqtinchalik asrab oluvchi oilaning bir necha belgilarini ko'rsatish mumkin:

1. Ota-onalarda ma'lum professional malakalari bo'lishi kerak;
2. Oila kerakli professional-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.
3. Bunday oilaning xizmatlariga xizmat haqqi to'lanadi.
4. Bolaning oilada bo'lishlari asrab olgan ota-onalarning ish staji sifatida hisobga olinadi.
5. Asrab olgan ota-onalarning ish vaqtlari o'z shaxsiy uylarida o'tadi.

Vaqtinchalik asrab olish oilasining faoliyati bolaning keyingi taqdiri hal etilgunga qadar bolaning oilada bo'lishini ko'zda tutadi: o'z oilasiga qaytishi; bolalar uyiga jo'natilishi, internat yoki boshqa muassasalarga yuborilishi.

Asrab olgan oila bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat bosqichlari	Ijtimoiy pedagogning faoliyat vazifalari	Ijtimoiy-pedagogik faoliyati metodlari
1. Asrab oladigan oilani izlash	Axborot-ma'lumotlar	Anketa tuzish, suhbat, intervyu, ma'lumotlarni o'rganish
2. Bo'lajak asrab oladigan ota-onalarni o'rganish	Diagnostik (boshlang'ich diagnostika)	Anketa tuzish, suhbat
3. Bola joylashtirilgan muassasalar va oilalarni borib ko'rish (inqiroz oila, bolalar uyi va boshqalar)	Vositachilik	Kuzatish, suhbat
4. Bo'lajak oilani va uning yaqinlarini o'rganish	Diagnostik (chuqur diagnostika)	Anketa tuzish, test sinovlari, suhbat, ishonitirish, hujjatlarni o'rganib chiqish
5. Kiritish o'qitishi, leksiya, hikoya, suhbat, videofilmlar	O'qitish (boshlang'ich, dastlabki o'qitish)	Leksiya, suhbat, kuzatish, ishonish, mashq qilish

6. Bolani asrab oluvchi oilaga joylashtirish, asrab oluvchi ota-onalarni chuqur o'qitish kursi	Patronaj qiluvchi. ⁷	
--	---------------------------------	--

6. Davlat vasiylik tashkilotlarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat

Agarda bola asrab olinmasa va bola qilib oladigan oilaga tushmasa unda bu bolaning tarbiyasi, ta'lim va rivojlanishi bilan davlat tashkiloti shug'ullanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda bolalar uylari (malyutka) invalidlar uchun maktab-internatlari reabilitatsion markazlari va 28 ta mehribonlik uylari (bolalar uylari) mavjud. Mehribonlik uylarida 3400 ga yaqin bolalar yashaydilar. Ota-onalari qarovisiz qolgan bolalar tarbiyalanadigan davlat tashkilotlari faoliyatlarining asosiy maqsadlari: bu tashkilotlardagi bolalarni ijtimoiy himoya qilish; reabilitatsion, tibbiy va ijtimoiy xususiyatdagi tadbirlarni amalga oshirish; bolalar umumiy ta'lim olishlarini tashkil etish.

Bolalar mehribonlik uylarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolaning rivojlanishiga yordam beruvchi uy vaziyatiga yaqinlashtirilgan qulay, maishiy sharoitlarni yaratish.
2. Bolalar sog'lig'ini saqlashni ta'minlash.
3. Bolaning ijtimoiy himoyasini, uning tibbiy-pedagogik va ijtimoiy moslashishini ta'minlash.
4. Tarbiyalanuvchilar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish.
5. Bolalar ta'lim dasturlarini olishlari, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarida munosib ta'lim olishlari.
6. Tarbiyalanuvchilar umumiy madaniyatini, ularning hayotga moslashishlarini shakllantirish.
7. Tarbiyalanuvchilarda o'zini rivojlantirishga va o'zini anglashga talablarini yuzaga keltirish.
8. Kasb-hunar ta'lim dasturlarini tushunib ongli ravishda tanlashi va keyinchalik o'zlashtirishi uchun sharoitlar yaratish.

Ijtimoiy pedagogning bolalar mehribonlik uyidagi ijtimoiy-pedagogik faoliyatini chuqurroq ko'rib chiqamiz. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning maqsadi – bolalar uyi tarbiyalanuvchilarini ijtimoiylashtirish (bolaning jamiyatga “kirish” jarayoni). Bu maqsad turli masalalarni bajarish bilan amalga oshirilishi mumkin. Jadvalga qarang, unda ijtimoiy pedagogik faoliyat masalalari, vazifalari, faoliyatini tashkil etish metodlari va shakllari ko'rsatilgan.

Bolalar mehribonlik uylarida ijtimoiy-pedagogik faoliyati

Ijtimoiy pedagog masalasi	Ijtimoiy pedagogik faoliyat vazifalari	Faoliyatni tashkil etish metodlari va shakllari
1. Bolaning mavqeini aniqlash	Diagnostik	Suhbatlar, anketa, test sinovlari, intervyu, bola hujjatlarini analiz qilish
2. Tarbiyalanuvchilar rivojlanishi individual dasturini tuzish	Prognostik	Bola haqidagi to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, bolani psixologik pedagogik reabilitatsiyalarini aniqlash

⁷ Патронаж (лот.patronatus - ҳомийлик қилиш) ота-оналарисиз қолган болаларни давлат органлари ва патронаж қилувчи болани қабул қилиб олувчи шахслар ўртасидаги шартнома бўйича болани тарбиялашга бериш.

3. Bolani moslashtirish, reabilitatsiya integratsiyasi	Tuzatish reabilitatsion -	Kuzatish, suhbat, o'yin, mashqlar, trening, rag'batlantirish, jazolash, yo'l ko'rsatish. Bolaning shaxsiy ishlarini olib borish ijtimoiy xizmatlar va tashkilotlar bilan aloqalar olib borish.
4. Huquqni himoya qilish boshqaruv organlarida bola qiziqishlarini manfaatlarini himoya qilish	Vositachilik va patronajlik	Uqtirish, suhbat.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. "Oila" tushunchasini ifodalab bering va uning asosiy vazifalarini ko'rsating.
2. Oilaning ijtimoiy mavqei nima? Uni tashkil etuvchi ham tarkibiy qismlari o'zaro bog'liqliklarini ko'rsating. Oilalarning ijtimoiy mavqei nuqtai nazaridan ularning turlarini ko'rsating.
3. Oila bilan ishlashning asosiy modeli va shakli qanday?
4. "Vasiylik" va "qaramog'iga olish" tushunchalarining mohiyati qanday?
5. Bola asrab olgan oila bilan ijtimoiy pedagog olib boradigan ishlar xususiyatlari nimadan iborat?
6. Ijtimoiy pedagogning bolalar mehribonlik uylarida bajaradigan ishlari xususiyatlari nimadan iborat?

4-mavzu. Deviatziya ijtimoiy pedagogik muammo sifatida

Reja:

1. Axloq me'yorlaridan chetga chiqish tushunchasi, unga tavsif va uning tiplari.
2. O'smirlik yoshida me'yordan og'ish deviatziya holatlari. Deviatziya turlari.
3. O'smirlarda deviantlik xulqining sabablari
4. O'smirlarning deviantlik xulqining oldini olish (profilaktikasi) ga asosiy yondoshuv.
5. Deviant xulqli o'smirlarda ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya ishlari.

Asosiy tushunchalar: Anomal bolalar, iqtidorlilik, ijtimoiy me'yorlar, rivojlanishida og'ishlik bo'lgan bola, nogiron bola, deviant xulq, delikvant xulq, qarovsizlik.

1. Me'yor va xulqiy og'ishganlik tushunchasi va ularni tavsiflash. Xulqini og'ishganlik tiplari.

Rivojlanishning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'iy nazar, qanday jamiyatda, u eng rivojlangan, farovon iqtisodiy rivojlangan mamlakat bo'ladimi, yoki rivojlanayotgan jamiyatmi, ularda o'zlariga alohida e'tibor talab etadigan insonlar bo'ladi. Bunday insonlar biror-bir jihatdan jismoniy, psixik yoki ijtimoiy rivojlanishida nuqsoni mavjud insonlardir. Bunday insonlar jamiyat va davlatda doimo alohida guruhga mansub bo'lib ajralib turadi. Ularga doimo maxsus alohida munosabatda bo'lib kelingan. Biroq bu toifadagi insonlarga jamiyatning tarixiy-madaniy sharoitiga muvofiq turli davrlarda turlicha munosabatda bo'lib kelingan. Masalan, qadimgi Spartada alohida qattiq jismoniy kamsitish (xasta, jismoniy nosog'lom bolalarni qadimgi spartachilar qoyalardan uloqtirganlar) bilan ajralib turgan. Boshqa jamiyatlarda esa bunday toifadagi insonlarga mehribonlik va g'amxo'rlik ko'rsatilgan.

hozirgi davrda AQSH va qator Evropa mamlakatlarida nosog'lom insonlarga ham barcha qatori, odatiy teng huquqli munosabatda bo'ladilar. Ularga jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida qarab, bu insonlarni muammoli yokti imkoniyati cheklangan shaxs sifatida alohida maxsus e'tibor beriladi.

“Muammoli inson” tushunchasi AQSHda keng qo'llanilsa Evropa mamlakatlarida “imkoniyati cheklangan insonlar” iborasi ko'p ishlatiladi.

Bugungi kunda iimkoniyati cheklangan insonlarga munosabatda, eng avvalo sog'liq masalasi eng dolzarb masala hisoblanadi. CHunki bunday insonlar soni dunyo miqyosida o'sib bormoqda.

YUNESKOning istiqbol bo'yicha ma'lumotlarida yaqin vaqtda jahon hamjamiyati bu ko'rsatkichni o'zgartira olmaydi.

Sog'lom muhit doimo insonlar ongida o'z chegarasiga ega bo'lib, chegaradan tashqi bo'lganlar “nome'yoriy”, “potologik” deb belgilanadi. Amaliyotda inson anglagan yoki anglamagan holda o'zgalarni belgilariga muvofiq layoqatli yoki layoqatsiz deb baholaydi.

Me'yor tushunchasi tibbiyotda, psixologiya, pedagogik, sotsiologiya va boshqa fanlarda keng qo'llanilib kelinadi. Bu tushunchaga aniq va yaxlit, yagona ta'rif berishga bo'lgan intilish muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlangan. Masalan, faqatgina tibbiyotda olimlar 200 ga yaqin ta'rif berganlar. “Me'yor” tushunchasini ifodalab berishning murakkabligi shundaki, u nafaqat terminologik, balki mazmun, mohiyat jihatidan ham yagona ifodaga ega emas. Masalan, axloqiy me'yorlar doimo bir xil, hamma uchun deb belgilana olmaydi. SHu sababli ham ular birinchidan, milliy o'ziga xoslik, bundan tashqari vaqt o'tishi bilan qayta-qayta o'zgarib turadilar. AQSHda II jahon urushidan so'ng ikki-uch o'n yilliklar mobaynida chekish odatiy “me'yoriy” hodisa hisoblangan bo'lib, unga jamiyatda bee'tibor bo'lganlar. hozirda, jamiyat bu yomon, sog'liq uchun zararli odatga qarshi turgan bir vaqtda, chekishga axmoqona xulq belgisi sifatida munosabatda bo'ladilar.

Aslida, qanchalik jamiyat demokratik tuzumga asoslangan bo'lsa, shunchalik shaxsning nostandart shakldagi xususiyatlariga chidamli munosabatda bo'linadi – agar totalitar rejimga

asoslangan bo'lsa, inson xulqini qattiq chegara doirasiga oladi, mabodo xulqiy og'ishlik holatlariga yo'l qo'yilsa, ular raxmsizlik bilan jazolanadilar. SHuni unutmaslik lozimki, me'yor – bu shunday g'oyaviy hosilaki, unda ob'ektiv borliq (reallik) shartli ravishda, o'rtacha statistik ko'rsatkich bo'yicha, real haqiqat tavsiflanadi, biroq unda mavjud holatlar ifodalanmaydi.

Tibbiyot, psixologiya, sotsiologiyada me'yorning o'z ko'rsatkichlari, parametrlari (o'lchami), tavsifnomalari mavjud. Me'yorga muvofiq bo'lmagan holatlar barchasi boshqa so'z "me'yordan og'ishlik" deb yuritiladi.

Ijtimoiy pedagogikada "me'yor" va "me'yordan og'ishlik" tushunchalari juda muhimdir. Ular bolaning ijtimoiy xulq-atvori rivojlanish jarayonini xarakterlash uchun qo'llaniladi.

Xulqiy og'ishlik negativ va pozitiv xarakterga ega bo'lishi mumkin. Masalan, me'yordan xulqiy og'ishlik holati bola rivojlanishida ham aqliy norasolik va qobiliyatlilik bo'lib ifodalanishi mumkin.

Bola xulq-atvoridagi bunday negativ xulqiy og'ishlik jinoyatchilik, alkogolizm, giyohvandlik va boshqalar sifatida insonning (nafaqat insonning, balki jamiyatning) ijtimoiy shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xulq-atvoriga pozitiv og'ishlikka ijtimoiy ijodning barcha shakllari taalluqli bo'lib, ular: iqtisodiy tadbirkorlik, ilmiy va badiiy ijodkorlik va boshqalar, aksincha eski me'yorlar o'rniga almashuvchi ijtimoiy tizim rivojiga xizmat qiluvchi omil hisoblanadi.

Me'yordan og'ishganlik tiplari

Me'yordan og'ishganlikni shartli ravishda to'rt guruhga bo'lish mumkin: jismoniy, psixik, pedagogik va ijtimoiy. Me'yordan jismoniy og'ishlik insonning sog'lig'i bilan bog'liq bo'lib, tibbiy ko'rsatkichlar orqali belgilanadi. U bolalarning yosh va jinsiy ko'rsatkichlari bilan (vazni, bo'y uzunligi, ko'krak kengligi va boshqalar) ifodalanadi. Ular bolaning sog'lig'ini xarakterlaydi. Aslida bular ideal ko'rsatkichlar bo'lib, bunday ko'rsatkichlarga to'la muvofiq keladigan bolani topish qiyin bo'lsa kerak. Jismoniy jihatdan me'yordan og'ishgan bolalarni ijtimoiylashtirish alohida qiyinchilik bilan amalga oshirilib maxsus ishlarni talab etadi.

Sog'lig'i jihatidan me'yordan og'ishganlik biror kasallik asorati yoki avloddan-avlodga o'tuvchi omillar, ba'zan tashqi vaziyat orqali yuzaga kelishi mumkin. Masalan, og'ir ekologik vaziyat, oziq-ovqat, ichimlik suvining sifatsizligi, oilaning umumiy yashash sharoitining og'irlashishi va boshqalar. Sog'ligi va o'sishida me'yordan og'ishlik bo'lgan insonlarning ko'pgina toifalari mavjud. 1980 yili jahon sog'liqni saqlash tashkiloti Britaniyaning imkoniyati cheklangan shaxslar uchun uch bo'g'inli shkalasini qabul qildi.

1. Xastalik – inson sog'lig'idagi har qanday yo'qotish, psixik yoki jismoniy funktsiya anatomik tuzilmasi elementlari, faoliyatdagi biror-bir qiyinchilikning aniqlanishidir.

2. Cheklangan imkoniyat – inson uchun me'yordagidek hisoblanadigan har qanday cheklanish yoki o'z faoliyatining yo'qolishi (nuqsonning ko'pligi yoki asorati) yoki inson faoliyati doirasidagi har qanday cheklanishlar.

3. Layoqatsizlik (nogironlik) – inson sog'lig'idagi nuqsonlar asorati yoki cheklangan imkoniyat, me'yoriy qaysidir rolning bajarilishiga to'siq bo'lgan, yosh ko'rsatkichlari, jinsiy yoki ijtimoiy omillardan kelib chiqadigan holat.

G'arbiy davlatlarda "Sog'lig'ida imkoniyati cheklangan shaxslar" tushunchasi qabul qilingan. O'zbekistonda ham bu tushuncha kiritilib, unga jismoniy (yoki) va psixik kamchiligi bo'lgan bolalar taalluqlidir. Bunday bolalarning sog'lig'idagi nuqsonlari ularning standartdagi ta'lim olishlarida to'siqlik qiladi, shu sababli ta'lim olishda maxsus sharoitlar yaratilishini talab etadi.

Shuningdek, "nuqsonli" tushunchasi ham kiritilgan bo'lib, ular jismoniy, psixik og'ir va murakkab kabi turlarga ajratilgan.

Me'yordan psixik og'ishlik eng avval bolaning aqliy rivojlanishi, uning psixik nuqsonlari bilan bog'liq.

Bu guruhga eng avvalo psixik rivojlanishida to'xtalish (ZPR) bo'lgan bolalar va aqliy norasolar yoki oligofreniya (yunon tilidan, oligos – kichik va phren - aql) lar kiradi. Bolalarda

turli darajali ruhiy xastaliklar uchraydi: engil – debillik, chuqur – idiotiya. SHuningdek, psixik og‘ishga nutqdagi nuqsonlilar, xissiy (emotsional) – irodaviy muhitdagi nuqsonlilar ham kiradi. Bu psixik og‘ishlikning eng so‘nggi shakli bo‘lib, autizm (YUnon tilidan, autos- sam) – psixikaning holati, muloqotga ehtiyoji yo‘qligi, odamoviligi bilan xarakterlanadi va o‘z-o‘zini o‘ldirish, suitsitga moyil bo‘ladi.

Me‘yordan psixik og‘ishganlik bolalarning alohida guruhiga iqtidorlilar kiradi. Bu bolaga muvaffaqiyatga erishishini ta‘minlovchi, biron-bir faoliyatni bajarishda yutuqlarga erishuvida muhim bo‘lgan bolalar iste‘dodining o‘ziga xos turlaridir. Hozirgi davrda bolalardagi iste‘dodni, ulardagi musiqaga, san‘atga, tasviriy san‘at, sport, aqliy qobiliyatlarini ertaroq aniqlovchi ajoyib metodikalar ishlab chiqilgan. Bu metodikalar bolalar qobiliyatlarini shakllashtirishga ham xizmat qiladi.

Pedagogik me‘yordan og‘ishlik. Bu shunday tushunchaki, hozircha pedagogika va ijtimoiy pedagogikada juda kam qo‘llaniladi. Pedagogik me‘yorlarda eng avvalo standartlar ko‘zda tutiladi. Ular ta‘lim darajalarini belgilab beradi. Ta‘limni egallaganlik yoki egallay olmaganlik me‘yordan og‘ish me‘yorlari haqida fikr yuritish mumkin. Pedagogik me‘yorlar bo‘lib, mamlakatda qabul qilingan umumiy ta‘lim standartlar hisoblanadi. Bu standartlarga muvofiq ma‘lum yoshdagi bola, shu davrga muvofiq darajadagi ta‘limni o‘zlashtirishi, o‘rta ma‘lumot (9-sinf)ni olishi va o‘rta maxsus yoki kasb ta‘limini olgan bo‘lishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997) ga muvofiq umumiy o‘rta ta‘lim (9-sinf) hamma uchun majburiydir. SHu baza asosida mustaqil ta‘lim sifatida majburiy bo‘lgan o‘rta maxsus yoki kasb ta‘limi o‘qish muddati uch yil davomida amalga oshiriladi.

Biroq o‘rta ma‘lumotni olmagan bolalar ham bor. O‘zi mustaqil kasb ta‘limi faoliyati turlarini egallay olmaydigan bolalar ham uchrab turadi. Bunday bolalarning o‘qishga hoxishi yo‘qligi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kasb faoliyati bilan shug‘ullana olmasligi kabi xususiyatlari birlashtiradi. SHunday holatlarlardan kasb ta‘limiga ega bo‘lmagan bolalar kelib chiqadi. Bu me‘yordan og‘ishganlikni bartaraf etishda mutaxassisning ijtimoiy-pedagogik yordami zarur bo‘ladi.

Ijtimoiy me‘yordan og‘ishganlik tushunchasi “ijtimoiy me‘yorlar” tushunchasi bilan bog‘liq. Ijtimoiy me‘yorlar – bu jamiyatning u yoki bu davrida, bosqichida maxsus o‘rnatilgan hatti-harakat namunalari yoki yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan (ruxsat etiladigan yoki majburiy) qoidalaridir.

Umumiy qabul qilingan xulq-atvorga oid qoidalar o‘z tarixiy rivojlanish yo‘liga ega. Ular Qadimgi davrlardan ma‘lumdir. Jamiyat doimo o‘zini saqlab qolishga harakat qilgan. SHu maqsadda insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda turli ijtimoiy cheklashlar: miflar, tabu (man qilish), an‘analalar, diniy dogmalar (aqidalar) kiritilgan.

Insoniyat jamiyati doimo murakkablashib va takomillashib borgan. Vaqt o‘tishi bilan yanada mustahkamroq huquqiy, ahloqiy me‘yorlar vujudga kelib, insonlar xulq-atvoriga bo‘lgan munosabatda u yoki bu jamiyatda qabul qilingan ahloq va hulqli me‘yordan og‘ish holatlari shakllanishiga qarshi me‘yorlash yuzaga keldi.

Ijtimoiy me‘yorlar ikki katta guruhga bo‘linadi:

1. Universal me‘yorlar, jamiyatdan har bir insonga taalluqli me‘yorlar.
2. Xususiy me‘yorlar, insonlarni alohida belgilangan kasbiy faoliyatlari sohalari yoki insonlar hayotiy faoliyatlari (masalan, shifokor, pedagog, aka, do‘st va boshqa) ga taalluqli me‘yorlar.

Ijtimoiy me‘yorlarga rioya qilish insonning ehtiyoji va odatlariga aylanishi zarur. Agar bola ijtimoiy me‘yorlarni va jamiyat qadriyatlarini o‘zlashtirmagan bo‘lsa, uni xulqiy og‘ishgan bola deb ataydilar.

Xulqiy og‘ishgan bolalar muammosi sotsiologiya, psixologiya va pedagogikaga oid adabiyotlarda asosan ishlab chiqilgan. Xulqiy og‘ishganlikning turlariga bolalar alkogolizmi, toksikomaniya, giyohvandlik, buzuqlik, qarovsizlik, nazoratsizlik, daydilik, jinoyatchilik, huquqbuzarlik va boshqalar kiradi.

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda bu toifadagi bolalarni turlicha atamalar bilan beradilar: “Tarbiyasi og‘ir”, “Og‘ir xulqli”, “deviant bola” xulqi og‘ishgan, asotsial xulqli bola. Ijtimoiy rivojlanishida xulqiy og‘ishgan bolalar orasiga yana shunday toifadagilar: Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar ham kiradi. Bunday bolalar – Yetimlar va “ijtimoiy Yetimlar” dir. Ular biologik ota-onalari bo‘la turib, turli vaziyat sababli birga yashamaydilar. “Ijtimoiy maydondan chetlatilgan” bolalarni jamiyatga qaytarish uchun ularga yordam berish zarur. SHu sababli ijtimoiy pedagogning bunday bolalar bilan olib boradigan ishlari, bir tomondan, xulqiy og‘ishlikning oldini olish, profilaktika ishlari, jamiyatda qabul qilingan me‘yor va qoidalar holatlarida ogohlantirish, boshqa tomondan, xulqiy og‘ishgan bolalarni reabilitatsiya qilish ishlarini bajarish lozim.

Me‘yordan og‘ishganlik tiplari

Jismoniy	Psixik	Pedagogik	Ijtimoiy
• Kasallik; • ko‘rishida nuqsonli; • eshitishda nuqsonli • harakat apparatidagi nuqsonlar	• psixik rivojlanishida ortda qolish; • aqliy zaiflik • nutqiy nuqson • emotsional-irodaviy nuqsonlar • iqtidorlik	• umumiy ta‘lim olishdan og‘ishlik • kasbiy ta‘lim egallashdagi og‘ishlik	• Yetimlik • xulqiy og‘ishlik: alkogolizm, toksikomaniya, giyohvandlik, buzuvchilik, qarovsizlik, daydilik, huquqbuzarlik, jinoyatchilik.

2. O‘smirlik yoshida deviatsiya (me‘yordan og‘ishlik) holatlari. Deviatsiya tiplari

O‘smirlik davrini o‘tish bosqichi deb ataydilar. Bolalar yosh ko‘rsatkichlari davrida o‘tish bosqichi eng qiyin va murakkab davrdir. Bu davrni yana shu sababli ham o‘tish davri deb hisoblaydilarki, bu o‘tish bosqichida inson bolalikdan kattalik davriga, bola xarakteridan, etuk inson bo‘lib shakllanadigan bir, o‘ziga xos jarayonlar davriga o‘tiladi.

O‘smirlik yoshida o‘smirning yaxlit hayoti va faoliyati jiddiy o‘zgaradi va uning psixikasi qayta shakllanishiga olib keladi, o‘z tengdoshlari bilan o‘zaro faoliyatda, munosabatlarining yangi shakllari vujudga keladi. O‘smirning jamiyatdagi mavqei, jamoadagi vaziyati, holati almashinadi, unga kattalar yuqoriroq talablar qo‘ya boshlaydilar. Bu yosh davrida jinsiy etilish faollashadi, biroq ijtimoiy shakllanishi orqada qoladi. Bu esa jinsiy tarbiyada ijtimoiy-psixologik muammolarni vujudga keltiradi.

O‘smirlik yoshida bolada o‘z-o‘zini anglashga ehtiyoj paydo bo‘ladi. “Men kimman?”-savoliga javob berish uni tez-tez bezovta qiladi. Unda o‘z-o‘ziga qiziqish paydo bo‘ladi. U yoki bu faktlarga unda shaxsiy qarash, mulohaza yuritish, o‘z bahosini berish kabi xususiyatlar shakllanadi. Bu yoshda vaqtinchalik oila va maktabdan psixologik uzoqlashish holatlari bo‘lib turadi. O‘smir shaxsining shakllanishida tengdoshlarining ta‘siri kuchayib e‘tibor maktab, oilaning ahamiyatiga kamaygandek bo‘ladi. Ko‘pincha, o‘smir haqiqiy rasmiy jamoa va norasmiy guruh bilan muloqot qilishning qay biri afzal ekanligi to‘g‘risidagi tanlov oldida turadi. O‘smir o‘zini erkin sezadigan, uni hurmat qiladigan insonlar bo‘lgan guruh va muhitni ko‘proq xush ko‘radi.

Bunday muhit va jamoaga sport seksiyalari va texnikaga oid to‘garaklar bo‘lishi yoki o‘smirlar yig‘ilib, muloqot qiladigan, chekadigan va ichadigan va h.k erto‘lalar ham bo‘lishi mumkin.

Bu yoshda ayrim o‘smirlarning kattalar, ayniqsa ota-onalari bilan muammoli vaziyatda bo‘ladilar. Ota-onalar ularga yosh bolaga, go‘dakka g‘amxo‘rlik qilgandek, munosabatda bo‘lishni davom ettiradilar. O‘smir esa bu sharoitdan chiqib ketishga intiladi. SHu sababli kattalar bilan o‘zaro munosabatda janjalli vaziyatlar ko‘payadi. O‘smirda kattalik hissi shakllanadi. Bu yoshda o‘smir mustaqil, erkin harakat qiladi, kattalarning “o‘rgatish”lariga qarshi e‘tiroz paydo bo‘ladi. O‘smir bu yoshda kumir (havas qiladigan insoni), ya‘ni film

qahramonlari, kuchli katta yoshdagi inson, ko'rsatuv qahramoni, mashhur sportchi va boshqalarga taqlid qilib: uning tashqi qiyofasi, xulq-atvoriga o'xshashlik uchun harakat qilishi holatlari ko'p uchraydi. Tashqi qiyofa o'smir uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ajoyib soch turmashi, ba'zan ikki yoki uch ziraklar, yirtiq jinsi, jidu yorqin rangdagi kosmetika va boshqa vositalar o'smirlarga o'zini boshqalardan ajralib turishiga imkon beradi hamda bolalar guruhlarida o'zini tan olishlariga harakat qiladi.

SHu tariqa, o'smirlik yoshida ajralib turadigan xarakter xususiyatlari haqida quyidagilarni aytish mumkin; hissiy noetuklik o'z shaxsiy xulq-atvorini etarli darajada nazorat qila olmaslik, o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyati va istaklarini taqqoslay olmasligi, yuqori ta'sirchanligi, o'zini tan olishlariga bo'lgan istaklari va kattalar kabi o'zini tutish. O'smir – bu etarli darajada etilmagan va etuk aqlga ega bo'lmagan ijtimoiy inson. Bu bosqich bolalik va o'spirinlikning chegarasidir.

Katta deb hisoblanishi uchun etarli darajada rivojlanmagan, biroq shu bilan bir vaqtda atrof-dagilar bilan ongli ravishda muloqotga kirisha oladigan hamda o'z xulq-atvori va harakatlari jamiyat me'yor va qoidalariga javob berishida katta e'tibor talab etadigan bosqich o'smir shaxsidir.

Qonun bu yoshdagi bolalarni voyaga etmagan, biroq o'z xulq-atvori va hatti-harakatlariga axloqiy hamda huquqiy jihatdan mas'uliyatli bo'lishga layoqatli deb hisoblaydi. SHu sababli o'smirlar uchun o'z hatti-harakati va xulq-atvoriga cheklangan huquqiy javobgarlik o'rnatilgan.

Deviatsiya tiplari

Me'yordan og'ish

Jamiyatda qabul qilingan qoida va xulq-atvor me'yorlaridan og'ishgan o'smirlar og'ir tarbiyalilar deb ataladi.

Og'ir tarbiyalil o'smir jamiyatda o'rnatilgan qoida va me'yorlarga rioya qilmaydi. Bunday holat ilmda deviyasiya deyiladi (lotin tilida deviation - og'ishlik). Masalan, fizikada kompas magnit strelkasining og'ishi, biologiyada organizm rivojlanishida og'ishlik uchraydi.

Deviyasiya (og'ishlik) – bir tomondan uni o'rab turgan inson va atrof-muhitga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik hodisasidir. O'zgaruvchanlik ijtimoiy muhitda inson xulq-atvori bilan bog'liq. Ilgari aytib o'tilgandek, xulq me'yordagidek yoki og'ishgan bo'lishi mumkin.

Me'yoriy xulq O'smirning rivojlanishidagi ehtiyojlari va imkoniyatlari, uning ijtimoiylashuviga to'la javob beruvchi, unga adekvat⁸ monand keluvchi mikrosotsium bilan uning o'zaro faoliyatidir.

Agar bolaning atrofidagi muhit o'smirning u yoki bu xususiyatlari, uning xulq-atvoriga doimo (yoki deyarli doim) o'z vaqtida va adekvat (monand) bo'lsa, o'smirda xulq-atvor me'yoriy bo'ladi. Bu fikrdan xulqi og'ishganlikning tavsifi ham kelib chiqadi, biroq bolaning mikrosotsium bilan o'zaro faoliyati sifatida uning rivojlanishini buzuvchi va ijtimoiylashuvda va yuzaga keluvchi xulqi, jamiyatda o'rnatilgan axloqiy hamda huquqiy og'ishganlik ijtimoiy dezadaptatsiyaning (bola uchun ijtimoiy muhit sharoitlariga moslashishga to'siqlik qiladigan hodisa) ko'rinishlaridan biridir.

Bolalik - o'smirlik dezadaptatsiyada quyidagi patologiyalar o'z tasdig'ini topgan: Maktab yoshidagi bolalar, maktabga bormaydilar, Yetim-bolalar, ijtimoiy Yetimlar, giyohvandlik va zaharli (toksinli) vositalarni qabul qiluvchi o'smirlar; jinsiy ahloqsiz o'smirlar, huquqbuzarlik faoliyatlariga berilgan o'smirlar.

Deviatsiyaning tarkibiga deviantlik, delinkvent va kriminal xulq-atvorlilar kiradi.

Deviant xulq-atvor-xulqiy og'ishganlikning bir turi bo'lib, o'smirning yoshiga muvofiq bo'lmagan ijtimoiy xulq-atvor me'yor va qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan mikrosotsium munosabatlar (oilaviy, maktabdagi) va kichik jinsiy yosh ijtimoiy guruhlari uchun xarakterli bo'ladi. YA'ni xulq-atvorning bu tipini intizomsizlik deb atash mumkin. Deviant xulq-atvor ko'rinishlariga o'smirning namoyishkorlik, agressivlik, o'ziga erk berish, o'qish va mehnat faoliyatidan tizimli og'ishlik, uydan ketib qolish, daydilik, ichkilikbozlikka berilish,

⁸ Адекват – (лотинчадан adacquatus – тенглашган)- тенг, монанд, тўла мувофиқ келувчи

alkogolizmga berilish, giyohvandlik va u bilan bog'liq assotsial faoliyatlar, jinsiy xarakterdagi jamiyatga qarshi faoliyatlar, suitsid⁹.

Delinkvent xulq-atvori – deviantlikdan farqli ravishda bolalar va o'smirlarning assotsial xulq-atvori bilan xarakterlanadi. Bu xulqiy harakatlarda huquqiy me'yorlarni bola buzib o'tsada, biroq huquqiy, jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Sababi cheklangan ijtimoiy xavfli yoki bola jinoiy javobgarlikka tortilish yoshiga etmagan hisoblanadi.

Delinkvent xulq-atvorda: asosan inson shaxsiga qarshi agressiv-zo'ravonlik xulqi, haqorat, janjalkashlik, o't qo'yish, sadistlik harakatlari ajralib turadi.

Delinkvent (lotin tilidan delinqveng-huquqbuzar)-xulqiy og'ishgan sub'ekt, o'z harakatlarida jinoiy jazolanadigan faoliyatlarni amalga oshiradi.

- arazli xulq-atvor, o'zida mayda o'g'rilik, bosqinchilik, talonchilik, avtotransportni o'g'irlash va boshqalarni amalga oshirib, moddiy manfaat ko'rinishning ilinjida mulkiy tajovuz qilishdan iborat.

- Giyohvand moddalarni tarqatish va sotish.

Kriminal (jinoiy) xulq-atvor (lotin tilidan, criminalis-jinoyatchilik) huquqbuzarlik harakati bo'lib, jinoiy javobgarlik yoshiga etguncha, jinoiy ish ochishda asos bo'lib xizmat qiluvchi va Jinoyat kodeksining belgilangan moddalari bilan asoslanadigan xulq-atvor

3. O'smirlarda deviant xulq-atvor sabablari

Inson taraqqiyoti ko'pgina omillar o'zaro ta'siri bilan asoslanadi: irsiy avloddan-avlodga o'tuvchi, muhit, tarbiya, insonning shaxsiy amaliy faoliyati kabilarga bog'liq. Voyaga etmaganlarning deviant xulq-atvorini asoslovchi asosiy omillarni ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Biologik omil. Bola organizmini noqulay fiziologik yoki anatomik xususiyatlari mavjud bo'lib, uni ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtiradi. Bularga: - genetik, avloddan avlodga o'tuvchi xususiyatlar. Ularga aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rishda nuqsonli bo'lganlar, asab sistemasining buzilishi kabilar kiradi. Bunday bolalar hali ona qornidayoq noto'g'ri ovqatlanish, onaning ichkilikbozlik, chekishga ruju quyishi, onaning kasallanishi (jismoniy va psixik jarohatlar, surunkali yuqumli kasalliklari); irsiy kasalliklarning ta'siri, ayniqsa, irsiylik, alkogolizm ta'sirida bo'ladilar;

- inson organizmiga ta'sir etuvchi psixo-fiziologik og'ir tashvishlar, janjalli vaziyatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, energiyaning yangi turlari, somatik¹⁰, allergik kasalliklari turlari olib kelishiga sabab bo'ladi.

- Fiziologik, o'z tarkibiga nutqdagi nuqsonli, tashqi qiyofadagi nuqsonlar, konstitutsion-somatik nuqsonlar sababli atrofdegilar bilan munosabatda negativ holatlarni yuzaga keltiradi va shaxslararo munosabatda bolaning o'z tengdoshlari, jamoa o'rtasidagi chekkaga chiqish, turtulishga olib keladi.

2. Psixik omil. Bola psixopatologiyasida yoki aksentuatsiya¹¹ sida (haddan tashqari zo'riqish) xarakterining alohida xususiyati bilan ifodalanadi. Bu hulqiy og'ishganlik bola asab-ruhiy kasalliklar psixopatiya, nevrosteniya bilan xastalanganligi orqali vujudga keladi. Aksentuilashgan xarakter xususiyatiga ega bo'lgan bolalar turli psixologik ta'sirlarga o'ta sezgir, psixik me'yorning eng chetki turi bo'lib, tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiyaga muhtoj va tarbiya xarakteridagi chora-tadbirlarning ko'rilishini talab etadigan bolalardir.

3. Ijtimoiy-pedagogik omillar. Oila, maktab va ijtimoiy tarbiya nuqsonlarida namoyon bo'ladi. Bu omil bolani erta ijtimoiylashuvdan og'ishganlikka, bolalik davridayoq maktabda o'zlashtirmovchilik tufayli maktab bilan aloqaning uzilishi (pedagogik bo'sh qo'yish) olib keladi. O'smirda maktabga bo'lgan ongli ravishda qiziqishning shakllanmasligi motiviga sabab

⁹ Суицид (инглиз тилидан suicide – ўлдириш - ўз-ўзини ўлдириш ҳаракати, кучли руҳий ҳолатда ёки психик касаллик таъсирида инсоннинг ўз-ўзини ўлдириши)

¹⁰ соматик (Юнон тилидан soma- тана) тана билан боғлиқ, организмдаги психикага қарама-қарши бўлган ҳолат.

¹¹ Характер акцентуацияси – характернинг алоҳида хусусиятларининг ўта кучли ифодаланиши куйидаги типлари ажратилади: АХ:1

bo'ladi. Bunday bolalar maktabga yomon tayyorlangan, uy vazifalariga negativ munosabatda bo'luvchi, maktab baholariga befarq bo'ladigan, o'quv dezadaptatsiyasiga uchrovchi bo'ladilar.

- O'quv dezadaptatsiya – bolaning maktabga bo'lgan umumiy qiziqishini saqlanishida bir yoki ikki fanni o'zlashtirishda qiyinchilikka duch kelgan holatidir.

- maktab dezaptatsiya – bolaning yosh xususiyatida ta'lim olishidagi qiyinchiliklar bilan bir qatorda xulqiy buzilish holatlari o'qituvchilar, sinfdoshlari bilan janjalli vaziyatlar ko'rinishida o'ringa chiqadi. Dars qoldirish odatlari paydo bo'ladi.

- ijtimoiy dezadaptatsiya – bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishi, maktab jamoasining talablariga javob berishdan qochish holatlari, turli asotsial jamoalarga kirib ketish, spirtli ichimliklarga, giyohvandlik moddalariga qiziqishining ortishi bilan namoyon bo'ladi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishidagi og'ishganlik omillarga yomon oilalar sabab bo'ladi. SHunday oilaviy o'zaro munosabatlar usullari mavjudki, ular voyaga etmaganlarning assotsial xulq-atvorining shakllanishiga olib boradi:

1. Tarbiyaviy va oilaning ichki munosabatlarining disgarmonik usuli. Bu usul o'zida bir tomondan, bola istaklariga ko'ra bo'lsa, ikkinchi tomondan, bolaning janjalli vaziyatlarga yoki oilada ikki xil axloqiy qarash mavjudligi: oila uchun boshqa, jamiyat uchun umuman boshqacha bo'lgan tarbiyaviy holatlar.

2. Barqaror bo'lmagan, janjalli usul noto'liq oilalarga tarbiyaviy ta'sir etuvchi, er-xotin ajralishi, ota-ona va bolalar uzoq muddat alohida yashashlari sababli yuzaga keladi.

3. Munosabatlarning assotsial usuli yomon tashkil etilgan oilalarda, doimiy spirtli ichimliklar ichish, giyohvandlikka berilish, axloqsizlik, ota-onaning jinoyatchilik xulq-atvori, "oilaviy qahri qattqlik" va zo'ravonlik kabi illatlarda yuzaga keladi.

Qahrli munosabatlar (haqorat, xo'rlash) deb bolaga g'amxo'rlik qiluvchi, qaramog'iga olgan odamlar tomonidan zarar etkazilishining ko'pgina harakatlariga aytiladi. Bu harakatlarga bolalar jismoniy zarar etkaziluvchi jismoniy, emotsional (hissiy), jinsiy qiynoqlar bilan azoblash, ko'p takrorlanuvchi noo'rin jazolar kiradi.

Qahrli munosabatlarga bolalar uyda, oilada, ko'chada, maktabda, bolalar mehribonlik uylarida, kasalxona va boshqa bolalar muassasalarida duch kelishlari mumkin.

SHunday holatlardagi bolalar, xavfsizlik hissini sezmaydilar. Ularning me'yoriy rivojlanishida bu hissiyotning ahamiyati katta.

Bu esa bolalaga uni o'zi haqida, men yomonman, hech kimga kerakmasman, sevimli emasman deb o'ylashlariga sabab bo'ladi. Qahrli munosabatlarning har qanday turi bola sog'lig'iga katta zarar etkazadi. Uning hayoti va ijtimoiy moslashuvchanligida xavf tug'diradi.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ijtimoiy tengsizlikka sabab bo'ladi. Jamiyatni boy va kambag'allar, jamiyat uchun eng ahamiyatli aholining kambag'allashuvi, ishsizlik kabi qatlamlarga ajratadi. Ijtimoiy qabul qilingan halol ish haqqini (qonuniy) olish usullarining cheklanishi, inflyasiya va ijtimoiy tartibbuzarlikka olib keladi.

5. Axloqiy-ma'naviy omillar. Hozirgi davrning jamiyatda bir tomondan ma'naviy axloqiy darajaning pasayishi bo'lsa, qadriyatli, birinchi navbatda axloqiy xulqning buzilishi, boshqa tomondan, jamiyatning neytral munosabatlarida deviant xulq-atvor munosabatlarida yuzaga kelishiga olib keladi.

4.O'smirlarda deviant xulq-atvorning oldini olishga asosiy yondashuvlar

Turli deviant xulq-atvorning uzluksiz ravishda o'sishi jamiyat oldiga ijtimoiy me'yorlardan og'ishgan xulqli o'smirlar va yoshlar bilan olib boriladigan ishlarning shakl va usullarini, texnologiyalarini topish vazifasini qo'ygan. SHu sababli deviant va delinkvent xulq-atvorli o'smirlar bilan ishlashning ikki asosiy texnologiyalari, profilaktik va reabilitatsion ishlar fan va amaliyotda keng tarqalgan.

Profilaktika (oldini olish)-o'smirlar xulq-atvorida ijtimoiy xulqiy og'ishganlikning turli ko'rinishlariga asosiy sabab bo'luvchi sharoitlardan ogohlantirish, bartaraf qilish yoki neytrallashtirishga yo'naltirilgan davlab, jamiyatning ijtimoiy-tibbiy va tashkiliy-tarbiyaviy chora-

tadbirlarining yig'indisidir. O'smirlarda deviant xulq-atvorning oldini olishga qaratilgan bir necha yondashuvlari mavjud.

1. Axborotli yondoshuv. Bu yondoshuv ijtimoiy me'yordan xulqiy og'ishganlik kelib chiqishida voyaga etmaganlar (bu ijtimoiy me'yorlarni) bilmasliklari tufayli uni o'z asosiy yo'nalishi sifatida voyaga etmaganlarga bu me'yorlarga rioya qilish, o'z huquq va burchlari haqida axborot berishdan iborat. Davlat va jamiyat qo'ygan talablarini bajarishda bolalarning yosh ko'rsatkichiga mos qabul qilingan ijtimoiy me'yorlar haqida ma'lumot berishni ko'zda tutadi.

Bu ishni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televidenie)dan kino, teatr, badiiy adabiyot va boshqa san'at asarlaridan foydalanish mumkin.

2. Ijtimoiy-profilaktik yondoshuv. Bunday asosiy maqsad – negativ holatlarning sabablari va sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish, neytrallashtirishdan iborat. Voyaga etmaganlar tomonidan giyohvandlik moddalarini iste'mol qilinishi uchun jinoiy javogarlikka tortilishlari haqida ma'lumotga ega emaslar. Ular giyohvandlik – shaxsiy ish deb biladilar, faqat giyohvandlik moddalarini tarqatish jinoyat deb hisoblaydilar. O'smir giyohvandlik va kuchli ta'sir etuvchi psixotron moddalar to'g'risidagi yangi qonun qabul qilinishi munosabati bilan bu moddalarni iste'mol qiluvchilar ham jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Bizning jamiyatimizda o'smirlar o'rtasidagi alkogolizm-ichkilikbozlik profilaktikasi muammosi ham muhim o'rin tutadi. O'smirlar ichkilikbozlik va alkologizmning og'ir ijtimoiy va psixonevrologik oqibatlarini haqida ham bilmaydilar.

3. Tibbiy-biologik yondoshuv. Bu yondoshuvning mohiyati ijtimoiy me'yorlardan og'ishganlikning oldini olishda tibbiy-profilaktik xarakterdagi turli psixik nosog'lom shaxslarga munosabat-biologik darajada bo'lishi lozim. Agar insonda psixik (ruhiy) rivojlanishi, sog'lig'ida turli nuqsonlar bo'lsa, u o'z ruhiy xususiyatlariga asosan ma'naviy-axloqiy me'yorlarni buzishi mumkin. Bu holatda insonga uni o'zgartirib bo'lmaydigandek qaraladi. O'smirda bunday psixik nosog'lomlikni o'z vaqtida aniqlash juda muhimdir.

CHunki ular umuman hayolga kelmaydigan harakatlarni sodir etishlari mumkin. O'smir psixiatr mutaxassislar ko'rigidan o'tkazilib, shunga muvofiq tibbiy davo choralari ko'rilishi lozim.

4. Ijtimoiy-pedagogik yondoshuv. Bu yondoshuv mohiyati o'smirni deviantlik xulq-atvoridagi shaxsiy xususiyatlarini qayta tiklash yoki to'g'rilashdan iborat. Ayniqsa, uning axloqiy-irodaviy shaxsiy xususiyatlarini qayta tarbiyalash shart. O'smirlarda, ularning irodaviy xususiyatlari, xulq-atvorida quyidagilarni shakllantirish lozim:

- o'z so'zi va ishini egasi bo'lish;

- o'smirning jinoyatga boshlovchi, jamiyatga zarar etkazish kabi illatlarga bo'lgan qiziqish va harakatlarini to'xtatish;

- hozirgi davrda muhim bo'lgan masalalar bilan band qilish;

- huquqqa qarshi bo'lmagan, puxta o'ylab chiqilgan maqsadlarni qo'yish.

Erki bo'lmagan inson flyugerga o'xshaydi, shamol qay tarafga essa o'sha tomonga o'giriladi. Bunday insondan ijtimoiy me'yorlarni buzish, jinoyatchilikni kutish mumkin. Uni engillik bilan aldash, o'zgalarning so'zlariga quloq solishi. o'zga axloqiy qarash va baholarga og'dirish oson. O'zga axloqiy qarashlarga ergashib, u huquqbuzarlik va ahloqsizlik xulq-atvoriga ega bo'ladi. Bunday insonlarni tarbiyalashda jamiyat tomonidan unga erkinlik va huquqlarini berib, uni o'z-o'zini boshqara olishga o'rgatish zarur.

5. Saknsiyalarni qo'llash. Bu yondoshuv mohiyati huquqbuzarlik qilgan insonni jinoiy qonunlar asosida jazolash turadi.

Biroq, jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bu Samara bermaydigan holat bo'lib, jamiyat tomonidan qattiq sanksiya bo'lib hisoblanadi, xalos. SHu sababli ijtimoiy og'ishganlik sabablarini aniqlash va bartaraf etishda bu faqatgina yordamchi vosita bo'lib hisoblanadi.

5. Deviant xulq-atvorli o'smirlarga nisbatan ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya ishlari

Ijtimoiy pedagogning jamiyatga moslashagan, xulqiy og‘ishgan o‘smirlar bilan olib boradigan ish texnologiyasi ularni rehabilitatsiya qilishidir.

Reabilitatsiyani insonni jamiyatga muvofiqlashtirishga kiritadigan chora-tadbirlar tizimi sifatida qaralishi mumkin. Rehabilitatsiya yana inson shaxsi, uning jismoniy alohida psixikasining funksiyalariga ta‘sir etishning natijasi sifatida ham qaralishi mumkin. Adaptatsiya (moslashuvchanlik)dan farqli ravishda, rehabilitatsiya inson faoliyatini qayta tiklash deb tushuniladi. Rehabilitatsiya – bu bolani faol hayotga, jamiyatga va ijtimoiy foydali mehnatga qaytarish maqsadini ko‘zda tutuvchi chora-tadbirlar tizimidir.

Reabilitatsiyaning quyidagi turlari belgilangan: tibbiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy, kasbiy, maishiy.

1. Tibbiy rehabilitatsiya bola organizmida o‘z funksiyasini yo‘qotgan u yoki bu joyning to‘la yoki qisman qayta tiklanishi yoki boladagi rivojlanayotgan kasallikni sekinlashtirish imkoniyatini yaratishga yo‘naltirilgan.

2. Psixologik rehabilitatsiya o‘smir ruhiyati, ongiga deviant xulq-atvorning kerakmasligi, uni shaxs sifatida hech kim hurmat qilmasligini singdirishni maqsad qilgan.

3. Kasbiy rehabilitatsiya o‘smirni o‘qitish yoki unga to‘g‘ri keladigan mehnat turiga qayta o‘qitib tayyorlash, engallashtirilgan va ish kuni qisqartirilgan mehnat sharoitlari bo‘lgan ish joyi bilan ta‘minlash.

4. Maishiy rehabilitatsiya o‘smirning hayoti uchun me‘yordagidek sharoitning yaratilishini ko‘zda tutadi.

5. Ijtimoiy rehabilitatsiya – bu ijtimoiy muhitda bolaning hayot faoliyatini qayta tiklash jarayonidir. Shuningdek, qandaydir sabablar bilan shaxs hayot faoliyatining buzilishi, ijtimoiy muhitdagi cheklashlarga yo‘l quymaslikdir.

6. Ijtimoiy-iqtisodiy rehabilitatsiya – bu o‘smirning qonuniy, xuquqiy manfaatlarini himoya qilishga mo‘ljallangan mablag‘larni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

7. Ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya – bu bola hayot faoliyati uchun ahamiyatli bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xarakterdagi tarbiyaviy chora-tadbirlar tizimi bo‘lib, bolani jamiyatga muvofiqlashtiruvchi faol hayotiy holatga tortuvchi, o‘z-o‘ziga xizmat qilishda zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni egallashi, jamiyatda xulq-atvori bilan ijobiy ijtimoiy rollarni bajarish, zarur ta‘limni olish kabilarni o‘z tarkibiga oladi. O‘smirlarni ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilishda bu ishlarni reabilitatsion markaz deb ataluvchi ijtimoiylashtirilgan muassasalarda amalga oshiriladi. Bu muassasalarning vazifalariga:

- qarovsiz qolgan, daydi, jamiyatga moslasha olmaydigan bolalar va o‘smirlarda profilaktik oldini olish choralarini ko‘rish.

- Ota-onalarining ayblari bilan yoki kutilmagan vaziyatlar sababli (shuningdek, jismoniy, psixologik zo‘ravonlik, xavfli yashash joylari va boshqalar) og‘ir hayotiy vaziyatlarga tushgan bolalarga tibbiy-psixologik yordam ko‘rsatish

- Ijobiy ijtimoiy xulq-atvor tajribalarini, atrofdagi insonlar bilan muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish

- Ota-ona qaramog‘i yoki vositalar, yashash joyidan ajrab qolganlarni o‘z qaramog‘iga olish funksiyasining bajarilishi

- favqulodda vaziyatlarda psixik va pedagogik qo‘llab-qo‘vvatlash

- oilaga qaytishga hamkorlik qilish

- ta‘lim olish, me‘yordagidek o‘shishga imkoniyat bilan ta‘minlash.

- Kelgusi kasbiy va maishiy faoliyatga g‘amxo‘rlik qilish.

Bunday muassasalar asosiy faoliyat maqsadlari – yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-qo‘vvatlash, ularni rehabilitatsiya orqali hayotlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda yordam berish.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Nima uchun ijtimoiy pedagogikada “me’yor” va “me’yordan og‘ishganlik” tushunchalari ko‘rib chiqiladi?
2. “Ijtimoiy og‘ishganlik” tushunchasining mohiyati nimadan iborat?
3. “Deviant hulq”, “delikvent xulq”, “kriminal xulq” tushunchalari mohiyatini ochib bering.
4. Deviant hulqli o‘smirning asosiy sabablarini ayting va asoslab bering
5. Deviant hulqni ogohlantirish va oldini olishda axborotli ijtimoiy- profilaktik, tibbiy-biologik va ijtimoiy-pedagogik yondoshuvlarning xususiyatlari nimalardan iborat?

Adabiyotlar:

1. Zaxarov.I.A. “Kak predupredit otkloneniya v povedenii rebenka”. M, 1986
2. Azbuka nraavstvennogo vospitaniya. M, 1979
3. Antonyan.YU.Midr. Neblogopriyatnye usloviya formirovaniya lichnosti v detstve i voprosy preduprejdeniya prestupnosti. M, 1983.
4. Nishanova.S. Ma’naviyat darslari. T “O‘qituvchi”, 1994.

5-mavzu Alkogolizm deviantlik hulqini vujudga keltiruvchi shakli sifatida.

Reja:

1. Bolalar ichkilikbozligi – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida. Bolalar ichkilikbozligining sabab va oqibatlari Bolalarda spirtli ichimliklar ichishga (moyillik) berilish darajalari
2. Alkogol iste'mol qilishga moyil bo'lgan bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat yuritish tuzilmasi. Alkogol iste'mol qilishga moyil bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmuni
3. Alkogol iste'mol qilishga moyil bo'lgan bolalar yosh ko'rsatkichlariga ko'ra olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat xususiyatlari

Asosiy tushunchalar: alkogolizm, ichkilikbozlik, bolalar alkogolizmi.

Bolalar ichkilikbozligi – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida

bugungi kunda bolalar alkogolizmi eng jiddiy ijtimoiy-pedagogik muammolaridan biridir. Bu muammo madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ildizlarga ega. Bu muammoga qarshi kurashishda samarali chora-tadbirlar kurashda bu muammoning tarixini bilish muhimdir.

Spirtli ichimliklarni iste'mol qilish odati 8 ming yil ilgari vujudga kelgan. Arab kimyogari Albukazis Koza tomonidan ishlab chiqilgan turli o'simlik moddalarining achishi sababli hosil bo'ladigan etil spirti keng tarqalib iste'mol etila boshlandi. Aroq VI asrda kashf etilgan. Aroq benedektin-manaxi tomonidan barcha monastirlarda tarqatila boshlandi. Hokimlar hamma vaqt ichkilikbozlikka qarshi kurashib kelganlar. Spirtli ichimliklarni sotishni mann etuvchi qattiq qarorlar chaqarib, nazorat qilganlar. Ivan Grozniy, Boris Godunov, Ekaterina II lar davrida spirtli ichimliklarni iste'mol qilish va tarqatishga qarshi chiqargan farmonlari bu ichimliklarning to'la yo'qotilishiga erishilmadi va aholining ichkilikbozlik muammosi hal etilmadi. Bunga qator sabablar ham mavjud edi. Birinchisi – ichkilikbozlik odamlarni jamiyatda mavjud muammolardan chalg'ituvchi voqelik sifatida o'rin tutardi. Ikkinchi sabab – spirtli ichimliklarni sotishdan davlatga katta moddiy manfaat bor edi va mavjud. Sobiq Ittifoq davridagi statistik hisobotlarda, 1980 yil 1950 yilga nisbatan, 10,4 barobar ortiq spirtli ichimliklar ko'proq iste'mol qilingan. Bu ma'lumotga uyda tayyorlangan aroq, musallas va sharoblar kiritilmagan. Sotsiologlarning fikricha, jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, har yili jon boshiga 8 litr spirtli ichimligi to'g'ri keladi. Bu millatlarning genofondi o'zgarishiga olib keladi. Bu holatda sog'lom bolalarga nisbatan ruhiy, jismoniy og'ishgan, nosog'lom bolalarni spirtli ichimliklarga juda yosh davrlaridan va tez o'rganib qolishi juda xavotirli omillardandir.

Alkogolizmning bir necha belgilari mavjud. Tibbiy nuqtai nazardan *alkogolizm* surunkali kasallik bo'lib, davolanishi zarur. Ijtimoiy jihatdan *alkogolizm* - shaxsni deviant (xulqiy og'ishganlik) hulq-atvorining shakli bo'lib, shaxsni ijtimoiy degradatsiya¹²lash, spirtli ichimlikka qarshi davolash patologiyasi bilan xarakterlanadi.

Alkogolizm rivojlanishining boshlang'ich bosqichida insonalohida kasalmand ahvolga tushadi. Doimiy ravishda spirtli ichimliklarni iste'mol qilish natijasida kasallik rivojlanib ichkilikbozlik deb nomlanuvchi holatga olib keladi. Bu ikki ichkilikbozlik va alkogolizm holati bir-biri bilan o'zaro aloqador bo'lib, quyidagi holatlarga sabab bo'ladi: jinoyatchilik, huquqbuzarlik, ijtimoiy parazitizm (tanballik), ma'naviy ahloqsizlik, hulq-atvor buzqligi, o'z-o'zini o'ldirish. Bolalar alkogolizmiga 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlardagi kasallikning birinchi ko'rinishldari kiritiladi. Kattalarga nisbatan bolalar alkogolizmi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Spirtli ichimliklarga tez o'rganib qolish. Agar kattalarda ichkilikbozlikdan alkogolizmga bo'lgan davr 5-10 yil bo'lsa, bolalarda surunkali alkogolizmga o'tish 3-4 marta tezroq yuz berishi mumkin. Bu bolalar organizmining anatomik-fiziologik tuzilmasiga bog'liq.

¹² Деградация - (французча degradation) – доимий ёмонлашиш, оғирлашиш, тушиш, харакатнинг орқага кетиши

Bolalar miyasi kattalardan farqli ravishda, suvga boy, oqsilning kamligi, suvda esa alkohol yaxshi erishi va organizmga tez singishi, uning 7 % foizi faqatgina o'pka va jigarda qolishiga olib keladi. Qolgan 93 % barcha organ va tizimlarni ishdan chiqaruvchi zahar sifatida tarqaladi. Bola bu zaharga tezda o'rganib qolishiga olib keladi.

2. Kasallikning og'ir kechishi. Bu bola organizmining shakllanish bosqichida turganligi bilan organizmning asab tizimi alkohol ta'siriga qarshi kurasha olmasligi natijasida organizm va asab tizimini buzuvchi, og'ir tuzatib bo'lmaydigan jarayonga sabab bo'lishi bilan ifodalanadi.

3. Bola tomonidan alkoholni (katta) ko'p miqdorda iste'mol qilish. Bu bolalarning alkoholni iste'mol qilishi jamiyat tomonidan nazorat qilinadi, shu sababli ham bolalar yashirincha, birdaniga ko'p miqdorda iste'mol qilishga harakat qiladilar.

4. Ichkilikbozlikning tez rivojlanishi. O'smirlar istagan bo'lar-bo'lmas sabablar tufayli ichishni me'yoriy odat qilib oladilar, engil mastlik holatidayoq ular o'zlaricha ishonchsizlik holatini sezadilar. SHu sababli ular to'liq mastlik holatigacha ichishga intiladilar. SHundagina ichimlikni muvaffaqiyatli, to'liq darajali hisoblaydilar.

5. Davolashning kam samaraliligi. Voyaga etmaganlar o'rtasidagi ichkilikbozlik xulqiy og'ishganlik bilan uzviy bog'liqdir. O'smir uchun alkoholizmning eng asosiy xavfliligi shundaki, u o'z-o'zini nazorat qilish xususiyatini bo'shashtiradi. Ichkilikbozlik va jinoyatchilik o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik bir qator illatlarga sabab bo'ladi:

- Voyaga etmaganlar ko'pgina jinoyatlarni mast holatda sodir etadilar (22 % o'g'rilik, 76 % bezorilik, 6 % zo'ravonlik, 56% bosqinchilik). Ko'pgina zo'ravonlik holatlari (agressiv) mastlikda sodir etiladi. Bu holat – mastlik odatiy sharoitdagi ijtimoiy hulq-atvor ko'nikmalarining yo'qolishiga sabab bo'ladi;

- ko'pgina jinoyatlar spirtli ichimliklar sotib olish uchun mablag'ga ega bo'lish maqsadida sodir etiladi;

- ichkilikbozlik voyaga etmaganlarda ko'pgina jinoyatlarni sodir etishga intilish (kriminologiyada "mast motivatsiya" atamasi mavjud);

- ichkilikbozlik (kriminal) jinoyatchilik holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'ladi;

- ichkilikbozlik voyaga etmaganlarning jamiyatdan xulqiy og'ishgan tengdoshlari guruhlariga qo'shilishlarida vosita sifatida namoyon bo'ladi;

- ichkilikbozlik voyaga etmaganlarni jinoyatchilik faoliyatiga qo'shib qolishlariga sabab bo'lib, uni ko'pincha katta yoshdagilar tashkil etadi.

Bolalar alkoholizmining sabablari va oqibatlari

Bolalar turli mutaxassislar: tibbiyot xodimlari, pedagoglar, psixologlar turlicha baho beradilar. Alkoholizm sabablari va oqibatlari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan

Bolalar alkogolizmining sabablari va oqibatlari

Yosh ko'rsatkichlari	Sabablar	Oqibatlar
Ilk bolalik davri 0-3 yosh	1. Mastlikda hosil bo'lgan homila 2. Boshlang'ich 3 oy davrida homiladorlikdagi ichkilik ichish 2. Emizikli davrida alkogol iste'mol qilinish	1. Epilepsiya (tutqanoqlik), aqli norasolik; 2. Jismoniy rivojlanishdagi norasolik; 3. Ruhiy rivojlanishdagi norasolik
Maktabgacha va kichik maktab yoshi 3-9 yosh	1. Ota-onalarning pedagogik savodsizligi 2. Oilaviy alkogolizm an'analari	1. organizmning alkogol bilan zaharlanishi 2. spirtli ichimliklarga qiziqishning shakllanishi
O'smirlik va yoshlik davri 9-18 yosh	1. Nosog'lom oila 2. O'z-o'ziga bino qo'yish 3. Ommaviy axborot vositalarining pozitiv reklamalari 4. Bo'sh vaqtning ko'pligi 5. Alkogolizm oqibatlari haqida bilimning yo'qligi 6. Shaxsning psixologik xususiyatlari 7. Muammodan qochish	1. Alkogolga qiziqishning shakllanishi 2. Spirtli ichimliklarni iste'mol qilish odatining shakllanishi 3. Alkogolizmining hulqining stereotiplarini ishlab chiqish 4. Alkogoldan mastlik holatida huquqbuzarlik holatlarini sodir etish 5. Alkogoldan mastlik holatida huquqbuzarlik holatlarini sodir etilishining anglanmaganligi 6. Psixik muammollarni hal etishda alkogoldan doping sifatida foydalanish 7. Alkogolga bo'ysinib qolish

Fanda to'plangan ma'lumotlar homilador ayolning Fanda to'plangan ma'lumotlar homilador ayolning spirtli ichimliklar iste'mol qilishi qanchalik og'ir oqibatlarga olib kelishini ko'rsatadi. Bunda rivojlanayotgan homila bilan alkogolning qanchalik aloqador bo'lishi zarur moddalar bilan ta'minlanishi ona qornidagi homilani himoya pardasi orqali o'tadi. Biroq etil spirti va zaharni himoya parda to'sa olmaydi. Boshlang'ich 3 oy mobaynida, homiladorlikda homilaning ichki organ va sistemalari shakllanish jarayoni sodir bo'ladi. Homilaning alkogol bilan zaharlanishi turli norasolik va nuqsonlarga sabab bo'ladi. Homila alkogoldan umuman himoya etilmasligi tufayli uning miyasiga zarar etkazadi. SHu sababli bosh miyada suv to'planishi, shishlar, grijalar bilan og'rikan bolalar dunyoga keladi.

Bunday bolalar ilk bolalik davrida yoki nobud bo'ladilar yoki butun umrga aqliy noraso bo'lib qoladilar.

Ikkinchi bosqich maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bosqich. Bu bosqichda ikki sabab bo'lib, ota onalarning pedagogik savodsizligi va oilaviy hamda maktab an'analari hisoblanadi. Pedagogik savodsizlik ota onalar alkogolni (dori darmon) shifoviy modda deb hisoblaydilar. Alkogol ishtahani kuchaytiradi, kamqonlikni tuzatadi, uyquni yaxshilaydi, Tish chiqishini osonlashtiradi. Ota-onalar bolalarga yoshlik davridan spirtli ichimlikni kichik miqdorlarda ichirib turilishi katta bo'lganida alkogolga berilib ketishi oldini oladi degan fikrlar yuradi.

Bolalarning ichkilikbozlikka odatlanishiga yaqin qarindoshlarining spirtli ichimlik iste'mol qilishlari hamda oilaviy an'analari sabab bo'ladi (tantanali, xursandchilik yoki yomon kunlarda spirtli ichimliklar ichishlar). Bunday bayram kunlarida bolalarga ham spirtli ichimliklar quyib

beradilar. Bunday oilalarda spirtli ichimliklar ichish yomon hisoblanmaydi, bolalarni spirtli ichimlik ichishlari esa tashvish tug'dirmaydi. Bolalar ichkilikbozlik odatlarini spirtli ichimlik ichishga boshlashdan ancha avval bilib oladilar.

Bolalar o'yinlarida kattalarga taqlid qilib qadah so'zlari gapiradilar, bakallarni urishtiradilar, ularning mast holatlarini o'xshatadilar, kichik yoshdagi maktab bolalarida alkogol tantanalar va uchrashuvlarda doimiy odatiy hol degan tasavvur paydo bo'ladi.

Alkogolning o'zi gendan o'tmasligi, faqatgina ota-onalaridan olgan xarakteri xususiyatlaridan kelib chiquvchi unga moyilligini o'tishi biologik tekshirishlar bilan isbotlangan. Bolalarda ichkilikbozlikning rivojlanishida ota-onalarining yomon odatlari, oilada ichkilikbozlik holatlari asosiy rol o'ynaydi.

Uchinchi bosqich o'smirlik va yoshlik davrlari. Asosiy sabablar qilib quyidagi ettitasini ko'rsatish mumkin: oilaviy sharoitlar yomonligini; ommaviy axborot vositalarida pozitiv reklamalar; bo'sh vaqtda hech bir ish bilan shug'ullanmaslik; alkogolizm oqibatlarini bilmasligi; muammolarni hal etish bilan shug'ullanmasligi; psixologik xususiyatlari; o'zini tashkil toptirish.

Bu davrda alkogolga berilishi yuzaga kelishi sodir bo'ladi, bu berilish odatga aylanadi, bu odat esa ko'pchilik hollarda alkogolga qaram bo'lib qolishi hollariga olib keladi.

Alkogol oilada noxush holat ko'rsatkichi sifatida

Bolalarni ma'naviy tarbiyalash va rivojlantirishning muhim shartlari oilaviy munosabatlarning ma'naviy-emotsional tomonlari hisoblanadi. Boshqa oilalarga nisbatan bolalar ko'proq spirtli ichimlik iste'mol qilishni boshlaydigan oilalarning bir necha turlari mavjud:

1. Janjalkash oilalar, bunda oilaviy munosabatlar dushmanlik, raqiblik, yakkalanish, oila a'zolari orasida keskinlik ko'rinishida mavjud bo'ladi. Oila a'zolari bir-birlarini yomon xususiyatlarini ko'rsatib ayblaydilar va bir-birlariga yomon niyatda bo'ladilar. Qandaydir bir yon bosishga erishish uchun bolalar spirtli ichimliklar iste'mol qila boshlaydilar.

2. Alkogol o'zini namoyon qilish vositasi sifatida. O'smirlar ichkilikbozliklarining sabablaridan biri – bu kattalarga o'xshashni istashdir. Spirtli ichimlik ichishni bunday o'smirlar mardlik va dovyuraklik, mustaqillikdan belgi deb hisoblaydilar. Ma'naviy cheklanganligi, maktab jamoasida o'zini namoyon eta bilmaslik bunday o'smirlarni spirtli ichimlik ichishga, ko'chadagi o'rtoqlari orasida o'zini ko'rsatishga majbur etadi.

3. Alkogol reklama sifatida. Spirtli ichimliklarni ichishni kino, televidenie, reklamalarda ommalashtirish spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga o'smirlarni qiziqtiradi. AQSH lik sotsiologlar spirtli ichimlik ichadigan kinoqahramonlar namunasi (ular asosan ijobiy rollarni o'ynaydilar) o'smirlarni ichkilikbozlikka jalb etishning eng ta'sirli usulidir.

4. Alkogol vaqtni o'tkazish vositasi sifatida. Maktabdan tashqari bolalar va o'smirlar muassasalari sonining kengayib ketishi turli xil ta'lim xizmatlari uchun to'lanadigan narxlarning qimmatligi (musiq, raqs va boshqalarga o'rgatish) ko'pchilik o'smirlarning bo'sh vaqtlari ko'p bo'ladi. Foydali ish bilan shug'ullanmaydigan o'smirlar ko'chalarda to'dalarga qo'shilib odatda spirtli ichimliklari icha boshlaydilar.

5. Alkogol me'yordagidan psixik kamchiliklari o'rnini to'ldiruvchi vosita sifati. Bolalarda alkogolizmini rivojlanishiga ko'pincha psixik sog'lomligidan kamchiliklari yoki ijtmoiy moslashishiga xalaqit qiluvchi jismoniy sog'lig'idagi kamchiliklar sabab bo'ladi. Nuqsonning paydo bo'lishi sababidan qat'iy nazar (tug'ma kamchilikmi, psixik kasallanishmi) bolada atrofdagilar bilan munosabatlar buziladi, o'ziga noto'g'ri baho berish yuzaga keladi. Bunday hollarda alkogol bola shaxsidagi mavjud moslasha olmaslikni silliqlashga imkon beruvchi, o'rnini to'ldiruvchi omil hisoblanadi, uning tengdoshlari orasiga qiynalmasdan kirib borishini ta'minlaydi.

6. Alkogol hayoliy haqiqat sifatida. Ba'zi bir o'smirlar o'zidagi mavjud keskinlikni yo'qotish, yomon tashvishlardan ozod bo'lish maqsadida spirtli ichimlik iste'mol qiladilar. Keskin vaziyatlar oilada yoki maktab jamoasida begonalashib qolishi sababli yuzaga kelishi mumkin.

O'smirda dunyodagi hamma hayotiy tashvishlarni spirtli ichimlik ichib hal qilish mumkin degan fikr paydo bo'ladi.

Alkogolizmning oqibatlari

1. Ijtimoiy-iqtisodiy (o'qishni tashlab ketish, ishlab chiqarish mahsuldorligini keskin pasayishi, ishlab-chiqarish va maishiy jarohatlar sonining oshib borishi, turli xil alkogolizmga qarshi chora-tadbirga harajatlar sarflash).
2. Ijtimoiy-psixologik (oilaviy, maktab, mehnat yoki boshqa ijtimoiy-ijobiy aloqalarining uzilishi, shaxsning ma'naviy va ruhiy barbod bo'lishi, mikromuhitda ma'naviy-psixologik vaziyatning yomonlashishi).
3. Kriminal (jinoiyatlar sodir etish, boshqa odamlar bilan jinoiy faoliyatlarga qo'shilib ketish, kriminalizatsiya va viktilizatsiya¹³ yuzaga kelishi uchun qulay vaziyatlar yaratilishi).
4. Jismoniy (alkogol iste'mol qilgan aniq bir shaxsning o'zigina emas, balki kelajak avlod sog'lig'i uchun ham zarar keltiriladi).

Spirтли ichimlik ichishga bolalarning (moyillik) berilish darajalari

Katta sinf o'quvchilarining spirтли ichimliklar iste'mol qilishlari jarayonini o'rganib chiqqan olim-fiziologlarning tekshirishlariga tayanib ettita darajalarini ko'rsatish mumkin.

Bolalarning spirтли ichimlik ichishga berilish darajalari

Bosqich nomi	Sabablari
1. Nolinchi daraja	--/--
2. Boshlang'ich daraja	• Kattalar dunyosiga qo'shilish • "hamma kabi bo'lish"
3. Alkogolni ba'zan iste'mol qilib turish	• kayfiyatni ko'tarish • o'ziga ishonchini oshirish • o'z ko'rinishini yaxshilash
4. Yuqori darajasi	• organizmni quvvatini oshirish • erkin xis etish • do'stlari orasida vaqtni xursandchilikda o'tkazish
5. Yaqqol psixik qaramligi	• hayot tashvishlaridan vaqtinchalik chalg'ish • o'ziga ishonchini oshirish
6. Jismoniy bog'liqlik	• o'zini yomon xis etishini yo'qotish • avvalgi ichganlari ta'sirida • hayot tashvishlarini esdan chiqarish uchun • hayotiy kuch-quvvatini oshirish uchun
7. Shaxsning alkogolizm bilan buzilishi	• kasalmand holatini yo'qotishga intilish

Nolinchi darajasi o'zining shaxsiy fikri bo'yicha sog'lom hayot kechirishga intiluvchi hech qachon spirтли ichimlik ichmagan balog'at yoshiga etmagan bolalarni ifodalaydi. Spirтли ichimliklar ichishdan bosh tortish sabablari: spirтли ichimliklarning organizmga, o'zini xis etishiga va hулqiga yomon ta'sir ko'rsatishiga ishonishi.

Boshlang'ich bosqichida spirтли ichimliklarini alohida hollarda yoki judakam hollarda iste'mol qiladilar

Alkogolni iste'mol qilganda o'zini yomon xis qiladi, spirтли ichimliklar yoqmaydi. Alkogolni iste'mol qilish sabablari quyidagilardan iborat: kattalar dunyosiga qo'shilish, hamma kabi bo'lish, bu bosqich odatda 2-3 oy davom etadi.

¹³ Викилизация (лотинча victime-i???он) – ижтимоийлашиши учун но?улай шароит, вазиятлар, Бунинг о?ибатида инсон ?урбон б?либ ?олади

Vahti-vaqti bilan spirtli ichimlik ichish alkogoli bor turli ichimliklarni ichib ko'rib bilan ifodalanadi. Kichik miqdordagi spirtli ichimliklar eyforiyani keltirib chiqaradi. Alkogolni iste'mol qilish sabablari: kayfiyatni ko'tarish, o'ziga ishonchini oshirish, kommunikabelligini ko'tarish, bu davr 3-4 oy davom etadi.

YUqori xavfli darajali davri ichkilik ichish uchun odatda sabablari ko'payib borishi bilan ifodalanadi, odatda. oyiga ikki marotabadan ko'proq. Sabablari: o'zini tetik xis etish yoki erkin xis etish uchun, do'stlari bilan vaqtini xursandchilikda o'tkazish uchun. Bu davrning davomiyligi 4-12 oydan iborat. Bu bosqichda alkogolni iste'mol qilishga faol intilishi namoyon bo'ladi, uning ta'sir kuchini tushunib oladi. Alkogol ta'siri ostida o'smirlarda faqatgina yaxshi kayfiyat paydo bo'libgina qolmay, balki faolligi va tajovuskorligi ham oshadi. O'smirlar o'zlaridan bir necha yosh katta bolalar bilan aloqalar o'rnatadilar.

Kattalardan mast holatlarini yashirishga o'rganadilar. Bu bosqichda spirtli ichimliklarga odatlanib qoladi, lekin hali bog'lanib, qaram bo'lib qolgan emas.

Alkogolga yaqqol psixik bog'lanib qolganligi darajasi. Alkogoldan mast bo'lish o'smirlarning juda yoqtiradigan psixik holatiga aylanib qoladi va ulardan bolalar kayfiyatini, hulqini boshqaruvchi sifatida foydalanadilar. Sabablari: vaqtinchalik hayot tashvishlaridan chalg'ish, o'ziga ishonchini oshirish. Psixik bog'lab qolish 1,5 yil davomida yuzaga keladi. Bu bosqichda alkogolga psixik qaram bo'lib qolishi shakllanadi. Spirtli ichimlik iste'mol qilish kunlik sur'ati ortib boradi.

Alkogol ichishga intilish endi faqatgina kechki paytlarda emas, balki butun kun davomida davom etadi, shu bilan birga sutkalik me'yori ortib boradi. Spirtli ichimlik iste'mol qilishni to'xtatgan paytlarida jahldor, ta'sirchan bo'lib qoladilar. Ularning kayfiyatlari tez o'zgarib yomonlashadi, ko'pincha janjalkashlik va jahldorliklari namoyon bo'ladi. Ular kichik bolalarni spirtli ichimlik ichishga jalb qiluvchi bo'ladilar. Bunday hollarda pedagogik va tarbiyaviy ta'sirlardan tashqari tibbiy choralar – narkologga murajjat etish va davolash zarur bo'ladi.

Alkogolga jismoniy bog'lanib qolish darajasi. Spirtli ichimlikka juda o'rganib qoladi, boshi og'rib, xumor qiladigan bo'lib qoladi, alkogolni iste'mol qilish miqdori nazorat qilinmaydi. Jismoniy bog'lab qolishlik spirtli ichimlik iste'mol qilganida 3-5 yil davomida yuzaga keladi. Bu davrda alkogolga psixik va jismoniy bog'liqligi kuchayishi sodir bo'ladi. YAqqol ifodalangan bosh og'rig'ini yo'qotish sindromi paydo bo'ladi. Bosh og'rig'i paytida kayfiyati yomonlashishi, xafa bo'lishi, ko'ngli bo'shashib ketishi, organizmi fiziologik vazifalarining buzilishi kuzatiladi: tez terlab ketadi, qo'llari qaltiraydi, yura kurushi tezlashadi. Bu bosqichda shaxsning patologik xususiyatlari tez shakllanadi, u ta'sirchan, jahldor, tajang, qo'pol, beraxm bo'lib qoladi. Intellektual rivojlanishi sekinlashadi. Bolalar tez-tez mashg'ulotlarni o'tkazib yuboradilar, yomon o'qiydilar. Ba'zan uylaridan ketib qolib daydib yuradilar. Bu bosqichda darhol kasalxonada davolash kerak bo'ladi.

SHaxsning alkogolik buzilish darajasi surunkali ichkilikbozlikning rivojlanishi bilan ifodalanadi, spirtli ichimlikka chidamliligi pasayadi. OGir jismoniy bog'liqligi shunchalik kuchliki, u alkogoldan psixik bog'liqlikdan ham ustun bo'ladi. Sabablari: yomon ahvolini tuzatishga harakat qilish. Bunday holatda darhol kasalxonada davolash zarur bo'ladi.

Alkogol iste'mol qilishga moyil bo'lgan bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat yuritish tuzilmasi

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat – bu aniq bir bolaga uning individual muammolarini hal etish uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan faoliyatdir.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat quyidagi prinsiplarga tayanadi:

- bolaga individual-shaxsiy yondoshish
- bola shaxsining ijobiy tomonlariga e'tiborni qaratish
- bolaga yondoshishning ob'ektivligi
- konfedsialligi¹⁴

¹⁴ кофиденциал (лотинча confidential - ишониш) – ишонувчи, овоза қилинмайдиган, махфий

ijtimoiy-pedagogik faoliyat har qanday boshqa faoliyat kabi o'z tuzilishiga ega va quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan: maqsad, sub'ekt, ob'ekt, funksiyalari, metodlari, shakllari, spirtli ichimlik ichishga odatlangan bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat olib borishning tuzilishi har bir tarkibiy qismi mazmuni bilan tanishib chiqamiz.

Birinchi - tashkiliy qismi. Alkogolizmga odatlangan o'smirlar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyatning maqsadi bolalarda alkogolizmni rivojlantirishga imkon beruvchi salbiy omillarni yo'qotishga qaratilgan.

Birinchi omil – individual psixologik hisoblanadi, bu shaxsiy xislatlari buzilishiga, sabablilik doirasining zararlanishini o'z ichiga oladi. O'smirning munosabatlar ko'nikmalari rivojlanmagan, pedagogik qarovsiz, psixik rivojlanishi (ZPR) ortda qoladi.

Ikkinchi omil – individual-somatik – spirtli ichimlik ichishga odatlangan bolada nasliy somatik kasalliklar bo'ladi, ular jismoniy kasalliklar rivojlanishdan ortda qolishga olib keladi.

Uchinchi omil – ijtimoiy-maktabdan tashqari, bu kattalar tomonidan bola huquqlari buzilishini, bola qarovsiz qolganini yoki kattalar bolani haddan tashqari qattiq tarbiyalash bilan shug'ullanishlarini anglatadi, yoki bolani noqonuniy harakatlarga jalb etadilar, oilaning ijtimoiy mavqei past, oilaviy o'zaro munosabatlar yomon bo'ladi.

To'rtinchi omil – ijtimoiy maktab, ya'ni sinfdagi yomon ta'sir qiluvchi psixologik muhit, o'quv guruhining (sinfnig) past ijtimoiy mavqei. Bu omillar bolaga ta'sir ko'rsatadi, unda spirtli ichimliklarga bog'lanib qolishni rivojlantiradi. SHuning uchun, ijtimoiy-pedagogik faoliyat bolaning ijtimoiylashishini qiyinlashtiruvchi omillarni yo'qotishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning maqsadlarini quyidagi vazifalarni hal etish bilan amalga oshirish mumkin:

1. Ma'lum bir o'smirda faol yordam ko'rsatish va himoyalash usullarini yaratish.
2. O'smirda ijobiy qadriyatli yo'nalishlar shakllantirish
3. O'smirni ijtimoiy-foydali faoliyatga jalb etish.
4. Faol shaxsni tarbiyalash. Unga fuqarolik, oilaparvarlik sifatlarini rivojlantirib, o'ziga to'g'ri baho berishini shakllantirib tarbiyalash kerak.
5. Bolaning jismoniy va psixik sog'lomligini mustahkamlab borish.
6. Bolaning huquqiy madaniyati asoslarini shakllantirish.
7. Qiyin vaziyatlarda yo'l topa bilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Ikkinchi tarkibiy qism – bu uning sub'ekti. Faoliyat sub'ekti ijtimoiy-pedagogik hisoblanadi, lekin undan tashqari maxsus ishlar bo'yicha mutaxassislar ham valeolog¹⁵, psixolog va ota-onalar jalb etilishi mumkin.

Uchinchi tarkibiy qismi – bu ob'ektdir, butun ijtimoiy-pedagogik faoliyat tashkil etiladigan ob'ekt. Faoliyat ob'ekti alkogolizm jarayoniga turli darajalarda berilgan bolalar hisoblanadilar.

To'rtinchi tarkibiy qism – faoliyat vazifalari, bu vazifalarni faoliyat sub'ektlari bajaradilar: ijtimoiy-pedagog, ijtimoiy ishlar bo'yicha mutaxassis, valeolog, psixolog, ota-onalar.

Ijtimoiy-pedagogning faoliyati vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy-pedagogik- ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni yo'lga quyishda bolaga va oilaga yordam ko'rsatish, bolaning rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy muhit yaratish.
2. Ijtimoiy-o'qitish vazifalari – bolaga ichkilikbozlik muammolari haqida bilimlarni egallab olishga yordam ko'rsatish hamda ichkilikbozlikka berilish jarayoniga qarshi turish ijtimoiy mahoratlari va ko'nikmalarini egallashiga yordam ko'rsatish.
3. Huquqiy-himoyalash vazifalari, bu vazifa alkogolizmga berilgan bolaning huquqlarini himoya qilishni va rioya qilishni ko'zda tutadi.

Ijtimoiy ishlar bo'yicha mutaxassis quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) Ijtimoiy turmush – oila va bolaga turmush, tura rjoy sharoitlarini yaxshilashda yordam ko'rsatish va qullab-quvvatlash.
- 2) Ijtimoiy-iqtisodiy - spirli ichimlik ichadigan bola yashaydigan oilaga moddiy yordam ko'rsatishda ishtirok etishini ko'zda tutadi.

¹⁵ valeолог (лот. Vale - соl бгл) – болалар соғлом турмуш тарзига ўргатувчи мутахассис

Valeolog ijtimoiy-tibbiy vazifalarni bajaradi, bu spirtli ichimlik ichadigan bola sog'lig'ini saqlash bo'yicha ishlarni ko'zda tutadi.

Psixolog ijtimoiy-psixologik vazifalarni amalga oshiradi, bu ishlar turli xildagi testlardan o'tkazishni, bola va ota-onalarga maslahatlar berishni ko'zda tutadi. Bolaning ota-onalari bola shaxsi shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishlari kerak.

Faoliyatning beshinchi tarkibiy qismi metodlar hisoblanib, ular uning turli sub'ektlari faoliyatlariga, bolaning yoshi xususiyatlariga, uning alkogolizm jarayoniga berilganliklari darajasiga bog'liq bo'ladi.

Faoliyat tuzilishining oltinchi tarkibiy qismi - aniq metodlarga binoan belgilanadigan metodlarni amalga oshirish shakllari.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ushbu texnologiyasi kompleks hisoblanadi, chunki bir maqsadga erishishga harakat qiluvchi turli mutaxassislarni ishlarini birlashtiradi.

Alkogol iste'mol qilishga odatlangan bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmuni

Spirtli ichimlik ichishga odatlangan bola bilan ishlashda ijtimoiy pedagogning faoliyatida asosiy yo'nalishlarini ko'rsatish mumkin:

1. Bolaning ijtimoiy moslashishi darajasini oshirish bo'yicha faoliyat.
2. Alkogolizmni oldini olish bo'yicha faoliyat.
3. Ota-onalarga bilim berish bo'yicha faoliyat
4. Bolalar ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo'yicha faoliyat
5. Muhitga moslashtirishga to'siq bo'lgan vaziyatlarni yo'qotish bo'yicha bola va uning atrof-muhiti o'rtasidagi vositachilik faoliyati.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat ijtimoiy pedagog tomonidan quyidagi asosiy vazifalarni bajarishini ko'zda tutadi.

Birinchi vazifasi – diagnostika qilish. Bu faoliyat bolalarni spirtli ichimliklarga o'rganishlari xavfi omillarini yo'qotishga qaratilgan. Bu vazifa spirtli ichimlik iste'mol qilishga odatlangan bola haqida ma'lumotlar to'plash yo'li bilan amalga oshiriladi. Pedagog bolaning xususiyatlarini o'rganadi, uning oilasi haqida ma'lumotlar to'playdi, bolaga yomon ta'sir ko'rsatish manbalarini o'rganadi, spirtli ichimlik ichishga o'rgatuvchilarni aniqlaydi, mikromuhitning bolaga ta'sirini o'rganadi.

Ma'lumotlar to'plash bolaning o'zi bilan. Uning ota-onalari. Sinf rahbari bilan suhbatlar, so'rovlar (og'zaki yoki yozma ravishda) amalga oshiriladi. Bundan tashqari standartlashtirilgan intervyu olish, kuzatish, oila va bolaning hujjatlarini o'rganish usullarini ham qo'llaniladi.

Ikkinchi vazifasi – taxmin qilish, uning mazmuni pedagog birinchi vazifasi asosida pedagog alkogolizmga berilgan bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat dasturini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Uchinchi vazifasi – ta'lim-tarbiyaviy. Bu faoliyat ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmunini hamda uni amalga oshirish metodlarini tanlashni ko'zda tutadi. Pedagog bolaning ijtimoiy-reabilitatsiyasi jarayonida uning qaysi sifatleri tarbiyalanishi kerakligini aniqlaydi, bolaning ta'lim va tarbiyasidagi kamchiliklarini yo'qotadi.

To'rtinchi vazifasi - huquqni himoya qilish. Pedagogik o'z faoliyatini huquqiy asosda qurishi kerak, bu bolaning huquqlarini himoya qilishni hamda ularga rioya qilishni bildiradi.

Beshinchi vazifasi – tashkilotchilik. Bu bola bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat olib borishda turli mutaxassislarning ishtiroki va birgalikda ishlarni olib borishlarini talab etadi.

Oltinchi vazifasi – kommunikativ. Uning mazmuni ijtimoiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ma'lumotlar almashish maqsadida uning ishtiroklari o'rtasida ko'plab aloqalar o'rnatilishi zaruriyati yuzaga kelishidan iborat bo'ladi.

Ettinchi vazifasi – oldini olish – profilaktik, bu faoliyat olingan yaxshi natijalarni mustahkamlash va ichkilikbozlik va alkogolizmning takrorlanishi mumkinligini yo'qotishni ta'minlaydi.

O'zining faoliyatida ijtimoiy pedagog uchta asosiy rollarda ishtirok etadi:

- maslahatchi sifatida, u ota-onalar va bolalar o'rtasida janjalsiz, tortishuvsiz, kelishib munosabatlarda bo'lish muhimligi va mumkinligi haqida oilaga ma'lumotlar beradi.
- konsultant rovida, oilaviy, mehnat, boshqaruv va jinoiy qonunchilikni hamda psixologik, pedagogik, ijtimoiy pedagogik masalalarini tushuntiradi.
- ota-onalar yoki yaqin atrofidagilari tomonidan bolaning huquqlari buzilgan hollarda himoyachi sifatida harakat qiladi.

Alkogol iste'mol qilishga moyil bo'lgan bolalar yosh ko'rsatkichlariga ko'ra olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat xususiyatlari

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar

Bir yoshdan etti yoshgacha bo'lgan bolalarda odatlari yuzaga kelishida, uning hayotiy yo'nalishlari shakllanishida ota-onalar katta ta'sir ko'rsatadilar. SHuning uchun ijtimoiy pedagogning faoliyati birinchi navbatda bolaning oilasi (uning ota-onalari bilan) hamda bolaning o'zi bilan ishlashdan tashkil topadi.

Bolaning bu yoshda spirtli ichimlik ichish istagi ko'p hollarda kattalarga taqlid qilishdan iborat bo'ladi.

Agarda bu davrda bolada yomon odatlar paydo bo'lib, ularning orasida alkogolni iste'mol qilishni ma'qullaydiganlari mavjud bo'lsa, unda 7 yoshiga kelib ular to'la shakllanadi. Bu yomon odatlarni tuzatish, yo'qotish juda qiyin bo'ladi.

Ota-onalar bilan ishlash ikki yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Oila a'zolari o'rtasida munosabatlar madaniyatini shakllantirish. Faqatgina munosib oilaviy munosabatlar mavjudligidagina ma'naviy alkogolga qarshi ko'rsatmalarni shakllantirish mumkin.

2. Bolaning sog'lom hayot faoliyati muxitini yaratish, bu unda alkogolga va spirtli ichimliklar iste'mol qiluvchi odamlarga nisbatan salbiy munosabatlarni yuzaga keltirishni, bu holatni ma'naviy qoralashni o'z ichiga oladi.

Bola bilan ishlar olib borishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

1) Kichik yoshdagi maktab o'quvchisida o'kishga intilishni shakllantirish (bola spirtli ichimlik iste'mol qilishga odatlanganda odatda maktabda o'qishida jiddiy muammolar yuzaga keladi va o'qishni istamaydi qoladi).

2) Irodasi, o'z qadr-qimmatini xis etish kabi shaxsiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish

Ishlash metodlari: yorqin emotsional hikoya qilish, namoyish etish, ko'rsatib berish, syujetli-rolli o'yinlar

O'smirlar

O'smirlik davrida, 11 yoshdan boshlab, kattalar bolalarga o'z ta'sirlarini yo'qota boshlaydilar va o'z tengdoshlari bilan munosabatlar katta ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. O'smirning ijtimoiy mavqei qanchalik past bo'lsa, uning guruhga ta'siri shunchalik past bo'ladi. SHuning uchun u o'zi istamagan ijobiy harakatlarni amalga oshiradi. O'smir guruhdagi qoidalar uchungina shunday yo'l tutadi. SHuning uchun bu yoshda ijtimoiy pedagog ishida asosiy e'tiborni quyidagi yo'nalishlarda guruhlar bilan ishlashga qaratishi shart:

1. Alkogolizm sabablari va oqibatlarini oldini olish. Bu ishni alkogolizm bilan bog'liq mavzuda guruhli munozaralar yoki roli o'yinlar o'tkazish yordamida amalga oshirish mumkin.

2. O'smirlarni bo'sh vaqtlarini tashkil qilish, chunki mazmunsiz vaqtni o'tkazish o'smirlarning spirtli ichimliklar iste'mol qilishlari rivojlanishi xavfi asosiy omili hisoblanadi.

3. O'smirda alkogolga qarshi ishonchini shakllantirishga qaratilgan alkogolga qarshi tarbiyalash.

4. Maktab pedagogik jamoasiga alkogolizmga qarshi bilimlar berish. Alkogolga qarshi tarbiya elementlarini maktab doirasida fanlarga kiritish mumkin. Masalan, "Davlat va huquq asoslari" faniga "alkogolizmga berilib ketish oqibatida ota-onalik huquqlaridan mahrum etish" mavzusini kiritish mumkin; "Tarix" faniga "Qoloq xalqlarni ularni qul qilish maqsadida

kolonizatorlar tomonidan spirtli ichimlik berib mast qilishlari” mavzusini va boshqalarni kiritish mumkin.

5. Ijtimoiy pedagogning vositachilik faoliyati – bu oldini olish ishlariga faqatgina o‘kuvchilarning ota-onalarini emas, balki militsiya xodimlarini, rayon poliklinikasi shifokorlarini, jamoatchilikni ham jalb qilishdan iborat bo‘ladi.

6. O‘smirning ijtimoiy-pedagogik qarovchizligini bartaraf qilish. Bunday qarovsizlik so‘z boyligi kamligi, atrof Dune haqidagi bilimlarining etarli emasligi, ko‘pchilik ko‘nikmalar (hisoblash, o‘qish, yozish va boshqalar) yaxshi o‘zlashtirilmaganligi ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi.

Yoshlik

O‘smirlardan farqli ravishda yoshlik davrida, 15-17 yoshida tengdoshlari guruhiga emotsional bog‘liqligi kam darajada ifodalanadi. individualligini ifodalovchi hulqi usuli birinchi o‘rinda bo‘ladi.

Ijtimoiy pedagog katta sinf o‘kuvchilari bilan individual ishlashga e‘tiborini qaratishi kerak:

1. Individual konsultatsiyalar o‘tkazish.
2. Shaxsni ijtimoiy o‘qitish, bu spirtli ichimliklarni iste‘mol qilish bilan bog‘liq xavflarni tasavvur etishni o‘z ichiga oladi.

6- Mavzu: Giyohvandlik – bolalarda deviantlik xulqi vujudga kelishi shakli sifatida Reja

1. Giyohvandlikning paydo bo'lish tarixi
2. O'smirlar giyohvandligi ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.
3. O'smirlar giyohvandligi xususiyatlari.
4. Giyohvand moddalar turlari.
5. O'smirlar giyohvandligining sabab va oqibatlari.
6. O'smirlar giyohvandligining rivojlanish bosqichlari (darajalari).

Статистик маълумотларга кўра Россияда гиёхвандликка берилган сони 7% дан ошиб кетган 10 миллион кишини ташкил этади (бундан 4 млн. ёшлардир). Гиёхвандликнинг ўсиб бориши СПИД муаммосини кескинлаштиради. Ҳар куни ер юзасида 6 минг киши СПИД билан касалланади, улардан 70% наркотик моддаларни қон томирига юбориши сабабли касалланади.

Paydo bo'lish tarixi.

1805 yili aptekachi Zertyuner opiumning 1 alkaloidini ajratib oladi va unga uyqu yunon xudosi Morfey sharafiga “morfey” deb nom beradi. 1853 yili Edinburglik vrach Aleksandr Bud teri ostiga dori yuborishi uchun ninani ixtiro qiladi. Bundan keyin narkotiklarni inson organizmiga qon tomiri orqali yuborila boshlandi va bu xolat yangi muammolarni keltirib chiqaradi. XVIII asrga kelib narkotiklarni iste'mol qilish siyosiy tus oldi. Narkotiklarni ommaviy iste'mol qilish bir davlatning ikkinchisini o'ziga buysundirish maqsadi bilan bog'liq edi.

Giyoxvandlik tushunchasi. "Giyoxvandlik" deganda, eyforiya xolatini keltirib chikaruvchi moddalarga ishtiyok tushuniladi. Eyforiya xakikiy axvolga mos kelmagan xolda kayfiyatning ko'tarinki bulishidir. Giyoxvand moddalarni iste'mol kilish nafakdg aloxida shaxsga, balki jamiyatga xam zarar keltiradi.

Ijtimoiy tibbiy soxdda giyoxvand moddalarni iste'mol Kilishnish ikki turi mavjud:

1. Giyovxand moddalarni iste'mol kdlishni o'z ixtiyori bilan chek kuyishi mumkin bulgan xolat,
2. SHu ishni kilishga kurbi etmaydigan xolat.

Giyoxvandlikni ijtimoiy pedagogik yunalishda urganish, uni giyoxvandlikka jismoniy yoki ruxiy tobelik bilan xarakterlanadigan deviant xulk-atvor shakli ekanligini aniklash mumkin. Bu tobelik bolani jismoniy va ruxiy xrlsizlanishga xamda ijtimoiy dezadaptatsiyaga olib keladi.

Giyovxandlikning turlaridan biri taksikomaniya xisoblanadi. Taksokomaniyada giyovxand modda urniga, organizmga benzin, kerosin, buyokdar kabi maishiy kimyo vositalar xidlanadi.

Taksokomanlar, odatda, 13—14 yoshli o'smirlar bulib, ular uz organizmlarining zaxarlanishi okibatlarini tushuna olishmaydi. Taksokomaniyaning xavfi shundaki, bolalar organizm zaxarlanishi natijasida nobud bulishadi yoki shunga olib boruvchi xarakatlar sodir

etishadi. Taksokoman tirik kolgan taqdirida ham, uning organizmiga zaxarli moddalarning ta'siri juda yomon okibatlar — nogironlik akali norasolikka olib keladi.

Giyoxvandlik hozirgi kunda quyidagi sabablarga ko'ra jiddiy muammo xisoblanadi:

1. o'smir yoshidagi giyoxvandlarning ommaviy kupayishi;
2. qimmat turuvchi va kuchli ta'sir kursatuvchi narkotik moddalarni iste'mol qilishning keng tarkalishi;
3. giyoxvand bolalar va o'smirlar ijtimoiy makomining uzgarishi.

Noxush oilalarda voyaga etgan farzandaar bilan bir katorda, Hozirgi kunda giyoxvand bolalar va o'smirlar safi yukori daromadli oilalar farzandlari bilan tulib bormokda. Bu oilalardagi o'smirlarning moliyaviy erkinligi axlokiy me'yorlari yukori bulmagan aloadsa yoshlar submadaniyatini shakllantirishga olib kelib, ularda etakchi kadriyat vazifasini erkin vaqt o'tkazish bajaradi. Giyoxvand modaalar esa muayyan xdyot tarzining xususiyati xisoblanadi.

Bugungi kunda, garchi bir dozasi uchun yukori narx belgilansa-da, kokoin, heroin, "ekstazi" tabletkalari kabi giyoxvand moddalarni iste'mol kdlash katta xavf tuvdmokda. Birinchi iste'mol qilish bosqichi "yarim giyoxvandlik" bosqichiga aylanib, unda o'smir turli narkotik moddalarni kayta-kayta iste'mol qila boshlaydi. Turli narkotiklarni iste'mol qilgan o'smir ularning ichidan birini tanlab oladi. Bu erda ogishgan xulk-atvorning kasallikka aylanishi xakida gapirish mumkin. CHunki kerakli narkotik turi tanlangach, giyoxvandning avval ruxiy, so'ngra jismoniy tobeligi boshlanadi.

O'smirlik davrining kxiyinchiliklari xrkdda yukrrida tuxtab utilgan edi. O'smir guruxdar uz xususiyatlariga ega bulib, ularga kattalarning gamxurligiga karshi chikish xamda tengdoshlar bilan rypuxlapra birlashish kabi xulk-atvor reaksiyalari xos.

O'smirning giyoxvandlik xulk-atvori asosida uning shaxs tavsifi kursatkichlari damda ruxiy va jismoniy opilit sabablari yotadi Uning shaxsiyatiga esa quyidagi turli omillar ta'sir qiladi:

- a) biologik omillar: kasallik charchoq munosabati bilan giyoxvand modlalar kabul qilish;
- b) ruxiy: eyforiya holatini boshdan kechirishga qizikish, o'zini namoyon qilishga intilish, ijobiy ijtimoiy kizikishlarning yo'kligi, ruxiyatning buzilishi;
- v) ijtimoiy: tengdoshlar guruxlari, modaning ta'siri;
- d) ijtimoiy madaniy va submadaniyatning ta'siri: ba'zi yoshlar guruxdari narkotiklarni xayotning ajralmas bulagi deb xisoblashadi;
- e) yoshlarning giyo)dvandlashuv muammolarini uzok vakd oshkor kddmasliklari;
- j) narkotiklarga etishish mumkinligi.

YOshlar giyoxvandigi bilan shugullanayotgan pedagoglar va olimlar o'smirlarning giyoxvand moddalarni iste'mol qilishlari sabablari xaqida o'z nazariyalarini ilgari surmoqdalar. Bu nazariyalarning mazmuni va nomlanishi, ular qaysi omillarni eng muhim, deb xisoblashlariga ko'ra aniqlanadi.

Programmalashtirish nazariyasining tarafdorlari (G. A. SHichko, E. I. Bextel, A. N. Mayurov, S. N. SHEverdin, F. G. Uglov, A. A. Gabiani, A. I. Durandina, J. di Jennaro va boiuular) ijtimoiy-madaniy omilni yakdol ajratib, o'smir spirtli ichimlik gayoxrand moddalarni iste'mol siliigi jamiyatda keng tarkddgan ichish-chekish an'analari, spirtli ichimliklar reklamasi, atrofdagilarning yomon namunasi okdbati, deb xisoblashadi. Demak informatsion va psixologik tomonlardan, o'quvchilarni spirtli ichimliklarni iste'mol xilishga kdrsh i kurollantirishimiz lozim.

Ijtimoiy-pedagogik qarovsizlik nazariyasi tarafdorlari (D. V. Kolesov, V. Guldman, M. Raytenberg, A. F. Boyko, B. S. Bratus va P. I. Sidirov) bolalar va o'smirlarning giyoxvand xulk-atvorini mikro ijgimoiy muxdgning noxush sharoitlari va o'smirning psixologik xususiyatlari keltirib chikaradi, deb xisoblashadi. Bu nazariya tarafdorlari, muammoning echimi o'quvchilarning ijgimoiy pedagogik kdrovsizliklarini oldini olishda, deb kursatishadi.

Bulardan kelib chiqkan xolda shunday savol tug'iladi: voyaga etmaganlarning giyoxvand bo'lib kolishlariga nima sabab bo'lmokda? Bunda xammasi muayyan bir shaxsga bog'liqmi?

Giyoxvandlikning nafakat o'zi, balki shaxs rivojlanishi, uning ijtimoiy xayotda ishtirok etishi uchun yomon oqibatlarni keltirib chikarishi xam salbiy xodisadir.

Giyoxvandlik okibatlarini uch turga ajratiladi: biologik ijtimoiy-psixologik va jinoiy.

Biologik okibatlarga faollik shaxsning quvvat zaxirasining tushishi, biologik extiyojlarning kamayishi (ovqat, uyqu), qarshilik ko'rsatishning pasayishi, bola organizmining barbod bulishi kiradi.

Ijtimoiy-psixologik oqibatlarni bolaning axloqiy degradatsiyasi deb tavsiflash mumkin. Unda avval giyoxvand modda iste'mol kiliuidan boshqa kizikishlari va extiyojlari pasayadi, so'ngra bu extiyojlar umuman yo'q bo'lib ketadi. Bolaning giyoxvand moddaga kizikishi ortib xayotining o'rnini bosadi. Atrof-muxit giyoxvand tomonidan giyoxvand moddalarni topishni va iste'mol qilishni og'irlashtiruvchi va engillashtiruvchi nuktai nazardan faxrlana boshlaydi. Jamiyat bilan foydali ijtimoiy aloqalar uziladi (giyoxrand do'stlaridan ajraladi, o'qishni xoxamaydi). Ruxiy qulay xolat faqatgina giyoxrand moddaning kerakli me'yori iste'mol kilinganda yuzaga kelishi mumkin bo'lib koladi.

Giyovandlikning jinoiy oqibatlari biologik va ijtimoiy-psixologik okibatlar bilan izoxlanadi. Bu o'zaro aloqaning mexanizmi quyidagi ko'rinishga ega. Giyoxvand o'z qiziqishi, extiyojlarini qondirish uchun o'qishni yoki ishini tashlashi kerak. CHunki uning vaqti fakat giyoxvand moddalar izlash bilan o'tadi. Ularni doimiy xarid kilishga mablag' etishmaganligidan, giyoxvaid ularni noqonuniy yo'l bilan qo'lga kiritish imkoniyatlarini izlaydi (o'g'rilik talon-taroj orkali). Pul yo'q bo'lgan xollarda, giyoxvand o'z maqsadiga etishish uchun xar narsaga, xatto qotillikka ham tayyor bo'ladi.

Narkotik vositalarni nokonuniy ishlab chikarish, qo'lga kiritish, saklash yoki sotish, bolalarni narkotik moddalar iste'mol qilishga undash, tarkibida narkotik moddalar bo'lgan o'simliklarni etishtirish, ularni iste'mol kilish uchun maxsus joylarni tashkil qilish bilan borlik jinoyatlar ma'lum guruxlarga mansubdir.

Narkotik moddalarni iste'mol kiluvchi o'smirlarni aniklash muayyan qiyinchilik tug'diradi. Bu bolalarni davolash bilan bevosita tibbiy-narkologik xizmat xodimlari shug'ullanadilar, ijtimoiy pedagogning maktabdagi asosiy faoliyati narkomaniya profilaktikasidir.

Milliy va xorij pedagogik adabiyotlarida zararli odatlar profilaktikasi masalalarini o'rganish natijasida yosh avlodning giyoxvandlikka karshi tarbiyasi masalasida ikki asosiy tendensiya mavjudligi ma'lum bo'ldi: axborot-faoliyat yondashuvi (milliy adabiyotlarda) va informatsion-emotsional yondashuv (xorij amaliyotida).

Axborot-faoliyat yondashuvi tarbiyalanuvchining o'zini giyoxvandlikka qarshi faoliyatga jalb qilish orqali giyoxvandlikka qarshi kurashishni nazarda tutadi (A.. N. YAkushev, K. R. Ismagilov).

Informatsion-emotsional yondashuvda axborot bilan bir katorda, ijtimoiy-psixologik treningga xam katta e'tibor qaratiladi.

Xorij giyoxvandlikka qarshi tarbiyasida faol metodlarga ueakchi rol topshirilib, ularning uziga xos xususiyati faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilganlikdir. Bundan kelib chiqdiki, ijtimoiy pedagog maktab o'quvchilari bilan birgalikda giyoxvandlikka karshi dasturni ishlab chikayotganida faol metodaardan foydalanishi maqsadga muvofik bo'ladi. Bunday zamonaviy metodlarga giyoxvandlikka karshi treninglar, o'yinlar kiradi.

Falsafa, sotsiologiya va pedagogikada o'yin shaxs ijtimoiy individualligini shakllantirish usuli xisoblanadi. O'yin nazariyachilari, bolalar va o'smirlar yoshidagi o'yin xayotta tayyorgarlik usullaridan biri, deb xisoblanishini tan olishgan. Uning faoliyati boshkalar tajribasini o'zida sinab ko'rishning tayyor modeli xisoblanib, shaxsning akli va xissiyotiga ta'sir qiladi.

Uzok muddatli o'yinlar rolli o'yinlarning maxsus turi xisoblanib, uning asosiy xususiyatlari ommaviylik muddatining uzunligi, o'yinning real harakatlar bilan bog'lanib ketishidir. Uzoq muddatli o'yin darsdan tashkari tadbir sifatida o'tkazilib, giyoxvandlikka karshi xulkgatvor, munosabatni shakllantirishga karatilgan. Bu o'yinni o'tkazishda ijtimoiy

pedagogning vazifasi rollarni tarbiyaviy samaradorligini yukori darajada ta'minlaydigan qilib taqsimlashdir. Xususan, pedagog yoki pedagoglar guruxi o'yinda katnashadilar, yukori sinf o'quvchilari esa pedagoglar va o'smirlar o'rtasida vositachi bo'ladilar.

Ijtimoiy pedagog maktab ta'lim-tarbiyasining turli yo'nalishlariga moslab o'yinni tashkillashtiradi. Ona tili va adabiyoti, tarix, davlat va huquq asoslari, kimyo, biologiya darslarida o'quvchilar insho, bayon, diktant yozishadi, giyoxvandlikka qarshi kurash mavzusida nutk va referatlar bilan chikish kilishadi.

Sinfdan tashkari faoliyatlarida ular giyoxrandlikka qarshi qaratilgan devoriy gazetalar, rasmlar tayyorlashadi. SHuningdek intervyu metodi ham qo'llanib, u nafaqat giyodvand shaxslardan, balki ularning oila a'zolari, qo'shnilaridan ham olinadi. Sinfdan tashkari faoliyatda ijtimoiy pedagog o'smirlarga mahalliy huquqni muhofaza kiluvchi, ijtimoiy, tibbiy-narkologik muassasalar bilan alokalar o'rnatishga yordam beradi.

Barcha materiallar pedagog-tashkilotchida to'planadi va uzoq muddatli o'yinni yakunlaydigan teatrli sahna ko'rinishida ishlatiladi. Uzoq muddatli o'yin o'quvchilarning giyoxvandlikka qarshi faoliyati bilan ham bog'liq bo'ladi. Unda o'quvchilar mustaqil ravishda giyoxvandlikka qarshi adabiyotlarni o'rganishadi, referat va ma'ruzalar tayyorlashadi, reydlarda ishtirok etishadi, mahalliy giyoxvandlik holatini o'rganish bo'yicha mustaqil tadqiqotlar olib borishadi.

Savol va topshiriklar:

1. "Giyoxvandlik" tushunchasiga ta'rif bering?
2. O'smirlar orasidagi giyodvandliknint biologik psixologik va ijtimoiy sabablarini alohida ko'rsating.
3. O'smirlar giyohvandligi oqibatlarini sanab bering.
4. Ijtimoiy pedagogning giyodvandlik profilaktikasida o'smir o'quvchilar bilan o'tkazadigan o'yin metodlari mohiyatini tushuntiring.

Адабиётлар:

1. Курбанов Ш., Сейтхалилов Э. Ответственность образования в предупреждении наркомании. — Т.: 2003.
2. Шарипова Д. Д., Черников В. Г. Противонаркотическое воспитание подрастающего поколения. — Т.: Укитувчи, 1991.
3. Николаева Л. П. Уроки профилактики наркомании в школе. — М.: Изд.Моск.психолого-соц.института: Воронеж: МОДЭК 2003.
4. Методика и технология работы социального педагога / Под ред. М.А. Галагузовой. — М.: Изд. центр «Академия», 2002.
5. Шарипова Д. Ж. Чекмасдан ёшлик гаштини сур. — Т.: 1999.
6. Нажмитдинова О. Ортирилган иммун танкхислиги. — Т.: Абу Ати ибн Сино, 1998.

7- Mavzu: Jinoyatchilik bolalarda delinkventlik xulqi vujudga kelish shakli sifatida. Voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat Sog'lom turmush tarzini shakllantirish

Reja

1. Balog'at yoshiga etmaganlar jinoyatchilik muammolari
2. Tarbiyalash koloniyalaridagi balog'atga etmagan hukm etilganlarning yoshi xususiyatlari.
3. Jinoyat sodir etishning sabablari (motivlari)
4. Balog'atga etmagan hukm etilganlar munosabatlari o'ziga xosliklari. Ularning kattalardan farq qilish xususiyatlari
5. Balog'atga etmagan huquqbuzar shaxsiga individual profilaktik ta'sir ko'rsatish. Balog'atga etmagan huquqbuzarlar bilan ishlash individual profilaktik dasturning tuzilishi va mazmuni.
6. Tarbiyalash koloniyalarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat reabilitatsion dasturlari
7. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi"da sog'lom turmush tarzi haqida.
8. Yuksak ma'naviyatli barkamol shaxs yurt kelajagidir.
9. Ta'lim tarbiya muassasalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.

Asosiy tushunchalar: Delikvent, delinkventlik, individual profilaktik ta'sir, yuksak ma'naviyat, muhit, irsiyat, sog'lom turmush tarzi.

Balog'at yoshiga etmaganlar jinoyatchilik muammolari

Balog'at yoshiga etmaganlar va yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik butun dunyoda eng dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Bunday jinoyatchilikning o'sishi eng avval rivojlangan kapitalistik mamlakatlar uchun xosdir. Balog'at yoshiga etmaganlar va yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning asosiy sabablari deb g'arb mutaxassisleri yoshlar o'rtasidagi ishsizlikni, yoshlarning kelajaklariga ishonmasliklari, jamiyatni boshqarish hozirgi zamon usullaridan qoniqmasliklarini ko'rsatadilar.

Masalan, Germaniya politsiyasi ma'lumotlari bo'yicha 1996 yili hibsga olingan hamma huquqbuzarlardan 14 % doimiy ish joyiga ega emas edi. Aniq harakatlar bilan o'g'rilik qilgan jinoyatchilar orasida ishsizlar to'rtidan bir qismini tashkil etdilar, ular tomonidan shaxslarga nisbatan jinoyatlar 28 %, 34 % bosqinchiliklar amalga oshirilgan.

o'abr mutaxassisleri balog'at yoshiga etmaganlar orasida jinoyatchilikning o'sib borishi sabablari haqida boshqa fikrlarni ham aytadilar. Masalan, balog'at yoshiga etmaganlar uchun odil sud va huquqbuzarlikni olidini olish AQSH federal byurosi rahbari A.Regneri o'smirlar orasida jinoyatchilikning asosiy sabablari oilalarning buzilishi, bolalar bilan beraxm munosabatlarda bo'lish, bolalarning ta'lim olish va tarbiyalanish huquqlarining buzilishi, yashash uchun qulay sharoitlarining bo'lmasligi va natijada bolalarning uydan ketib qolishlari deb hisoblaydi. Konnektikut shtatida balog'at yoshiga etmaganlarni tekshirish juda jiddiy zulm o'tkazgan jinoyatchilar orasida 75 % o'zlariga ham ota-onalari va boshqa shaxslar tomonidan shavqatsiz munosabat ko'rsatilganini aniqlab berdi. Ular kuch ishlatib jinoyat sodir etishlarning umumiy sonidan 33 % ni sodir etganlar.

Yaponiyalik mutaxassislar o'z mamlakatlarida balog'at yoshiga etmaganlar jinoyatlari hozircha o'sib borishi sabablarini o'ziga xos baholaydilar. Ular jinoyatchilik o'sishi turmush sharoitlaring, farovonlikning o'sishi va o'qish bilan, oilada tarbiyaning etarli bo'lmasligi, oilaning an'anaviy qadriyatlari buzilishi, individualizmning namoyon bo'lishi bilan bog'liq oqibatlar-stresslar sababli deb hisoblaydilar. Yaponiyada o'tkazilgan tekshirishlar balog'atga etmagan huquqbuzarlar ko'pincha ota-onasiz o'sgarlar, hamda kam ta'minlangan oilalardan chiqqan bolalar bo'lib chiqishini ko'rsatdi.

Rossiyalik mutaxassislar ham jinoyatchilikning o'sishini ko'rsatadilar. Hozirgi davrda o'smirlar Rossiyada aholining eng kriminogen zararlangan qismi hisoblanadilar.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat Kodeksiga binoan balog'at yoshiga etmagan huquqbuzar deb jinoyat sodir etish paytiga kelib 14 yoshga to'lgan, lekin hali 18 yoshga to'lmagan shaxslar hisoblanadilar. Balog'at yoshiga etmaganligi javobgarlikni yumshatuvchi holat sifatida qaraladi. Masalan, balog'at yoshiga etmaganlarga nisbatan ba'i bir jazolar ko'zda tutilmagan, xususan, o'lim jazosi.

O'zbekiston Respublikasi sud amaliyotida xukmni ijro etishni kechiktirishdan keng foydalanishni alohida ta'kidlash kerak, bundan hozirgi kunda ozodlikdan mahkum etiladigan hamma balog'at yoshiga etmaganlarning taxminan yarmiga nisbatan qo'llanilmoqda.

Bundan tashqari, huquqbuzarlarning ma'lum qismi (20 % dan ortig'i) jazo berilishdagi yoki jinoiy javobgarlikdan ozod etilmoqda. Bu ishlar bo'yicha materiallar yoki balog'atga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarga yuboriladi yoki ularga nisbatan majburiy tarbiyalash choralari qo'llaniladi, masalan, quyidagilar: 1) ogohlantirish;

2) ularni ota-onalari yoki ularni o'rini bosuvchi shaxslar, yoki maxsus davlat organlari nazoratiga topshiriladi.

3) keltirgan zararini qoplash majburiyati yuklatiladi.

4) bo'sh vaqti cheklanadi va boshqalar.

Tarbiyaviy ta'sir choralari muntazam bajarmay kelgan holatida sud jinoiy javobgarlikka tortishi mumkin.

Shunday qilib, haqiqatda jinoiy jazolar jinoiy jazonadigan harakatlar amalga oshirgan o'smirlarning yarmidan kamiga nisbatan qo'llanilmoqda. Alohida balog'at yoshiga etmaganlar uchun mumkin bo'lgan jazo (amalga oshirish) asosiy turi ozodlikdan mahrum etish hisoblanadi, bu jazoni ular tarbiyalash koloniyalarida o'taydilar. Agarda huquqbuzarlik sodir etgan o'smir 14 yoshga to'lmagan bo'lsa (ya'ni jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga to'lmagan bo'lsa) uni maxsus o'quv-tarbiyaviy tashkilotga yuboradilar.

Ijtimoiy-pedagogikada delikvent hulqi deb o'rnatilgan huquqiy qoidalarni buzish va xuquqbuzarlikka olib keladigan hulqi tushuniladi:

Delikvent (lotincha delingnens - huquqbuzar) - hulqi o'zining keskin ko'rinishlarida jinoiy jazolanadigan harakatlardan iborat xulqi yomon sub'ekt.

Delikventlik (lotincha delingnens – jinoiy harakat amalga oshiruvchi huquqbuzar) – sotsiologiyada va yurisprudensiyada militsiya ro'yxatida turadigan yoki jinoiy jazoga olib kelishi mumkin bo'lgan qoidabuzarliklarga muntazam amalga oshiruvchi tarbiyasi qiyin o'smirning qonunga xilof harakatlarini ko'rsatish.

Shuni ham alohida aytish kerakki, balog'atga etmaganlar va yoshlar ishlari bo'yicha Komissiya, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, mahalla jamoyatchiliklari, maktab o'qituvchilari va ota-onalar tomonidan birgalikda katta profilaktik ishlarni amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonda balog'atga etmaganlar orasida jinoyatchilik kamayib bormoqda.

Ana shu haqida 7.03.04 ____ "Do'stlik" kanalining radioeshittirishida Chirchiq shahrining prokurori yordamchisi Anora Ergasheva gapirdi. Lekin shular bilan birga Chirchiq shahridagi bezorilik qilmishlari holatlari haqida gapirib o'tdi.

2003 yili 10-sinf o'quvchisi Nikitin Evgeniy militsiyaga qo'ng'iroq qilib uning maktabida bomba qo'yilganligini xabar qiladi, 2004 yili fevral oyida boshqa ikki o'quvchilar Korshunov Aleksandr 9-sinf o'quvchisi va 6-sinf o'quvchisi Nosov Ivanlar ularning maktablarida bomba yashirilgan deb militsiyaga qo'ng'iroq qiladilar. Qoidabuzuvchilarni darhol topdilar. Lekin, bundan avval maktabdan hammani evakuatsiya qildilar, mutaxassislar – saperlar keldilar. Darslarni bekor qilish, mutaxassislarni chaqirish davlat uchun 60 ming so'mga tushdi. Keyinchalik bolalarning birinchi darslari yo'qligi va ular zerikkalarida militsiyaga qo'ng'iroq qilganliklari ularning gaplaridan ma'lum bo'ldi.

Ikkala o'quvchilar ham yaxshi oilalardan bo'lib chiqdilar: Nosovning otasi ham, onasi ham bor, Korshunov.A.ning oilasida ikkita bola va uning oilasi moddiy ta'minlangan, yaxshi oila bo'lib chiqdi.

Ota-onalari bolalari tarbiyasida qandaydir kamchilikka yo‘l qo‘yganlar, ularning bo‘sh vaqtlarini, dam olishlarini tashkil eta olmagandirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ota-onalar o‘z farzandlari uchun javobgarlar deb yozib qo‘yilgan. Portlash moslamasi haqida yolg‘on chaqiruv – bu jinoiy jazolanadigan jinoyatdir. Agarda bola qo‘ng‘iroq qilgan bo‘lsa, uning ota-onasidan jarima undiriladi, agarda o‘smir bo‘lsa uni balog‘atga etmaganlar ishlari bo‘yicha Komissiya ro‘yxatiga oladilar.

Tarbiyalash koloniyalaridagi balog‘atga etmagan hukm etilganlarning yoshi xususiyatlari

Jinoyat kodeksiga binoan, tarbiyalash koloniyalarida ozodlikdan mahrum etishga hukm etilganlar, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan balog‘atga etmaganlar hamda ular 21 yoshga etguncha tarbiyalash koloniyalarida qoldirilishga hukm etilganlar jazo o‘taydilar.

Yoshi ko‘p jihatdan insonning jismoniy holatini, uning xulqini, qiziqishlarini, hayotdagi imkoniyatlarini belgilashi hamma ma‘lum.

Jazoni o‘tash davrida ham yoshi katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ular tarbiyalash jarayonini tashkil etishda, hukm etilganlar jamoalarini tuzishda va boshqalarda hisobga olinadi. Balog‘atga etmagan jazolanuvchi – bu o‘smirdir. O‘smirlik davri organizmning keskin jismoniy rivojlanishi, kuch-quvvati, faolligi, tashabbuskorligi bilan ajralib turadi. O‘smirning qattiq emotsionalligi, ta‘sirchan, engiltakligi intizomni buzish sababi bo‘lishi mumkin. Balog‘atga etmagan jazolanuvchilar tashqi ta‘sirlarga shu bilan birga ijobiy tomonga ham, salbiy tomonga ham juda ta‘sirchan bo‘ladilar. Ko‘pchilik o‘smirlar o‘zlariga tanqidiy ko‘z bilan qaramaydilar. Bu ma‘naviy beqarorlikka olib keladi, u hulqini ijtimoiy boshqarish samarasini pasaytiradi. Bular ularda ijtimoiy foydali ko‘rsatmalar, qarashlar va ishonchlarini shakllanishini qiyinlashtiradi. SHu bilan bir vaqtda ma‘naviy beqarorligi, “oson va chiroyli” hayot kechirishga intilishi, madaniylik darajasi pastligi xulqini ma‘naviy o‘zi boshqarishiga zarar keltiradi. Bu holat odob-axloqsizlik harakatlardan ular osongina noqonuniy ishlarni amalga oshirishga o‘tishlariga olib keladi.

Bu yoshdagi o‘smirning hulqi va faoliyatiga o‘zicha baho berishi ta‘sir ko‘rsatadi, u ko‘pchilik hollarda yoki oshirib yuborilgan yoki pasaytirilgan bo‘ladi. O‘ziga yuqori baho berishda o‘smir o‘zini hammadan ustun deb hisoblaydi, boshqalar orasida ajralib turishni istaydi. Bunday jazolanuvchilar koloniya xodimlarining maslahatlariga kam quloq soladilar, tarbiyachilarga kinoyali munosabatda bo‘ladilar, ularda ma‘naviy o‘zini takomillashtirishga istak uyg‘onishga intilishga e‘tiborsizlik bilan qaraydilar. O‘zini baholashi past bo‘lgan jazolanuvchilar o‘zlarida ishonchsizlikni his etadilar, qo‘rqadilar, boshqalardan yomon ko‘rinadilar. Buning oqibatida ular boshqalar ta‘siri ostida qoladilar.

Balog‘atga etmagan jazolanuvchilarda bu yoshda irodasi va irodaviy sifatleri shakllanishi jarayoni boradi. Bu davr davomida tarbiyalanuvchilar o‘zlarini shaxs sifatida, kuchli va irodali shaxslarni namuna qilib olib o‘zlarini tarbiyalashga qodir ekaliklarini anglab etadilar.

Ammo tashqi ko‘rinishi ularda ko‘pincha qilgan ishlari ma‘naviy mazmunini to‘sis qo‘yadi. Buning natijasida ma‘naviy namuna sifatida ularda jinoyatchilik romantikasi ishqivozlari o‘rin oladi.

Ko‘pchilik balog‘atga etmagan jazolanuvchilar uchun dunyoqarashlari qarama-qarshiliklari xosdir. Ularning qarashlari va ishonchlari mantiqsiz va qarama-qarshidir. Jazolanuvchilarning o‘zlari bu mantiqsizlikni, tartibsizlikni kamchilik deb tushunadilar. Bunday o‘smirlarni qarama-qarshilikka ishontirish va ularda to‘g‘ri xulq qoidalarini tarbiyalash oson bo‘ladi, lekin pedagogik va ijtimoiy ancha qarovsiz jazolanuvchi balog‘atga etmaganlar guruhleri bor.

Ular mantiqiy tartib bilan va asoslab o‘z qarashlarini himoya qilishlari mumkin. Bunday turdagi o‘smirlar bilan ishlash ancha qiyin. Sotsiologik tekshirishlar ko‘pchilik o‘smirlar jazolanishlaridan avval militsiyada ro‘yxatda turganlar bilan munosabatlarda bo‘lganliklarini ko‘rsatadi. Ular kitob o‘qish, musiqa bilan qiziqmaganlar, ulardan kamdan-kamlarigina sport bilan qiziqqanlar. Tekshirishlar ko‘rsatishicha jazolanuvchilarning 70 % dan ko‘prog‘i hukm etilishlaridan avval 5-8 soat bo‘sh vaqtlari bo‘lganligini ko‘rsatdi, ular hech narsa bilan mashg‘ul

bo'lmaganlar, maktabga bormaganlar, ishlamaganlar, uy ishlarini bajarmaganlar. Ularning bilim darajalari odatda 2-3-sinfni tashkil etgan: o'smirlar orasida umuman savodsizlari ham uchraydi. Balog'at yoshiga etmagan jazolanuvchilarning ko'pchiligi kasb-hunarga ega emas, ish stajlari yo'q.

Bo'sh vaqtlarining ko'pligi, ularning alkogol ichimliklari, narkotiklar iste'mol qilishlariga, erta jinsiy aloqalarni boshlashlariga olib kelgan. Bunday hayot ularni ijtimoiy foydali mashg'ulolardan chetga tortadi, ko'pincha qarindoshchilik munosabatlarining uzilishiga, o'qishga qiziqishi yo'qolishiga, oxir oqibat jinoyat sodir etishiga olib kelgan.

Jazolanuvchilarning ko'pchilik qismi (53 %) to'la bo'lmagan oilalarda, bolalar uylarida tarbiyalanganlar. Ota-onalarining yo'qligi ma'naviy-axloqiy tarbiyalanishini qiyinlashtiradi. Bunday hollarda asosan bola qorni to'qligi va eni butunligi haqidagi qayg'uriladi. Ikkala ota-onasi bo'lgan oilalarda kattalar va bolalar o'rtasida bir-birini tushunish yo'qligi, o'smirning ma'naviy axloqiy muammolari, do'stlariga ota-onalarning befarqligi aniqlandi.

Ana shu masala bo'yicha tekshirishlarni tahlil qilish quyidagicha xulosaga kelishga imkon beradi:

1. Zamonaviy oilalarning katta a'zolari yuqori darajada band bo'lishlari sababli ta'lim muassasalari pedagogik jamoalari bilan (maktab, kollej, litsey) o'zaro aloqalari yo'q. SHuning uchun ota-onalar o'smirning haqiqiy ichki dunyosi haqida, uning qiziqishlari va talablari haqida to'la tasavvurga ega bo'lmaydilar. Bular ota-onalarda bolaga ko'r-ko'rona muhabbatni yuzaga keltiradi.

Ota-onalarning bunday bir tomonlama qarashlarini ota-onalarning maktab (litsey, kollej) bilan aloqalarini yaxshilash yo'li bilan yo'qotish mumkin edi. Ma'lumki, o'quv yurtlarida o'smirning xulqi yomon belgilarini ancha ob'ektiv baholaydilar (uning hulqi og'ishini, jamoatchilik tartibiga zid harakatlari va huquqbuzarliklarini). Bunday hollarda ota-onalarga pedagoglar malakali yordam ko'rsatishlari mumkin bo'ladi.

2. O'smirning oiladan tashqaridagi yaqin odamlari haqida ota-onalar quyidagi yo'llar bilan xabardor bo'ladilar:

a) ularning qiziqtirgan uning o'zi haqidagi va uning do'stlari haqidagi muammolarni qo'pol va odobsiz usulda talab etadilar.

b) bunday ma'lumotlarni uchinchi shaxsdan oladilar.

v) bolaning xulqini o'zlari kuzatishlari natijasida.

Ota-onalar odatda bolaga o'zlariga yoqqan bolalar bilan do'st-o'rtoq bo'lishni majbur qilishga harakat qiladilar. Aynan ana shu bolani ota-onasidan uzoqlashtiradi, uni yolg'onchi qiladi.

Ota-onalar bola bilan muomalani bilmaydilar. SHuning uchun ota-onalarni umumiy pedagogik o'qitish tizimini yaratish zarur, masalan, maxsus seminarlar o'tkazish yo'li, bu maqsadlarda ommaviy axborot vositalardan foydalanish yo'li bilan, yoki ijtimoiy pedagoglar va psixologlar yordamida ishlab chiqilgan "oila xizmati" tizimlari yordamida.

3. Bugungi kundagi ota-onalar ko'p tomondan huquqiy va pedagogik sohada tayyor emaslar. SHuning uchun ular bolagi nisbatan jinoiy xavf solinganda o'z farzandlariga to'g'ri harakat qilish bo'yicha biror-bir masalahat berishga qodir emaslar. SHu sababli ota-onalarning o'zlari orasida va oilaning katta a'zolari orasida profilaktik ishlarni amalga oshirish zarurati yuzaga keladi.

Ota-onalar ma'lum yuzaga kelgan vaziyatda o'zini qanday tutish kerakligini tushuntirib berishlari, bolani ayniqsa, notanish odamlar bilan tanishishda yoki notanish yangi joylarda bo'lishlarida diqqat-e'tiborli, ehtiyotkor bo'lishlarini tushuntirishlari kerak. Katta shahar sharoitida o'smir uchun zarar tegishi xavfi ayniqsa, yuqori bo'ladi. Bu erda o'smirning xulqi asosiy yo'nalishi ularga xavfli joylarga borishni ta'qiqlagan ota-onalarining talablarini qat'iy bajarishi bo'ladi.

4. Bolalar va o'smirlarning jinsiy tarbiyasi zamonaviy holati haqida olingan ma'lumotlar bu muammoni hal etishda ko'plab jiddiy xatolar va kamchiliklar borligini ko'rsatadi.

Kichik va katta sinf o'quvchilari jinsiy tarbiya masalalari bo'yicha faqatgina qisqa ma'lumotlar oladilar.

Hozirgi paytda 4-11-sinflar uchun respublikamizda yangi Fan kiritilgan, "Sog'lom avlod tarzi (asoslari?)". Bu fanning dasturida jinsiy tarbiya haqida bo'lim bor. Lekin faqatgina jinsiy masalalarni o'rganishning o'zigina etarli emas.

Balog'at yoshiga etmaganlar jinsiy jaxlsizligiga jinoiy tajovuz qilish bilan kurashish bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi. Chunki bu holat aniq bir balog'atga etmagan yoki o'smirning o'ziga emas, balki uning atrofidagilarga ham juda katta ma'naviy zarar ko'rsatadi.

Bafarqlik, beraxmlik bilan jinoyat sodir etish usuli o'smirlar tomonidan (tarbiyasida kamchiliklari bo'lganlarida) faol huquqbuzarlik faoliyatiga, shunga o'xshash harakatlarni amalga oshirishga chaqiriq deb qabul qilinishi mumkin. Boshqa tomondan bu o'smirlarga uning tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlarini shakllantirishda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (ya'ni, o'smirlar tengdoshlari va kattalarga ishonchsizlik va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladigan bo'lib qoladilar).

SHundan kelib chiqib, bunday jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligiga to'g'ri baho berish va ommaviy axborot vositalari, pedagoglar, ota-onalarni jalb etib profilaktik ishlarni olib borish zaruriyati yuzaga keladi.

Tibbiyot xodimlari va huquqiy muxofaza qilish organlari seksual asosda tajovuzkor hulqli shaxslarni o'z vaqtida aniqlash va ularga nisbatan tegishli chora ko'rish bo'yicha birgalikda ish olib borishlari kerak.

5. O'g'il bolalar va qizlar o'zaro munosabatlari muammolari o'smirning jinsiy etilish yoshidan ancha avval yuzaga keladi. Bolalar va qizlar orasidagi yaqin aloqalar, munosabatlar haqidagi ma'lumotlar odatda noto'g'ri tushuniladi. Bola bu haqida ishonchli manbalardan qanchalik kam ma'lumotlarga ega bo'lsa, u bu sohaga shunchalik ko'p qiziqadi. SHuning uchun jinsiy tarbiyalash asoslari erta bolalik yoshidan boshlanishi kerak bo'ladi.

Akseleratsiya sababli bugungi kunda o'smirlarning erta dinsiyligi etilishlari va uning ijtimoiy tashkil topishi jarayoni ancha uzoq davom etishi o'rtasida uzilish yuzaga kelgan. Bu holat bir qator muammolarni keltirib chiqardi, masalan, doimiy ravishda kinomotografiya, videofilmlar, matbuotdagi maqolalar va boshqa erotik manbalar tomonidan qo'zg'atib kelinayotgan jinsiy instinktlarining uzoq qondirilmasligi kabi.

Bu muammoni hal etish o'smirlarni sportga ommaviy jalb etish, ijtimoiy jamoatchilik ishlari ishtirok ettirish bilan mumkin bo'ladi.

SHu sababli bizning fikrimizcha bunday ishlarning hamda o'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikni olidini olish bo'yicha faoliyatlar markazi umumta'lim maktab bo'lishi kerak deb to'g'ri fikr aytilmoqda, maktab oilaga nisbatan va boshqa ijtimoiy institutlarni boshqarishi kerak bo'ladi.

Haqiqatan, maktab oilaga, ota-onalarga yordam ko'rsatishni tartibga soluvchi bo'lishi kerak. Maktab bu ishga ijtimoiy pedagoglarni, tibbiyot xodimlarini, huquqiy himoya qilish organlarini jalb etishi kerak. Bu ishlar maktabning ota-onalar va bolalar o'rtasidagi qiyinchiliklarni bartaraf qilishda tarbiyaviy-profilaktik vazifalarni ancha kengaytiradi.

Bu ishda qo'shimcha ta'lim, bolalarning dam olishlari va ijod bilan shug'ullanishlari, bolalar va yoshlar ijtimoiy tashkilotlarining ham roli katta.

Jinoyat sodir etishning sabablari (motivlari)

Og'ir moddiy ta'minlanganlik holati o'smirlarning o'z ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirish uchun imkoniyatlarini kamaytiradi, bu ko'pincha o'smirlarni jinoyat sodir etishga majbur etadi. Biror-bir buyum xarid qilib olish uchun mablag'ning etishmasligini ular noqonuniy usul bilan to'ldiradilar. Balog'atga etmagan hukm etilganlar uchun nomusiga tegish, o'g'rilik, bosqinchilik, odam o'ldirish, tan jarohati etkazish, avtomashinalarni o'g'rilash kabi jinoyatlar xosdir. Yomon niyatda jinoyat sodir etishning sabablari quyidagilar: qimmatbaho buyumni egallab olish istagi, buyumlar sotib olish uchun shaxsiy puliga ega bo'lish istagi. Bu jinoyatlar asosida modadan qolmaslik tengdoshlari ega bo'lgan narsalarga ega bo'lish, hatto jinoyat sodir

etib bo'lsa ham ega bo'lish istagi yotadi. Kuch ishlatib jinoyat sodir etishning eng ko'p uchraydigan sabablari: qasos olish, "erkakligini" ko'rsatib quyish, "irodasini mustahkamlash", "hech narsadan qo'rqmaslik" va shunga o'xshash. Ko'pchilik jinoyatlar "xavfi bo'lganiga javoban", "do'stini sotmaslik", "o'rtoqlarini ishontirishga" kat sababli sodir etiladi.

Retsedivlar (takroriy jinoyat sodir etish) sabablari orasida "jabrlanuvchilar qarshilik ko'rsatmadilar", "o'ziga ishonish xissi paydo bo'ldi", "o'g'rilangan narsani sotish osonligi", "tajribali yo'l boshchining rahbarligi" kabi sabablar uchraydi.

Asossiz beshavqatlik xususiyatiga ega og'ir jinoyatlar, odam o'ldirish, bezorilik, og'ir tan jarohati etkazishning ko'pchilik qismi o'smirlar tomonidan mast holatda yoki narkotik iste'mol qilgan holatda sodir etiladi. Bunday holatlarda jinoyat sodir etish aybni og'irlashtiruvchi hisoblanadi. Hukm etilganlarning ko'pchiliklari erta chekishni boshlaganliklari, spirtli ichimlik ichganlari aniqlandi, bunga kattalar, shu jumladan ota-onalari ibrat bo'lganlar, yana o'rtoqlaridan toksik moddalarni xidlashga, narkotiklar iste'mol qilishga o'rganish sabab bo'lgan.

Jinoyatlarning bir qismi o'smirlar tomonidan kattalar bilan birga sodir etiladi. Bunday jinoyatlar odatda oldindan tayyorlanadi. Katta yoshli jinoyatchilar, jinoyat fosh etilgan taqdirda o'smir "o'rtoqlik xissi" va qasam ichganligi sababli aybni o'z bo'yniga oladi deb o'ylaydilar, agarda sud bo'ladigan bo'lsa unga katta muddat bermaydilar, shartli yoki ijro etishni orqaga surish beriladi deb ishontiradilar. Mustaqil va hech kimga qaram bo'lmaslikka intilib, lekin bunga xali tayyor bo'lmay o'smirlar jamoatchilikka yot elementlarning psixologik ta'sir ko'rsatishlariga osongina ko'nadilar. O'smir bir o'zi hech qachon jazm eta olmaydigan ishni u guruhda amalga oshira oladigan bo'ladi.

Ba'zi o'smirlar jinoyat sodir etib buni sho'xlik deb baholaydilar. Ular tartib buzish bilan jinoyat orasidagi chegarani ko'rmaydilar. O'tkazilgan so'rovlar natijasida hukm etilgan balog'atga etmaganlarning 50 % gina ular jinoyat sodir etayotganlarini bilganlar. 20 % taxmin qilganliklari, qolganlari esa hatto xayollariga ham keltirmaganliklari aniqlandi. Ularning ko'pchiliklari o'z huquqbuzarliklarini jasorat, madrlilik va irodasini ko'rsatish deb baholaydilar.

Balog'atga etmagan hukm etilganlar munosabatlari o'ziga xosliklari. Ularning kattalardan farq qilish xususiyatlari

Balog'atga etmaganlarga tarbiyalash koloniyalarida bo'lishi boshlang'ich davri, hayot sharoitiga moslashishlari katta ta'sir ko'rsatadi. Moslashish yaxshi va yomon ham bo'lishi mumkin, lekin salbiy va ijobiy ham belgilarga ega bo'lishi mumkin. Bu davrda yuqori o'rinni egallash, jamoadagi rollarini taqsimlash uchun kurash boradi. Bu davrda tartibni buzish va jinoyatlar sodir etishning o'sishi kuzatiladi. Tashqi dunyodan ajratib qo'yilishi hukm etilganlarning munosabatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Rejimli tashkilotlarda munosabatlar ikki turga ajratiladi: rasmiy va norasmiy. Rasmiy munosabatlar jazoni o'tash rejimi va ichki tartib bilan boshqariladi. Norasmiy munosabatlar - hukm etilganlarning norasmiy munosabatlar tizimida tutgan o'rniga binoan ularni kategoriyalarga ajratuvchi "boshqa hayot" qoidalari bilan boshqariladi.

Stratifikatsiya¹⁶ hukm etilganing o'z guruhida balog'atga etmaganlarni "o'zlariniki va begonalariga" ajratish mavqeini qat'iy belgilashdan iborat bo'ladi.

Retsidivistlar¹⁷ keng jinoiy aloqalarga ega bo'lib, ular ancha yuqori mavqega ega bo'ladilar. Ko'plab sonli guruhlar mavjud bo'lishiga qaramay hukm etilganlar ikkita asosiy guruhlariga ajratiladi:

- 1) Yuqori mavqeli - mustahkam, qat'iylar, "o'g'il bolalar"
- 2) past statusli - ezilganlar, "pastlar" xo'rlanganlar.

¹⁶ стратификация – (лотинча stratum - қатлам) – даромади катталигига, билим даражаси, ҳокимияти катталиги, касби обрўси катта-кичикликларига қараб юқоридан пастга қараб ижтимоий қатламларнинг жойлашиши. Статус (лотинча status-вазияти, ҳолати) – индивиднинг гуруҳ ёки жамиятдаги ижтимоий вазияти (ҳолати).

¹⁷ Рецидивист (лот. Recidivus- орқага қайтувчи)- илгари жазоланган жиноятига ўхшаш жиноят содир этган ва қаттиқроқ жазо олиши керак бўлган одам.

Bu guruhlardan har biri o'z guruhlariga ega, bu ko'plab janjallar kelib chiqishiga olib keladi.

Tarbiyalash koloniyasiga kelgan yangi odamni mavqei odatda "ro'yxatga olish" yo'li bilan aniqlanadi. Yangi bolani faxm-farosatliligini, aqlini, o'zini himoya qila olishini tekshirib ko'radilar.

Ko'pincha bu sinovlar beshavqat va beraxmlilik ko'rinishida bo'ladi. Sinovdan o'tayotganning sog'lig'i uchun ma'lum xavf mavjud bo'ladi. Balog'atga etmagan hukm etilganlarning kattalardan farqi ko'pchilik o'smirlarda ma'lum hayotiy rejalari, kelajakdagi istiqbollari yo'qligidan iborat bo'ladi, bu ular bilan tarbiyaviy ishlar olib borishni ancha qiyinlashtiradi.

Shunday qilib, balog'atga etmagan hukm etilganlarning shaxsi va guruhlarini belgilari quyidagi xususiyatlar bilan belgilanadi:

1. Yoshi xususiyatlari – organizmining tez jismoniy rivojlanishi
 - ma'naviy beqarorligi.
 - mos bo'lmagan ravishda o'ziga baho berish (yuqori baholash, past baholash)
 - irodasi jadal shakllanishi jarayoni.
 - dunyoqarashning qarama-qarshiligi.
2. Pedagogik va ma'naviy tarbiyasizligi.
 - bo'sh vaqtning tashkil etilmaganligi.
 - bilim, ma'naviy va professional darajasi pastligi.
 - oiladagi muammolar.
 - ota-onalarining yo'qligi, yoki oilasi to'liq emasligi.
 - ota-onalarining yoki qarindoshlarining jamoat tartib-qoidalarini buzishlari.
 - qarindoshlik aloqalari uzilishi.
3. Jinoyat sodir etish motivlari.
 - Sotib olishga qurbi etmagan narsaga ega bo'lish istagi.
 - o'g'il bolaligini ko'rsatib qo'yish, guruxda obro'ga ega bo'lish.
 - Jinoyat sodir etayotganligini yaxshi tushunib etmaslik.
4. Deviant (og'ish, chetlanishlar) yomon axloqqa odatlanishi'
5. Katta yoshdagi jinoyatchilarga bo'ysunishi.
6. Huquqiy bilimi pastligi.
7. tashkilot tarbiyasi va tartibiga qarshi bo'lish.
8. Tashkilot sharoitlariga moslashib olish imkoniyatlari.
9. Hukm etilganlarning stratifikatsiyasi (status-rolli munosabatlar)
10. Ma'lum hayotiy rejalarning yo'qligi.

Shunday qilib, balog'atga etmagan hukm etilgalar – bu shaxsi ijtimoiylashishi jarayoni oxiriga etmagan odamlar, bu jarayon turli ijtimoiy o'rin egallashni, ijtimoiy aloqalar va munosabatlar tizimiga qo'shilishini ko'zda tutadi.

O'smirni jinoyat sodir etganda aybdor deb hisobladilar. Uni tarbiyalash koloniyasiga, ya'ni yopiq turdagi tarbiyalash tashkilotiga yuboradilar. Bu albatta shaxsning ijtimoiylashish jarayonini to'xtatib qo'yadi va uning bir tekis rivojlanishini yanada qiyinlashtiradi.

Ijtimoiylashish yakunlanmagan jarayonini jamiyatdan ajratib qo'yilgan holatda davom ettirishga to'g'ri keladi. Bu Ushbu jarayonning mohiyatiga qarama-qarshidir. Ko'pchilik o'smirlar (jinoyat sodir etgan) ijtimoiy muhit uchun jiddiy xavf tug'diradilar. SHuning uchun ularni jamiyatdan ajratib qo'yish zarurdir. SHu sababli ular uchun ozodlikdan mahrum etish jazosini qo'llashdan bosh tortishning iloji bo'lmay qoladi.

Shunda qarama-qarshilik yuzaga keladi: o'smirni jamiyatdan ajratib quyish zarurligi va shu bilan bir vaqtda uni ijtimoiylashtirish jarayonini yakuniga etkazish.

Milliy va chet el tajribalarining ko'rsatishiga jazo choralarini kuchaytirish, qattiq nazorat qilish o'smirlar orasida jinoyatchilikning o'sishi muammosini samarali hal etish yo'li deb qaralishi mumkin emasligini ko'rsatdi. Jinoyatchilikni yo'q qilish – bu birinchi navbatda ijtimoiy muammodir.

Jinoyatchilik darajasi faqatgina uni yuzaga keltiruvchi omillarni yo'qotib borilgan holdagi asta-sekin pasayib borishi mumkin. Balog'atga etmaganlar jinoyatchiligi bilan kompleks va samarali kurashish maqsadlarida davlat milliy dasturi rejalashtirilmoqda va amalga oshirilmoqda. Masalan, 70-yillarda AQSHda axloqi buzilgan yoshlar hayoti ijtimoiy, turmush madaniy va moddiy sharoitlarini yaxshilash bo'yicha 36 dastur amalga oshirildi. XX asrning 90-yillarida AQSHda yoshlar orasida axloqi buzilganlar bilan kurashish bo'yicha 65 ta dastur amalga oshirilgan. Ana shu dasturlarni bajarish uchun kongress 15 mlrd. dollar ajratdi. Evropa parlamenti ekspert komissiyasi 1996 yili balog'atga etmaganlar orasida jinoyatchilik muammolarini ko'rib chiqib yoshlar va balog'atga etmaganlar orasida jinoyatchilik bilan kurashish samaradorligi oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqdi. Ular asosan quyidagilardan iborat: politsiya xodimlari, ijtimoiy tashkilotlar va yoshlar, balog'atga etmaganlar ishlari bo'yicha milliy tashkilotlarning jinoyatchilikni oldini olish sohasidagi hamkorliklarini ancha kuchaytirish kerak; balog'atga etmagan huquqbuzarlarni jinoiy javobgarlikka tortish va ularni tergov paytida ushlab turish amaliyotini o'zgartirish kerak; O'smirlarni jazr o'tash muddatlarini ikki yil bilan chegaralash, muddatidan avval ozod etish huquqini berish. Umuman olganda balog'atga etmagan huquqbuzarlarni tuzatish tashkilotlariga joylashtirmay qayta tarbiyalashni afzal bilish taklif etiladi.

Ozodlikdan mahrum etish ko'rinishidagi jinoiy jazodan to'la bosh tortishga erishish masalasi mumkin bo'lmaganligi sababli ko'pchilik mutaxassislar jazo choralari belgilanayotganda o'smir huquqbuzarlarning undan psixologik ta'sirlanishlari va ularning yoshi xususiyatlarini hisobga olishni tavsiya etadilar. Tarbiyalash koloniyalariga joylashtirilgan balog'at yoshiga etmagan huquqbuzarlar bilan ishlashda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish choralari, maktab va o'smirlarning ozod etilishiga psixologik tayyorgarligi asosiy rol o'ynashi kerak

Balog'atga etmagan huquqbuzar shaxsiga individual profilaktik ta'sir ko'rsatish

Bugungi kunda bizning jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri so'zsiz yoshlar orasida jinoyatchilikning o'sishini pasaytirish yo'llarini izlash va ularni oldini olish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Profilaktika (lotincha prophylaktikos – oldini oluvchi, saqlovchi) – tarbiyasi qiyin o'smirlar delikvent (noqonuniy) va deviant (og'uvchi) hulqlarini yuzaga kelishi, tarqalishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to'plami.

Uyushgan jinoyatchilik doirasiga borgan sari ko'proq balog'at yoshiga etmaganlar tortib borilmoqda. O'smirlardan tashkil topgan kriminal guruhlar tomonidan xavfli jinoyatlar sodir etilmoqda. Jinoyatchilik yosharib bormoqda va mustahkam retsivid (takrorlanuvchi) xususiyatga ega bo'lib bormoqda.

Bu keskin muammoni hal etishda ijtimoiy pedagogika asosiy ahamiyatga ega bo'ladi, biroq bu muammoni jamiyatning hamma kuchlarini jalb etish, kompleks usullar bilangina hald etish mumkin. Aniq bir huquqbuzar bilan individual ish olib borish, tarbiyaviy-profilaktik jarayonni tashkil etish sohasida aniq bir sistemaning yo'qligi oqibatida tarbiyalash tizimida ko'pchilik kamchiliklarni yuzaga keltiradi. Ba'zi pedagoglar individual yondoshishni hulqida og'ish bo'lgan o'g'il bolalar va qizlarning xususiy xususiyatlarini hisobga olish deb tushunadilar. "Individual yondoshish – deb yozadi A.S.Makarenko – shaxsning alohida injiqliklari bilan shug'ullanishni bildirmaydi. Individual yondoshish bahonasida yakka individualistik tarbiyani tushuni kerak emas. O'quvchi kamchiliklariga ko'z yumuvchi, uning injiqliklariga ko'nuvchi, tarbiyalash va xarakterni tuzatish o'rniga uning aytganini qiladigan pedagog kuchsiz, ilojsiz bo'ladi. Individual yondoshish uning individual qobiliyati va imkoniyatlariga mos ravishda tarbiyalash ijtimoiy xususiyati bilan belgilanadigan shaxs sifatlarini unga etkazishdan iborat bo'ladi"¹⁸.

A.S.Makarenkoning fikricha ikkita xato juda ko'p uchraydi: birinchi xato "hammani bir xil teng ko'rish"dan iborat bo'lib, odamni standart namunaga kiritish, inson turlari tor seriyasini

¹⁸ Макаренко.А.С. Сочинения. В 7 т. Т.5 – с. 334

tarbiyalashga intilish hisoblanadi. Ikkinchisi - har bir individning xususiyatlariga passiv e'tibor qilish, har bir odam bilan alohida tartibsiz shug'ullanish bilan hammani bir vaqtda boshqarishga natijasiz urinish. Bu – gipertrofiyadir (lotincha - haddan tashqari oshirib yuborish).

Huquqbuzarlikni individual profilaktika qilish tuzatish-yo'naltirishdan biri sifatida elementidan iborat bo'ladi, lekin faqatgina undan iborat bo'lmaydi. Bu shaxsni maqsadga muvofiq qayta tarbiyalash jarayonidir.

U huquqbuzarlarning tarbiyachilar, jamoatchilik va atrofdagilar ta'siri ostida o'zlari to'g'ri qarashlar va ishonchlar, tushunchalar ishlab chiqishlaridan iborat. Ijtimoiy-ijobiy hulqi ko'nikmalari va odatlarini egallaydilar, o'z hissiyotlari va irodalarini rivojlantiradilar. SHu tariqa qiziqishlari, intilishlari va layoqatlarini o'zgartiradilar. Boshqa tomondan individual profilaktika aniq bir shaxsga atrof-muhitning ta'sir ko'rsatishini bartaraf qilishga qaratiladi. Ushbu jarayonni samarali boshqarish uchun quyidagilarni ta'minlovchi profilaktik metodlarni tanlash kerak:

1. Ma'naviy ongini ishlab chiqish.
2. Pozitiv hulqi ko'nikma va odatlarini shakllantirish
3. Jamoyatchilik tartibiga zid ta'sirlarga qarshi tura olishga imkon beruvchi irodaviy

kuchlarini tarbiyalash.

4. Mikromuhitni ijtimoiy sog'lomlashtirish.

Huquqbuzarlikni profilaktika qilish asosiy vazifalari:

1. Ijtimoiy hulqi og'gan va huquqbuzarlikka qodir bo'lgan shaxslarni hamda ularga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ota-onalar va boshqa shaxslarni o'z vaqtida aniqlash.

2. YOsh insonning jamiyat bilan kelishmovchiligiga yo'l qo'ymaslik, bunga imkon yaratuvchi sabablar va holatlarga yo'l quymaslik maqsadida balog'atga etmagan huquqbuzarlarning shaxsi yoshi va psixologik xususiyatlarini o'rganish

3. Huquqbuzarlarga va uni o'rab turgan muhitga individual tarbiyaviy profilaktik ta'sir ko'rsatish dasturini ishlab chiqish.

4. Tarbiyaviy va profilaktik ishlarda ijtimoiy-pedagogik faoliyat hamma sub'ektlarining birgalikdagi harakatlarini va mosligini tashkil etish, hulqi buzilgan o'smirlar hayot kechirishini kundalik, muntazam nazorat qilishni amalga oshirishni tashkil qilish.

Qayta tarbiyalash - qayta kuch talab etadigan, jiddiy, mashaqqatli, turli xil profilaktik va ma'naviy ta'sir ko'rsatish usullaridan foydalanishni talab etadigan murakkab jarayondir, chunki oilada ham, maktabda ham va mehnat jamoalarida ham hulqi ijobiy qo'nikmalariga o'rganilmagan tarbiyaviy va pedagogik mazmunda eng ortda qolgan odamlar bilan ishlashga to'g'ri keladi.

Qayta tarbiyalash jarayonini tashkil etishda quyidagi kategoriyadagi balog'atga etmaganlarga alohida e'tibor berilishi kerak:

1. Jazo olib tarbiyalash koloniyalaridan qaytib kelgan, lekin ularning hulqlari tashvish uyg'otadigan shaxslarga.

2. Ozodlikdan mahrum etish hukmini ijro etish kechiktirilgan balog'atga etmagan huquqbuzarlarga nisbatan.

3. Jinoyat sodir etib, lekin jinoiy javobgarlikdan jamoatchilik yoki administrativ ta'sir ko'rsatish, yoki amnistiya sababli ozod etilgan hamda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan yoshgacha ijtimoiy xavfli harakatlar sodir etganlarga.

4. Maxsus o'quv-tarbiyaviy tashkilotlardan qaytib kelganlarga.

5. Jamoatchilik yoki administrativ ta'sir ko'rsatish choralarga olib keluvchi huquqbuzarlik sodir etganlarga nisbatan.

6. Spirtli ichimlik yoki narkotik moddalar iste'mol qiluvchilar.

7. Ilgari sudlanmagan, lekin bir yil davomida ikki marta administrativ javobgarlikda ayblangan, yoki rasmiy ogohlantiriga takror olib keluvchi shaxslar.

8. O'qishni doimiy qodiruvchilar.

9. Doimiy qimor o'ynaydigan va jamoatchilik tartibiga rioya qiymay hayot keradiganlar.

Profilaktik ta'sir xususiyatlari va tendensiyalarini hisobga olganda va uning ichki hissiyotlari bilan, intilishlari bilan mos kelganda optimal bo'ladi. SHunda tashqi profilaktik ta'sir kursatish go'yoki o'zini tarbiyalash, o'zini rivojlantirish jarayoni bilan uyg'unlashadi.

Balog'atga etmagan huquqbuzarlar bilan ishlash individual profilaktik dasturning tuzilishi va mazmuni.

Huquqbuzar shaxsini ijtimoiy sog'lomlashtirish profilaktik dasturi quyidagi muhim komponentlarni o'z ichiga olishi kerak:

1. Individual-profilaktik ta'sir ko'rsatish maqsadini, ulardan asosiysi - o'smirda axloq va huquq qoidalari talablariga doimiy rioya qilish zarurligi haqida ishonchini yuzaga keltirishdir.

2. O'smirda qanday etishmaydigan sifatlarni tarbiyalash va qanday salbiy xislatlarni yo'qotish zarurligini hisobga oluvchi shaxsga tarbiyaviy va nazorat ta'siri metodlari va usullarini.

3. Shaxsga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni yo'qotish uchun uning atrofiga bevosita ta'sir ko'rsatish va shaxslararo munosabatlarni qayta tarbiyalashga imkon beruvchi tizimli shakllantirish usullari.

4. Ushbu bolaga nisbatan eng ko'p tarbiyaviy ta'sir ko'rsata oladigan aynan ana shu mehnat, o'quv jamoalari, ijtimoiy guruhlar, jamoatchilik va davlat tashkilotlarining individual-profilaktik ta'sir ko'rsatish vositalarini.

5. Shaxsni ijtimoiy sog'lomlashtirish profilaktik dasturini amalga oshirish asosiy bosqichlarini.

Profilaktik dasturni amalga oshirishda quyidagi talablarga amal qilish kerak:

1. Qayta tarbiyalash jarayonining mazmunliligi, yo'naltirilganligi, muntazamliligi.

2. Qayta tarbiyalash foydaliligini tushunib olish.

3. Bir tomondan jamiyatning balog'atga etmagan huquqbuzarga talablarini va ikkinchi tomondan - o'smir shaxsi individual xususiyatlarini va rivojlanish umumiy qoidalarni o'rganish.

4. Qayta tarbiyalashda majburlash va talabchanlikning bo'lmasligi.

5. Tarbiyaviy profilaktik jarayon ishtirokchilarining hammasi chidamliligi va sabr qilishlari.

6. O'smirning o'zining faolligi, u o'ziga ko'rsatilayotgan tarbiyaviy ta'siri tushunib etish, shu bilan birga o'z tashabbus ko'rsatish va irodasini namoyon etsin.

Individual profilaktik ta'sir ko'rsatish dasturining asosiy maqsadi balog'atga etmaganning shaxsini umumiy qabul qilingan qoidalar, tartib va boshqa ijtimoiy qadriyatlar tomoniga o'zgartirishdir. Bu maqsadga darhol erishib bo'lmaydi, oylar va yillar talab etilishi mumkin.

Qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib vazifalar aniqlanadi. Ulardan asosiylari quyidagilar hisoblanadi: balog'atga etmaganning normal pozitiv qiziqishlarini tiklash va rivojlantirish; normal munosabatlarni; ijtimoiy mas'uliyatini va intizom va javobgarlik xissini.

Balog'atga etmaganni qayta tarbiyalash qo'yilgan masalalarini hal etish uchun Ushbu o'smirning hayot tarzidagi pozitiv vaziyatlarini, ularning mustahkamligini Xamda uning talab-istaklarini, qiziqishlarini, layoqatini aniqlash maqsadida bolaning psixologik, ijtimoiy, ma'naviy "qiyofasini" tuzib olish muhimdir.

Individual profilaktik ta'sir ko'rsatish metodlarini tanlash bolaning faoliyati ustun doirasini hisobga olib quriladi. Huquqbuzarlikni individual profilaktika qilishda rag'batlantirish, sustlashtirish metodlaridan faol foydalanish mumkin. O'zining mazmuni bo'yicha ular an'anaviy rag'batlashtirish va jazolash metodlaridan ancha boydir. Rag'batlantirish metodik usullari qatoriga ma'qullash, maqtov, ishonish, baholash, mukofotlash, minnatdorchilik bildirish va boshqalarni kiritish mumkin. Yigit va qizlardan iroda va mehnatsevarlikni talab etadigan harakatlar va ishlarinigina rag'batlantirish kerak. Ular ko'p kuch sarflamay va vaqt sarflamay amalga oshirganlarini emas sustlashtirish (tartibga chaqirish, yo'lga solib turish) metodlari usullari tanbeh berish, koyish, ogohlantirish, ya'ni qoida buzuvchi shaxsiga nisbatan qattiq

talablardan iborat bo'ladi. Ular insonning hulqiga jamoatchilik talablari alohida shaklidan iborat bo'ladi, unda bir vaqtning o'zida nima noto'g'ri bajarilganligini qoralash ham, keyinchalik qanday harakat qilishga ko'rsatma ham beriladi hamda qilgan ishini takrorlashi mumkinligini oldini olish maqsadida kelajakda ogohlantirish beriladi.

Tormojenie (sekinlashtirish, tartibga chaqirish yo'lga solish) insonga har kuni kerak bo'ladi va u tarbiyalangan bo'lishi kerak, odat bo'lishi, har bir jismoniy va psixik harakatda ifodlanishi, ayniqsa tortishuv janjallarda kerak bo'ladi. Yo'lga solish usullari agarda ularni jamoa, jamoatchilik tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlansa, ayniqsa yaxshi ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman yo'lga solish uchta asosiy vazifani bajarishi kerak: o'z kamchiliklarini tushunib etishga, ularning yomonligini anglashga, xulqini o'zi boshqarish bilan bu kamchiliklarni yo'qotish.

Shundan keyin maqsadlarga muvofiq va shaxs xususiyatlarini hamda vaqtni o'tkazish eng nozik davrini (nazoratni kuchaytirish uchun) hisobga oluvchi vositalarni aniqlanadi. Ular ko'pchilik hollarda bo'ladigan og'zaki o'rgatishdangina iborat bo'lmay, balki turli xil kompleks choralardan iborat bo'lishi kerak.

Profilaktiv vositalar, hatto tushuntirish, suhbat yoki jamoatchilik ta'siri, uqtirish kabi keng tarqalganlari ham har doim ham juda foydali deb hisoblanishi mumkin emas. Bundan tashqari vositalar har qanday tizimini doimiy deb tavsiya etib bo'lmaydi, chunki bola shaxsi rivojlanish jarayonida o'zgaradi, yangi munosabatlarga kirishadi, uning hayot faoliyati sharoitlari o'zgaradi.

Yosh huquqbuzarni qayta tarbiyalash samarali vositalaridan biri o'ziga individual bo'lgan, dinamik, insonning ichki dunyosi hamma boshqa tomonlari bilan murakkab munosabatlarda bo'lgan uning emotsional-irodaviy doirasiga ta'sir ko'rsatish hisoblanadi. SHaxsning emotsional-irodaviy sohasi tushunchasiga psixologiyada sezgi va irodasini kiritadilar. Sezgi – insonning hayotida sodir bo'layotgan, u idrok etayotgan yoki amalga oshirayotgan ishga turli shakldagi hayajonlanish, ta'sirlanish ichki munosabati sezish ta'sirlanish turli shakllari – emotsiya, affekt, kayfiyat, stress holati, zavq ham va nihoyat sezgi tor ma'noda bu – shaxsning emotsional doirasini tashkil etadi.

Asosiy emotsional holatini psixologiyada ijobiy ajratish qabul qilingan – bu qiziqish, quvonch, hayajonlanish, hayratlanish, emotsional holat sifatida ijobiy yoki salbiy emotsional ta'sirlanish belgisiga ega emas. Salbiy emotsional holatga esa azoblanish, g'azab, nafrat, jirkanish, qo'rqinch, uyat hisoblanadi.

Shaxsning emotsional holatini ifodalovchi barqaror sezgidan biri muhabbat xissi hisoblanadi. Iroda – bu insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan o'z faoliyati va hulqini tashkil etish va o'zini boshqarishdir. Iroda – bu insonning o'zi belgilab olgan maqsadi bilan belgilanadigan shaxsning faolligi alohida usuli, uning hulqini tashkil etish alohida turidir.

Iroda ikki bir-biri bilan bog'liq vazifalarni bajarishni ta'minlaydi - rag'batlantiruvchi, uyg'otuvchi va yo'lga soluvchi, ularda o'zini namoyon etadi. Uyg'otuvchi vazifalari insonning faolligi bilan ta'minlanadi. Irodaning yo'lga soluvchi vazifalari, uyg'otuvchi vazifasi bilan birgalikda ishtirok etib, shaxsning keraksiz, noxush harakatlarini to'xtatib ushlab qolishda namoyon bo'ladi.

Huquqbuzarlar bilan ishlash usullari turlicha bo'lishi mumkin: kitob o'qishga, san'atga qiziqtirish, ijobiy yo'nalishdagi norasmiy guruhga qo'shish; kech qolish, dars qoldirish odatlarini yo'qotish. YOsh huquqbuzar shaxsiga tarbiyaviy-profilaktik ta'sir ko'rsatish metodlari, vosita va usullarini tanlash ko'p holatlarga bog'liq bo'ladi. Ulardan bir qismini yuqorida ko'rsatib o'tdik. Individual profilaktika shaxsning faolligini, kerakli chora-tadbirlarni o'tkazishga istagi yoki qarshiligini hisobga olishni talab etadi.

Tarbiyalash koloniyalarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat reabilitatsion dasturlari

Huquqbuzarlik sodir etgan o'smirlar bilan asosiy profilaktik ishlar asosan ochiq sotsiumda (o'smir kichik huquqbuzarlik sodir etgan bo'lsa yoki shartli hukm etilgan bo'lsa) o'tkazilsa yoki

maxsus o'quv tarbiyaviy tashkilotlarda olib borilsa, tarbiyalash koloniyalarida asosan balog'atga etmagan hukm etilganlarga yordam reabilitatsion dasturlari amalga oshiriladi.

Balog'atga etmaganlar uchun koloniyalarda tarbiyalash jarayoni "kattalar" koloniyalaridan ancha farq qiladi. Bu koloniyalarda qonun hukm etilganlar bilan ishlash uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi, ta'sir ko'rsatish pozitiv choralari qo'llaniladi, bu imtiyozlar sonini ancha oshiradi va jazo choralari ancha kamaytiradi. O'smirlar bilan ishlashda umumta'lim va professional tayyorgarlikdan iborat o'quv-tarbiyaviy ishlarga asosiy e'tibor qaratiladi. Hamma tarbiyalanuvchilar uchun ular kasb egallashlari uchun kerakli sharoitlar yaratiladi: shu bilan birga kasb tanlash keng va ixtiyoriy imkoniyatlari ta'minlanadi. Region va mehnat bozori talablari, yoshi, jismoniy va psixik xususiyatlari hisobga olinadi. Mehnat tarbiyasining samaraliligini oshirish o'smirlarni ijtimoiylashtirish masalasini, ularni mustaqil hayotga tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Hukm etilganlarning ko'pchiligi koloniyaga kelishidan avva maktablarda kollejlarda o'qigalar, imtizomni buzuvchi, tartibbuzarlikni boshlovchi va janjallarda ishtirok etuvchi deb ta'riflanadilar, ular darslardan qochib ketadilar, tengdoshlari va o'qituvchilarni haqoratlaganlar. SHuning uchun o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari bilan hukm etilgan o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratish kerak. O'z faniga qiziqtirish, foydali ishlarga jalb eta bilish mahorati, chidamli bo'lish va qo'yilgan maqsadga erishishda qat'iy, tirishqoq bo'lish – mana shular bu turdagi balog'atga etmaganlar bilan ishlashchi pedagogning professional mahorati mezonlaridir.

Hukm etilganlarning bilm olishga, mehnatga munosabatlarini o'zgartirish, tarbiyalanuvchilarni ishlab chiqarishni tashkil etish va madaniyati yuqori darajali ish bilan, texnologiyalar bilan ta'minlash juda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bajargan ishlariga haq to'lashni ta'minlashga erishish zarur, bu o'smirlarning o'z mehnatlari natijasiga qiziqishlarini oshiradi. Jinoyatchilarni tuzatish jarayonini ta'minlovchi asosiy vositalarga umumta'lim o'qitish kiradi. Umumta'lim o'qitish balog'atga etmaganlarga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida alohida rol o'ynaydi. CHunki tarbiyalash koloniyasida tashkilotning asosiy tuzilish elementi va amalda koloniyada olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning markazi hisoblanuvchi umumta'lim maktabida hamma hukm etilganlar bilim oladilar. Koloniyaga kelganlarida hamma hukm etilganlar umumta'lim maktabining kerakli sinflariga taqsimlanadilar, otryadlar bo'yicha taqsimlash ularning bilim darajalaridan kelib chiqib "bo'lim-sinf" prinsipi asosida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishda ishlash yoki kasb-hunar kollejida o'qitish faqatgina maktabdan bo'sh vaqtida amalga oshirilishi mumkin.

Koloniyada tarbiyalash jarayonida maktab o'qituvchilarining, otryadlar tarbiyachilari va kasb-hunar kolleji o'qituvchilari, ishlab chiqarish murabbiylarining aniq o'zaro aloqalari juda muhimdir. Koloniyada eng keng tarqalgan tarbiyaviy ishlar usullari suhbatlar, leksiya, munozaralar, qiziqarli insonlar bilan uchrashuvlar hisoblanadi.

Oxirgi paytlarda halol hayot kechirayotgan koloniyaning sobiq tarbiyalanuvchilari bilan hukm etilganlarning qarindoshlari, jamoatchilik va diniy tashkilotlar vakillari bilan uchrashuvlar keng qo'llanila boshlandi. Ozodlikdan mahrum etilish sharoitlarida o'qishdan va ishdan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish kerak bo'ladi. Koloniyada bu vaqt tartibli belgilab qo'yilgan bo'ladi. SHuning uchun, ular rasmiy ko'rinishda bo'lmasligi uchun (hisobot uchun) hukm etilganlar uchun bo'sh vaqti chora-tadbirlarni aniq rejalashtirish zarurdir. CHora-tadbirlar o'smirlarda hayotga qiziqish uyg'otishi, irodalilik sifatleri va ularning jamoatchilik tartibiga zid ta'sirlarga qarshi turishga imkon beruvchi xarakteri xususiyatlarini shakllantirish kerak. Hukm etilganlarning qarindoshlari bilan ijtimoiy-foydali aloqalardan foydalanish katta ahamiyatga ega bo'ladi, ular tarbiyaviy ishlar jarayonini faollashtiradi, ilgari yaratilgan jamoatchilik tartib qoidalariga zid hayot tarzi va hulqini buzishga imkon beradi. Hukm etilgan balog'atga etmaganlarga tuzatuvchi ta'sir ko'rsatishlar samaraliligi umumiy kriteriylar bo'yicha belgilanadi. Bu kriteriylar ma'lum tuzatish daradalariga asoslangan bo'ladi: "tuzatish yo'liga kirdi", "tuzatish yo'lidan aniq bormoqda".

Bu tushunchalar o'rtasida chegara qanday? Afsuski bu baholash kriteriyalari hamma tuzatish koloniyalari uchun yagona hisoblanadi va haqiqiy jarayonlarni mos ravishda aks ettirmaydi.

Demak, tuzatish ta'sir ko'rsatishining samaraliligini belgilovchi aniq ko'rsatkich ozod etilgandan so'ng jinoyatchining hulqi retsidivi (qayta takrorlash) hisoblanadi.

Balog'atga etmagan huquqbuzarlar uchun tuzatish ta'sir ko'rsatishi amaliyotida jazo turlarini qo'llashni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazo turiga muqobil jazolar turlaridan biri qisqa muddatga qamoqqa olish bo'lishi mumkin, bu usul Evropa mamlakatlarida keng qo'llaniladi. SHartli ravishda hukm etish haqida gapirsak jazolashning bu turiga juda ehtiyotkorlik bilan yondoshish kerak va uni qo'llanilgan o'smirlarni aniq nazorat qilish kerak bo'ladi. Bu talab bajarilmaganda o'smirlar o'z holiga tashlab qo'yilgan bo'ladi va qilgan jinoiy harakatlari uchun jazolanmasligini his qiladi.

Balog'atga etmaganlar huquqbuzarlik va retsidiv jinoyatchiliklarini profilaktika qilishda istalgan samaraga ular bilan tarbiyaviy ishlarga ijtimoiy pedagog-professionallarni jalb etilgandagina samaraga erishish mumkin. Penitensiar¹⁹ tashkilotlar boshida bunday yuksak va qiyin masalani hal etishga qodir bo'lgan – yuristlar, psixologlar, ijtimoiy pedagoglarning eng yaxshilari turishlari kerak.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Shaxs va balog'atga etmagan hukm etilganlar guruhi asosiy xarakteristikalarini aytib bering
2. Balog'atga etmaganlarning jinoyat sodir etishlari asosiy sabablarini aytib bering.
3. Balog'atga etmagan hukm etilganlarning kattalardan muhim farqi nimada?
4. Balog'atga etmagan huquqbuzarlar bilan individual-profilaktik ishlash mazmunini aytib bering.
5. Balog'atga etmagan huquqbuzarlar bilan individual ishlashga kompleks yondoshish nimadan iborat?
6. Balog'atga etmaganlarni tarbiyalash koloniyalarida ijtimoiy tarbiyalash xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Balog'at yoshiga etmaganlar jinoyatchiligi muammosi.
8. Tarbiyalash koloniyalarida bo'lgan balog'atga etmagan jazolanuvchilarning yoshlari xususiyatlari.
9. Jinoyat sodir etish sabablari
10. Balog'atga etmagan (jazolanuvchilar) jazoga hukm etilganlar munosabatlarining xususiyatlari. Ularning kattalardan farqlarini ko'rsatuvchi belgilari.

¹⁹ Пенитенциар – (лотинча poenitens) – жиноятчиликни олдини олувчи тузатиш тизими.

Testlar

1. "Ijtimoiylashuv" atamasini birinchi bo'lib insonlarga nisbatan qo'llagan olim?
A) E.Dyurkgeym
B) T.Pasons
V) F.Keddings
G) P.Naturn
2. Muloqot, o'yin, ma'naviy-amaliy faoliyat, sport kabi so'zlar qaysi tushunchaga tegishli?
A) Ijtimoiylashuv agentlari.
B) Ijtimoiylashuv vositalari.
V) Ijtimoiylashuv mexanizmi
G) Ijtimoiy moslashish
3. Bolaning ijtimoiy rivojlanishida nechta yo'nalish mavjud?
A) 2ta
B) 3ta
V) 4ta
G) 5ta
4. Inson o'zi uchun yomon taassurotlardan voz kechish bog'liq ijtimoiylashuv mexanizmining nomi?
A) Xarakatlarni bekor qilish mexanizmi.
B) Loyixalash mexanizmi.
V) O'z-o'zini cheklash mexanizmi.
G) Ajratish mexanizmi
5. Ijtimoiylashuv agentlari negacha bo'linadi?
A) 2ta
B) 4ta
V) 5ta
G) 6ta

Muvofiqlikni aniqlang

1. Oilaviy ichkilikbozlik an'analari	a) ruhiy muammolarni bartaraf etuvchi doping sifatida
2. Homila davridagi ichkilikbozlik	b) spirtli ichimliklariga qizi-qishni paydo bo'lishi
3. OAVlaridagi reklamalar.	v) epilepsiya, aqli zaiflik
4. Ota-onaning pedagogik savod-sizligi	g) spirtli ichimliklarga moyil-likning shakllanishi
5. Oiladagi noxush holat	d) organizimning alkogoldan zahar-lanishi

Muvofiqlikni aniqlang

A) mehribonlik uyi, asrab olish, maktab-internat	1. ijtimoiy pedagogik faoliyat vazifalari
B) axborot berish, vositachilik, tashxis qo'yish	2. bolalar uyining vazifalari
V) bolalar sog'ligini saqlash, ijtimoiy adaptatsiyani ta'minlash, qulay sharoit yaratib berish.	3. vasiylik qilish tizimi
G) reproduktiv, psixoterapevtik, xo'jalik-maishiy	4. oila tipologiyasi
D) assotsional, notinch, xavfi bor oilalar	5. oila funksiyalari

G L O S S A R I Y

Alkogolizm – alkogolni suiste'mol qilishdir. quyidagi turlirini ko'rsatish qabul qilingan: maishiy ichkilikbozlik, surunkali ichkilikbozlik, alkogolizm psixozlari.

Bolalar alkogolizmi – bolalarning spirtli ichimliklarga patologik o'rganib qolishlari va shaxsning itimoiy barbod bo'lishiga olib kelishi bilan ifodalanadigan bolalarning yomon hulqlari shaklidir.

Valeolog (lot. Vale - sog' bo'l) – bolalarni sog'lom turmush tarziga o'rgatuvchi mutaxassis.

Viktilizatsiya (lotincha victime-qurbon) – ijtimoiylashishi uchun noqulay sharoit, vaziyatlar, Buning oqibatida inson qurbon bo'lib qoladi

Kofedensial (lotincha confidential - ishonish) – ishonuvchi, ovoza qilinmaydigan, maxfiy.

Degradatsiya - (fransuzcha degradation) – doimiy yomonlashish, og'irlashish, tushkunlik, harakatning orqaga ketishi.

Eyforiya (grekcha euphoria) – yuksak quvonchli, xursandchilik kayfiyati, vaqtichog'lik va beg'amlik. Ob'ektiv vaziyatga mos kelmaydigan kayfiyat.

Oila – odamlar orasidagi o'zaro munosabatlar doimiy shakli. Ijtimoiy institut, uning doirasida odamlarning kundalik hayoti asosiy qismi amalga oshiriladi: jinsiy munosabatlar, bola tarbiyalash, turmush, boshlang'ich ijtimoiylashish, maishiy hayotning katta qismi, ta'lim va tibbiyot xizmatlari va boshqalar.

Xavfi bor guruh oilalari - balog'atga etmaganlarning ota-onalari yoki ularning qonuniy vakillari bolani tarbiyalash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaydigan, yoki ularga nisbatan qonuniy harakatlar qilayotgan oiladir.

Oilaning ijtimoiy mavqei – oilaning individual xususiyatlari bilan uning tuzilish va funksional parametrlari bilan mos kelishi hisoblanadi.

Yetimlik – jamiyatda ota-onalari vafot etgan bolalar hamda ota-onalari qarovisiz qolgan bolalar borligi sababli ijtimoiy holatdir.

Ijtimoiy Yetimlik – biologik ota-onalariga ega bo'lgan bola, lekin ular biror-bir sabablarga ko'ra bolani tarbiyalash bilan shug'ullanmaydilar va unga g'amxo'rlik

ko'rsatmaydilar; shunday holatda bola haqidagi tashvishlarni jamiyat va davlat o'z zimmasiga oladi.

Ota-onalari qarovisiz qolgan bolalar – bu bolalarning ota-onalari: vafot etgan; ota-onalik huquqidan mahrum etilgan; ota-onalik huquqlari cheklangan; noma'lum sabablarga ko'ra yo'qlar deb tan olingan; layoqatsiz (nogironlar); axloq tuzatish koloniyalarida jazo muddatini o'tayotganlar, jinoyat sodir etishda ayblanadilar va qamoqqa olingan; bola tarbiyasidan bosh tortadiganlar; bola vaqtinchalik joylashtirilgan davolash, ijtimoiy muassasalaridan bolani olib ketishdan bosh tortadilar.

Vasiylik va himoyasiga olish – Yetim bolalarni va ota-onalari qarovisiz qolgan bolalarni boqish va tarbiyalash hamda ularni huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun joylashtirish shakli; huquq va manfaatlarini himoya qilish 14 yoshga etmagan bolalar ustidan, vasiylik 14-18 yoshgacha bolalar ustidan o'rnatiladi.

Farzand qilib olish – farzand qilib olinayotgan va farzand qilib olayotganlarga ota-onalar hamda bolalar o'rtasidagi mavjud bo'lgan kabi huquq va majburiyatlarni berish yuridik akt.

Davlat qaramog'iga olish – farzand qilib olinayotgan bolaga (Yetim bolaga) uni tarbiyalash va rivojlantirish uchun qulay, zarur sharoitlar yaratib berilgan maxsus tashkilotlarga joylash

Anomal bolalar – me'yoriy psixik va (yoki) jismoniy rivojlanishda og'ishganlik holatida bo'lgan hamda ularning asoratlarini engib o'tishda maxsus korreksiya (tuzatish) metodikalarini qo'llanilishiga muhtoj bolalar.

Iqtidorlilik – me'yordagi yosh ko'rsatkichlariga nisbatan aqliy rivojlanishida odinda bo'lgan yoki rivojlanishida maxsus iste'dodi bo'lgan (musiqi, badiiy ijodda va h.k) bolalar.

Ijtimoiy me'yor – Jamiyat hayotiga muvofiq belgilangan madaniy qadriyatlarga monand va jamiyatning barqarorligi hamda yaxlitligini ta'minlovchi huquqiy, ma'naviy-axloqiy xo'lqiy va insonlar faoliyatini, hatti-harakatini boshqaruvchi standartlar.

Deviant xulq - Ijtimoiy va axloqiy me'yorlarga mos kelmaydigan, guruhlar yoki yaxlit jamiyat uchun muvofiq bo'lmagan xulq-atvor.

Delikvent xulq - O'rnatilgan huquqiy me'yorlarni buzuvchi va huquqbuzarlikka olib keluvchi hatti-harakatlarni sodir etuvchi hulq-atvor.

Qarovsizlik – Ota-onalar yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan tarbiyalash haqidagi g'amxo'rlik qilinmaydigan bolalarning xulq-atvori, nazoratsiz qo'lishi.

Ijtimoiy-pedagogik profilaktika- negativ xulq-atvorli bolalarning ijtimoiy og'ishganlik holatlariga olib boradigan asosiy sabab va sharoitlardan ogohlantirishga yo'naltirilgan tashkiliy-tarbiyaviy chora-tadbirlar yoki sog'lig'i sababli jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lmagan (nogiron bolalar), ijtimoiy maqomi o'zgargan (Yetim bolalar), hulqiy og'ishgan (qarovsiz bolalar), huquqbuzar bolalar va boshqalarning oldini olish choralari.

Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

1. P. Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O‘qituvchi 1993y
2. J. Xasanboev. Pedagogika.T., “Fan”, 2006
3. S.A. Kozlova. Doshkolnaya pedagogika. Moskva. “Prosvetshenie”2000
4. Sotsialnaya pedagogika. / Kurs leksiy – M.: VLADOS., 2000
5. L.M. Mardaxaev. Sotsialnaya pedagogika Moskva, “Prosvetshenie”,2006
6. F.A.Mustafaeva Sotsialnaya pedagogika Moskva, “Prosvetshenie”,2003
7. A.V. Mudrik. Sotsialnaya pedagogika Moskva, “Prosvetshenie”,2005
8. YU.V. Vasilkova, T.A. Vasilkova Sotsialnaya pedagogika Moskva 2006

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A «Yuksak ma’naviyat -yengilmas kuch» Ma’naviyat 2008 y
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.Sharq. 1999y
3. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar – sog‘lom avlodni tarbiyalash vositasi. T., “O‘qituvchi” 1995.
4. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. T. “CHO‘lpon”. 1995.

Ijtimoiy pedagogika fanidan horijiy adabiyotlar

1. С.А. Козлова. Дошкольная педагогика. Москва. “Просвещение”2000
2. Социальная педагогика. / Курс лекций – М.: ВЛАДОС., 2000
3. Л.М. Мардахаев. Социальная педагогика Москва, “Просвещение”,2006
4. Ф.А.Мустафаева Социальная педагогика Москва, “Просвещение”,2003
5. А.В. Мудрик. Социальная педагогика Москва, “Просвещение”,2005
6. Ю.В. Василькова, Т.А. Василькова Социальная педагогика Москва 2006